O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAHD DAVLAT UNIVERSITETI

FANIDAN
O’QUV – USLUBIY MAJMUA

MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

SAMARQAND

№	O’quv-uslubiy majmua bo’limlari	bet
1.	Ma’ruzalar matni	
2.	Amaliy mashg’ulotlar	
3.	Mustaqil ta’lim mashg’ulotlari	
4	Glossariy	
5.	Ilovalar	
5.1.	Fan dasturi	
5.2.	Ishchi fan dasturi	
5.3.	Tarqatma materiallar	
5.4.	Testlar	
5.5.	Baholash mezonlari	

1.MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TABIAT HAQIDA TUSHUNCHA.

Mashg’ulot rejasi:

1. Tabiat haqidatushuncha
2. Tabiat bilan tanishtirishning pedagogasoschilari
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirishdasturi

Mashg’ulotning maqsadi:

Talabalarga tabiat haqidagi fan uning metodikasi tushunchalar, darsni tashkil etish tabiat haqidagi bilimlarni bolalarga etkazib berishda pedagogik texnologiyalar yondashish yo’llari. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tabiat burchaklarini tashkil etish va undagi ishlar haqida tushunchalar berish.

Tabiat haqida tushuncha

O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqeahodisalarning sirasrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat dcyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.

Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmastuganmas manbaidir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'limtarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Biosfera yerda hayot paydo bo'lgandan boshlab, uzoq tarixiy davrlar davomida rivojlanib kelmoqda. Yerning tirik organizmlar va biogen cho'kindi tog' jinslari tarqalgan qismini rus olimi akademik V.l.Vernadskiy *biosfera* (yunoncha — «bios» — hayot, «sfera» — shar) deb nomlagan. Biosfera sayyoramizning «hayot qobig'i»

hisoblanib, tirik organizmlarning o'zaro chambarchas aloqa, munosabatlaridan iborat murakkab ekosistemalar majmuini tashkil etadi.

V.l. Vernadskiy tushunchasiga ko'ra hozirgi vaqtda biosferaning tarkibiga faqatgina yerning qobig'ida tarqalgan tirik organizmlar kirib qolmay, balkiqadimgi davrlarda organizmlar ishtirokida hosil bo'lgan litosfera qismi ham kiradi. Shuning uchun ham biosfera *neobiosfera* va *polebiosfera* kabi tarkibiy qismlargaajratiladi.

Biosfera murakkab harakatdagi tizim ekan, unda moddalar almashinuvi natijasida energiyaning qabul qilinishi, to'planishi va o'tkazilishi kabi jarayonlar boradi. Biosfera funksional nuqtai nazardan bir necha qatlamlardan tashkil topgan.

Biosfera yer sharidagi eng yirik ekotizim bo'lib, u quyi darajalardagi kichik tizimlarga bo'linib ketadi. Bular quruqlik va suv havzalari, okeanlar, metosferaning yuqori qatlami, atmosferaning quyi qatlamlari, bundan tashqari quruqlikda evolyutsiontarixiy tizimlar sifatida biogeografik tabiiy mintaqalar, biomlar, landshaft zonalar, ayrim landshaftlar va hokazolarga ajraladi.

Biosferaga katta doiradagi biotik moddalarning aylanishi xarakterlidir. Biosferaning umumiy vazni 3 10^{24} bo'lganda, tirik modda 1,8—2,5 10^{l8}g (quruq vazni)ga teng bo'ladi.

Biosfera tushunchasi fanga 1875yilda avstraliyalik zoolog E.Zyuss tomonidan kiritilgan. Biosfera haqidagi ta'limot esa akademik V.l.Vernadskiy tomonidan yaratilgan. Sayyoramizdagi barcha tirik organizmlar yig'indisini V.l.Vernadskiy «tirik modda» deb atadi. «Tirik modda»ning eng muhim xususiyatlari uning umumiy vazni, kimyoviy tarkibi va energiyasi hisoblanadi. Biosferaning ikkinchi tarkibiy qismi «o'lik modda» bo'lib, V.I.Vernadskiyning aytishi bo'yicha tirik organizmlar qatnashadigan biosferadagi moddalar yig'indisidan hosil bo'ladi. Biosferada «oraliq moddalar» ham mavjud bo'lib, ular o'lik va t i r i k moddalarning birgalikdagi faoliyatidan hosil bo'ladi.

Ekologiya. Bugungi kunda ekologiya fani tushunchasi har bir kishining ongiga singib bormoqda. Deyarli har kuni gazeta sahifalarida, radio va oynaijahon ko^{k}rsatuvlarida hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar hamda ularni hal etish borasida olib borilayotgan sa'yharakatlar haqida ma'lumotlarberiladi.

Ekologiya tushunchasi yunoncha so'z bo'Iib, «eko» — uy, makon va«logos» — fan degan ma'noni bildiradi. Tabiiy uyimizni o'rganish deganda, albatta, undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni o'rganish, ya'ni ushbu uyni yoki maskanni hayot uchun yaroqli holda saqJash kabi masalaiar tushunilishi kerak. Ekologiya fani ham biologiya,gcografiyafanlarisingarimustaqilfan hisoblanadi. (J tirik organizmlaming yashash sharoiti va ularni o'zi yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlari hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o'rganadi. Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo'Iib 1866yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidankiritilgan.

Populyatsiyalar, turlar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosfcra kabi tushunchalarekologiyafanining manbaihisoblanadi.Shuning uchun umumiy ekologiya to'rt bo'limga bo'Iib o'rganiladi: *autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya* va *biosfcra.*

1. *Autekologiya* («autos» — yunoncha so'z bo'Iib, «o'zi» degan ma'noni bildiradi) ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatini, ularning qanday muhitga ko'proq va uzviy moslashganligini o'rganadi.
2. *Populyatsiyalar*ekologiyasi(«papulyason»—fransuzchaso'zbo'Iib, «aholi» degan ma'noni bildiradi) populyatsiyalar tuzilmasi va dinamikasini, ma'lum sharoitda turii organizmlar sonining o'zgarish (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.
3.

4. Ekotizimlarning tadqiq qilishning rivojlanishi *biosfera* haqidagi ta'limotni vujudga keltiradi.

Bugungi kunga kelib ekologiya fani aniq biologik fanlar tizimidan chiqib, atrofmuhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida o'ta kengayib ketdi. Fanga «inson ekologiyasi» degan atama ham kirib keldi.

Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. 1921 yilda amerikalik olimlar Bortes va Park tomonidan «Inson ekologiyasi» degan yangi fan kiritildi.

Dastlab, inson ekologiyasiga tabiiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik lining ijtimoiy, texnik, me'moriyiqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonning atrofmuhitga va aksincha, atrofmuhitning insonga ta'sirini o'rganadi. Inson ekologiyasini o'rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga kcladi. Unga birinchi bo'Iib Raderik Mak Kenzil ta'rifbergan.

Ijtimoiy ekologiya ijtimoiy fanlardan bin hisoblanib, uning maqsadi inson bilan atrofmuhit o'rtasidagi xususiy bog'lanishlarni o'rganishdan iborat. Shunday qilib, ekologiya bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o'rganilayotgan obyekt yoki tizimning atrofmuhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiqetadi. Biosferava insonekologiyasifaniningobyektibo'Iib birhujayrali sodda tuzilishdagi bakteriyalar, zamburug'lar, o'simlik va hayvonlar hamda ularning jamoalari xizmat qiladi. Ekologiya fani tabiat bilan tirik organizmlarning uzviy bog'lanishini ifoda etarekan, u shubhasiz tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asosini tashkil etadi.(1shakl)

3. Tabiat bilan tanishtirishning pedagog asoschilari

Qor yog'ishi. qor bo'roni. muz yurishi. momaqaldiroq, do'l yog'ishi, tuman tushishi va shu kabi tabiat hodisalari bilan bolalarii tanishtirish. Bolalarga suvning inson hayoti uchun zarurligi, yer yuzidagi eng bebaho boylik ekanligi, uni asrash bizning burchimiz ekanligi haqida tushuncha berish. Turli xil predmetlar: o'yinchoqlar, transport harakati haqida va bulutlar, qora bulut, quyosh harakati haqida boshlang'ich tasavvurlarni hosil qilish. Boshlang'ich harakat nuqtasini va jism harakat qilayotgan chiziqni belgilashga, harakat xarakterini aniqlashga(predmetlar sekin, tez xarakat qilayapti) o'rgatish

O'simliklar dunyosi. Mahalliy o'simliklar haqida bolalar tasavvurlarini mustaxkamlash. Bolalar daraxtlarning 4-5 turi (tut, terak, kayrag'och, tol)ni (barglariga, po'stlog'iga, mevasiga qarab), butalarning xili(na'matak, maymunjon) ni

2-3 yosh

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Quyosh va oy haqida tasavvurhosil qilish.

Bolalarni uy hayvonlarining nomini atashga, ularning tovushigataklid qilishga o'rgatish. Bolalarni hayvonlar gavdasining asosiy qismlari, ba'zi bir o'ziga xos alomatlari, xarakatlariga dikkatlarini jalb etish. Hayvonlarni parvarish qilish haqida tasavvur uyg'otish.

Bolalarni daraxt, gul va o't-o'lshshi farqlashga o'rgatish. Ularning diqqatini xonada o'stiriladigan gullarning chiroyiga jalb kilish, ularni sugorib turish zarurligini tushuntirish. Nomlari tanish bo'lgan sabzavot va mevalarni farqlashga o'rgatish. O'simliklarni ehtiyot kilishga odatlantirish. Bolalar bilan fasllar almashishi va ob-havodagi ayrim o'zgarishlar (yomg'ir, qor yog'ishi, quyosh charaqlab turishi)nikuzatish.

Gurux xonasida akvariumdagi baliqlarni, qushni kuzatish. Ularni parvarishlashga kiziqish uygotish. Butun jonli tabiatga nisbatan gamxo'rlik hissini tarbiyalash.

4-5 yosh

Jonli va jonsiz tabiat, yer kurrasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish

Jonsiz tabiat. Bolalarga ob-havo holatini (sovuq, issiq, iliq, quyoshli, bulutli, shamol esayapti, yomgir yog'ayapti, do'l yog'ayapti), suv va qorning ayrim xususiyatlarini(suv tiniq, qor yumshoq bo'lishi, undan qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynash mumkin va hokazo; qor quruq ham bo'ladi) farqlashni o'rgatish.

Ayrim predmetlar suvda cho'kishini, ayrimlari cho'kmasligini: issiq kunda ko'lmak suv tez, sovuq kunda sekin qurishini anglab olishlariga yordam berish.

Jonsiz tabiatning ayrim xususiyatlari (tosh-qattiq, qum-sochiluvchan)ni farqlashni o'rgatish.

Bolalarga ob-havodagi o'zgarishlarni (sovuq shamol esayapti, yomg'ir, qor yog'ayapti) farqpashgao'rgatish. Qorning' xususiyatlari (sovuq, yumshoq, yopishkoq, ho'l, quruq) bilan tanishtirish.

Bolalarni tong, kunduz, kechqurun, kechasi tushunchalari bilan tanishtirish, kun qismlarida insonlar va bolalarning harakatlari hakida suhbatlar o'tkazish.

O'simliklar dunyosi. Sabzavotlar (baqlajon, karam, sholg'om, turp, piyoz) va mevalar (anor, anjir, behi uzum, o'rik) bilan tanishtirishni davom ettirish. Bolalarga sabzavot va mevalarning nomlarini, rangi, shakli, ta'mi, ovqatga ishlatilishining (xomligicha. pishirilgan, tuzlangan va quritilgan holda) xarakterli belgilarini bilishlari: Sabzavotlar polizda mevalar esa daraxtda o'sishi bilan tanishtirish. Bolalarga sabzavotlar har yili ekilishini, mevalar esa ko'p yillik o'simlik hisoblanishi haqida qisqacha tushunchaberish.

Sabzavot va mevalar yetishtirishda kattalarning mehnati haqidagi tasavvurni shakllantirish.

Kuzda daraxtlar bargining to'kilishi, o'tlarning sargayishi, dala va boglarda yig'im-terim ishlarining boshlanishi haqida suhbatlar uyushtirish. Kuzning oxirida daraxtlarning bargi butkul to'kilib bo'lishi, o't-o'lanlarning esa xazonga aylanishi, faqat igna bargli archalargina har doimgidek ko'm-ko'k qolishi haqida tushuncha berish.

Urugdano'simliklaro'stirish(o'sishidagiizchillik,o'sishuchunzarursharoitlar. parvarish qilish) haqida; o'simliklar hayoti va o'sishiiing ayrim shartlari (ular yerda o'sadi, ularni suv bilan sug'orish kerak, tuproq ser ozuqa bo'lishi uchun uni o'g'itlash, yorug'lik kerak) haqidag'i tasavvurlarini shakllantirish. Bolalar diqqatini kunlar ilishi bilan daraxtlarning kurtak chiqarishi, gullashi, barg yozishi, o't-o'lanlarning ko'karishi kabilarga jalb etish. Gilos va shaftoli daraxtining gulini qiyoslash va farqlashga o'rgatish. O'simliklarning tuzilishi haqidagi tasavvurni aniqlash va mustahkamlash. Daraxtlarda bitta tana, yo'g'on va ingichka shoxlar, yaproqlar bor. Butalar va bir necha ingichka tana, shox, barglari borligi, o'tsimon o'simliklarda poya, barg, gullar borligi, o'simliklar ildizlari bilan o'zlarini yerda tutib turishi va yerdan suv hamda ozuqa moddalarini olishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Atrofdagi o'simliklarning quyidagi belgilariga qarab tanish: daraxtlar,

butalarning barglari, po’stlog’iga; o’tsimon o’simliklarning rangi va gulining shakliga qarab tanish.

Yumshok mevalar, sabzavotlar bilan, o’simliklar o’sadigan joylar (xiyobon, maktabgacha ta’lim muassasasi, bog’) bilan tanishtirish. Tanish o’simliklar nomlarini eslab qolishga o’rgatish. Maktabgacha ta’lim muassasasida sabzavotlar o’stirilishi haqidagi tasavvurlarni aniqlash, kengaytirish.

Hayvonot dunyosi. Kuz-qish davrida olmaxon, kuyon va tipratikan singari hayvonlar xayoti va tabiiy sharoitlari (qayerda yashashi, qanday yurishi, nimalar bilan oziqlanishi, dushmanlaridan qanday himoyalanishi) haqidagi tasavvurlarini shakllantirish

Fasllar o’zgarishi bilan quyon, olmaxon, tipratikan kabi hayvonlar hayoti (tabiiy sharoitda ular qayerda yashaydilar, nimalar bilan oziklanadilar, dushmanlardan qanday qutuladilar) bilan tanishtirish. Uy hayvonlari vaularning bolalari (it, kuchukchalar, mushuk, mushukchalar), qushlar (chumchuq, kabutar, musicha va boshqalar), atrof muhitda uchraydigan hasharotlar (chumoli, kapalak, xon qizi, ninachi kabi)ni farqlashga o’rgatish.

Uy hayvonlarining hayoti, insonlarning ularni parvarish qilishdagi mehnatlari haqidagi tasavvurlarini aniklash va kengaytirish.

Uy hayvonlari va ularning bolalari haqidagi bilimlarini kengaytirish. Bolalar ularning tana qismlarini, yurish-turish xususiyatlarini ajrata bilishni va to’g’ri xarakterlashni, nima bilan oziqlanishini qanday yurishi, qanday foyda keltirishini, odamlar ular to’grisida kanday gamxo’rlik qilishlari haqida bilimlarini kengaytirish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o’rgatishni davom etshrish.

Yovvoyi hayvonlar (quyon, olmaxon, tipratikan) haqidagi tasavvurni kengaytirish, ularning bahorgi-yozgi mavsumdagi tabiiy sharoitdagi hayoti (ovqatlanish, tullash, uya kurish, bolalarni o’stirish, bolalari haqida ota-ona g’amxo’rligi xususiyatlari) bilan tanishtirish; tashqi kiyofasi, xatti-harakatiga ko’ra yosh hayvonlarning kattalaridan farq qilishini ko’rsatish.

Kunlar ilishi bilan bolalar diqqatini kushlar ko’payib, hasharotlar paydo bo’la boshlagani, kunlar sovishi bilan hashoratlar butkul ko’rinmay qolganiga, muassasa hovlisidagi qushlar ham kamayib ketganiga qaratish. Sovuq qish kunida qorni ochib ovqat izlayotgan qushchaga naqadar qiyin ekanligini his etishga undash. Bolalarda qushlarga gamxo’rlik qilish hissini tarbiyalash.

Qushlarning nima bilan oziqlanishi, qishloq xo’jaligiga keltiradigan foydasi xaqida ham qisqacha ma’lumot berish. Qushlarga hayrixoxlik bilan munosabatda bo’lish kerakligini tushuntirish.

Tabiat burchagida piyoz o’stirish, parvarish qilish, tashqari sovuq bo’lishiga qaramay, xonada ularning o’sish sababini tushuntirish.

O’rmon hayvonlari ularning yurish-turish xususiyatlarini bilishni va to’g’ri xarakterlashni; yashash sharoitlari, nima bilan oziqlanishini qanday yurishi, qanday foyda keltirishi haqida tasavvur hosil qilish.

Uy hayvonlari hayoti, yoz vaqtida odamlar ularni parvarish qilishdagi mehnatlari (sigir, echki, qo’ylar yaylovlarda o’tlashi, odamlar o’t o’rishi, xashak jamgarishlari va hokazo) haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Yaqin atrofdagi hayvonlarni, hovliga keladigan qush, kapalak, qo’ngiz va ninachilarni bir-biridan farqlashga o’rgatish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o’rgatishni davom ettirish. ;

O’quv yili oxirida bola:

- muassasa hovlisidagi 3-4 xildaraxt;
- madaniy va begona o’tsimon o’simliklardan 1-2 xili, ba’zi sabzavot va mevalar, uy hayvonlari, ularning bolalari, kush va hashoratlarni tanishi va ularni guruhlayolishi;
- 4-5 xil xona o’simliklarini nominibilishi;

fasllar almashishi va ob-havodagi ayrim o’zgarishlar (yomg’ir, qor yog’ishi, quyosh charaqlab turishi)ni payqashlari va tabiatni muhofaza qilish haqida dastlabki tushunchaga ega bo’lishlari;

- jonsiz tabiatning ayrim xususiyatlari (tosh-qattiq, kum-sochiluvchan)ni farqlayolishlari;
- predmetlarni kuzatadi, oddiy tajribalar (cho’kadi-cho’kmaydi, yirtiladi-yirtilmaydi) o’tkazishni bilishilozim.

mayda motorika tizimida ijobiy o’zgarishlar amalga oshadi (chaqqonlikning ortishi

5 – 6 yosh

Jonsiz tabiat. Bolalarga ob-havo holatini (sovuq, issiq, iliq, quyoshli, bulutli, shamol esayapti, yomg’ir yogayapti, do’l yog’ayapti), suv va qorning ayrim xususiyatlarini(suv tiniq, qor yumshoq bo’lishi, undan qorbobo yasash, qorbo’ron o’ynash mumkin va hokazo; qor quruq ham bo’ladi) farqlashni o’rgatish.

Ayrim predmetlar suvda cho’kishini, ayrimlari cho’kmasligini: issiq kunda ko’lmak suv tez, sovuq qunda sekin q>'rishini anglab olishlariga yordam berish.

Jonsiz tabiatning ayrim xususiyatlari (tosh-qattiq, qum-sochiluvchan)ni farqlashni o’rgatish.

Bolalarga ob-xavodagi o’zgarishlarni (sovuq shamol esayapti, yomg’ir, qor yog’ayapti) farqlashga o’rgatish. Qorning xususiyatlari (sovuq, yumshoq, yopishqoq, ho’l, quruq) bilantanishtirish.

Bolalarni tong, kunduz, kechqurun, kechasi tushunchalari bilan tanishtirish, kun qismlarida insonlar va bolalarning harakatlari haqida suhbatlar o’tkazish.

Osimliklar dunyosi. Sabzavotlar (baqlajon, karam, sholg’om, turp, piyoz) va mevalar (anor, anjir, behi uzum, o’rik) bilan tanishtirishni davom ettirish. Bolalarga sabzavot va mevalarning nomlarini, rangi, shakli, ta’mi, ovqatga ishlatilishining (xomligicha. pishirilgan, tuzlangan va quritilgan holda) xarakterli belgilarini bilishlari: Sabzavotlar polizda mevalar esa daraxtda o’sishi bilan tanishtirish. Bolalarga sabzavotlar har yili ekilishini, mevalar esa ko’p yillik o’simlik hisoblanishi xaqida kisqacha tushunchaberish.

Sabzavot va mevalar yetishtirishda kattalarning mehnati haqidagi tasavvurni shakllantirish.

Kuzda daraxtlar bargining to’kilishi, o’tlarning sarg’ayishi, dala va boglarda yig’im-terim ishlarining boshlanishi haqida suhbatlar uyushtirish.

Kuzning oxirida daraxtlarning bargi butkul to’kilib bo’lishi, o’t-o’lanlarning esa xazonga aylanishi. faqat igna bargli archalargina har doimgidek ko’m-ko’k qolishi haqida tushuncha berish.

Urug’dano’simliklaro’yetirish(o’sishidagiizchillik,o’sishuchunzarursharoitlar, parvarish qilish) haqida; o’simliklar hayoti va o’sishining ayrim shartlari (ular yerda o’sadi, ularni suv bilan sug’orish kerak, tuproq serozuqa bo’lishi uchun uni o’g’itlash, yorug’lik kerak) haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.

Bolalar diqqatini kunlar ilishi bilan daraxtlarning kurtak chiqarishi, gullashi, barg’ yozishi, o’t-o’lanlarning ko’karishi kabilarga jalb etish.

Gilos va shaftoli daraxtining gulini qiyoslash va farqlashga o’rg’atish.

Usimliklarning tuzilishi haqidagi tasavvurni aniklash va mustaxkamlash. Daraxtlarda bitta tana, yo’g’on va ingichka shoxlar, yaproqlar bor. Butalar va bir necha ingichka tana, shox, barglari borligi, o’tsimon o’simliklarda poya, barg, gullar borligi, o’simliklar ildizlari bilan o’zlarini yerda tutib turishi va yerdan suv hamda ozuqa moddalarini olishi haqidag’i tasavvurlarini kengaytirish.

Atrofdagi o’simliklarning quyidagi belgilariga qarab tanish:

daraxtlar, butalarning barglari, po’stlog’iga; o’tsimon o’simliklarning rangi va gulining shakliga qarab tanish.

Yumshok mevalar. sabzavotlar bilan, o’simliklar o’sadigan joylar (xiyobon, maktabgacha ta’lim muassasasi, bog’) bilan tanishtirish. Tanish o’simliklar nomlarini eslab qolishga o’rg’atish.

Maktabgacha ta’lim muassasasida sabzavotlar o’stirilishi haqidagi tasavvurlarni aniqlash, kengaytirish.

Hayvonot dunyosi. Kuz-qish davrida olmaxon, kuyon va tipratikan singari hayvonlar xayoti va tabiiy sharoitlari (qayerda yashashi, qanday yurishi, nimalar bilan oziklanishi, dushmanlaridai kanday himoyalanishi) haqidagi tasavvurlarini shakllantirish

Fasllar o’zg’arishi bilan kuyon, olmaxon, tiprashkan kabi hayvonlar hayoti (tabiiy sharoitda ular qayerda yashaydilar, nimalar bilan oziklanadilar, dushmanlardan qanday qutuladilar) bilan tanishtirish. Uy hayvonlari vaularning bolalari (it, kuchukchalar, mushuk, mushukchalar), qushlar (chumchuq, kabutar, musicha va boshqalar), atrof muhitda uchraydigan hasharotlar (chumoli, kapalak, xon qizi, ninachi kabi)ni farqlashga o’rgatish.

Uy hayvonlarining hayoti, insonlarning ularni parvarish kilishdagi mehnatlari haqidagi tasavvurlariii aniqlash va kengaytirish.

Uy hayvonlari va ularning bolalari haqidagi bilimlarini kengaytirish. Bolalar ularning tana qismlarini, yurish-turish xususiyatlarini ajrata bilishni va to’g’ri xarakterlashni, nima bilan oziklanishini qanday yurishi, qanday foyda keltirishini, odamlar ular to’g’risida kanday gamxo’rlik qilishlari haqida bilimlarini kengaytirish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Uaarni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o’rgatishni davom ettirish.

Yovvoyi hayvonlar (quyon, olmaxon, tipratikan) haqidagi tasavvurni kengaytirish, ularning bahorgi-yozg’i mavsumdagi tabiiy sharoitdagi hayoti (ovqatlanish, tullash, uya qurish, bolalarni o’stirish, bolalari haqida ota-ona g’amxo’rlig’i xususiyatlari) bilan tanishtirish; tashqi kiyofasi, xatti-harakatig’a ko’ra yosh hayvonlarning kattalaridan farq qilishini ko’rsatish.

Kunlar ilishi bilan bolalar diqkatini kushlar ko’payib, hasharotlar paydo bo’la boshlagani, kunlar sovishi bilan hashoratlar butkul ko’rinmay qolganiga, muassasa hovlisidagi qushlar ham kamayib ketganiga qaratish. Sovuq qish kunida qorni ochib ovqat izlayotgan qushchaga naqadar qiyin ekanligini his etishga undash. Bolalarda qushlarga g’amxo’rlik kilish hissini tarbiyalash.

Qushlarning nima bilan oziqlanishi, qishlok xo’jaligiga keltiradigan foydasi haqida ham qisqacha ma’lumot berish. Kushlarga xairixoxlik bilan munosabatda b>'lish kerakligini tushuntirish.

Tabiat burchagida piyoz o’stirish, parvarish qilish, tashqari sovuq bo’lishiga qaramay, xonada ularning o’sish sababini tushuntirish.

O’rmon hayvonlari ularning yurish-turish xususiyatlarini bilishni va to’g’ri xarakterlashni; yashash sharoitlari, nima bilan oziklanishini qanday yurishi, qanday foyda keltirishi haqida tasavvur hosil qilish.

Uy hayvonlari hayoti, yoz vaqtida odamlar ularni parvarish qilishdagi mehnatlari (sigir, echki, qo'ylar yaylovlarda o'tlashi, odamlar o't o'rishi, xashak jamg'arishlari va hokazo) haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Yaqin atrofdagi hayvonlarni, hovliga keladigan qush, kapalak, qo'ngiz va ninachilarni bir-biridan farklashga o'rgatish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o'rgatishni davom ettirish.

5-6 yosh

Jonsiz tabiat. Bolalarni predmetlar (sharchalar, kubiklar, o'yinchoqlar mashinalar) harakatlari bilan tanishtirish, ularning yo'llari va tezliklarini qiyoslashgao'rgatish.

Moddalarning qattiq holatdan suyukdikka aylanishi (muzning, smola(qora saqich)ning erishi) va suyuq holatdan qattiq holatga aylanishi haqida tasavvurni kengaitirish.

Suyuklikni parga va aksincha, parni suyuqlikka aylanishi hodisalari bilan tanishtirish. Qaltiq moddalarni suyuqlikka va suyuqlikni qattiq (barglari, ranglari, mevalariga qarab) nomini aytishlar, farqlashlari, sabzavotlarning 6-8 xilini, mevali daraxtlardan 4-5 xili(olma, nok, anor, anjir, olcha)ning nomlarini, ranglari, shakli, mazasi, ovqatda iste'mol qilishda xarakterli belgilarini bilishlari kerak.

Sabzavotlar va mevalar haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlarni quyidagi belgilariga qarab shakllantirish: sabzavot va mevalar ovqatda qo'llaniladi, ularni maxsus yetishtiradilar: sabzavotlar poliz(dala)da o'sadi, mevalar esa bog'da yetishtiriladi.

O'simlik (suv quyish, tagini yumshatish) va hayvonlar (ovqatlantirish, kattalar yerdamida akvarium yoki qafasni tozalash)ni parvarishlashni bilishi

Xona gullaridan aloe_bilan tanishtirishni davom ettirish, ularni parvarish qilish yo'llarinio'rgatish.

Bolalarda tabiatdagi go'zallikdan zavq olishni tarbiyalashni davom ettirish. Tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani buzmaslik(tevarak-atrofni iflos qilmaslik. o't-o'lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish.

O'simliklarning tuzilishi, ularning ayrim qismlari vazifalari haqidagi tasavvurni aniqlash va kengaytirish: ildizlar suvni, ozuqa moddalarni shimib oladi, bular poyalar orqali, tana orqali, shoxlar orqali yaproqlar, gullar, mevalarga yetkazilishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. O'simliklarning o'sishi uchun havo, suv, kuyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy ishlar orqalitanishtirish.

Zaruriy sharoitlar yetishmasligini bildiruvchi belgilarni bolalar bilishlari kerak: yorug'lik kam bo'lganida o'simlik yorug'lik tomonga cho'ziladi. yaproyushri va gyuyasi oqaradi. ozika moddasi kam tuprokda o'simliklar sekin o'sadi, issiq bo'lmasa urug unmaydi, barglar yozilmaydi, suvsiz o'simliklar kurib qoladi.

Usimliklarni ko'paytirishning usullaridan biri-qalamcha qilish bilan tanishtirish. Erta gullaydigan o'tsimon, butasimon o'simliklar va daraxtlar bilan ganishtirishni davom ettirish. Ba'zi daraxtlar(o'rik, bodom) avval gullab. so'ng barg chiqarishi, ba'zilari esa barg chiqarib(olma, behi) so'ng gullashini tushuntirish.

Bahor tabiatning uyg'onish fasli ekanligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va chukurlashtirish. Ayrim o'simliklarning piyozidan, daraxtlarning qalamchasidan, butasidan ko'payishi mumkinligini tushuntirish va o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida bolalar bilan birgalikda erta gullaydigan daraxt va gul ko'chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug'orishga o'rgatish. Qu rigan shox - shabbalarni kirqish. ko'milgan gul, tok va anor ko'chatl arini ochish va ularni parvarish qilish ko'nikmasini hosil qilish.

Uruglardan o'simliklar o'stirilishi (2-3 xil sabzavot 1ullaydigan o'simliklar misolida), o'simlikning o'sishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlar haqidagi(urug' unib chiqishi, yaprokli poya, gul, urug'), o'simliklar o'stirish, ularni parvarishlashning asosiy usullari(chopilgan yerga o'tkazish, suv kuyish, yerni yumshatish, o'toq kilish, ozuka berish) xaqidagi tasavvurni shakllantirish.

Hayvonot dunyosi. Yevvoyi hayvonlar(tulki, bo'ri, ayiq)ning xayoti bilan tanishtirish. Hayvonlarning tashqi kiyofasi, yashash tarzi xususiyatlarini ajrata bilish va xarakterlash ko'nikmasini shakllantirish. ular kayerda yashaydi. o'ziga qanday uy quradi, qanday yuradi, kuzda, kishda nima bilan oziqlanadi, k.ishga qanday tayyorgarlik ko'radi. Bolalarni hayvonlarning ko'rinishi va xulqidagi umumiylik va o'xshashliklarni ajrata bilishga, bir-biriga o'xshashligiga karab xulosa chiqarish(o'rmon hayvonlari, yirtqich hayvonlar)ga >'rgatish.

Ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish.

Bolalar diqkatini kuz faslida ob-havo o'zgarishiga, daraxt barglarining sarg'ayibto'kilishiga, kishilar kiyimidagi o'zgarishlarga, hashorat va kushlarning kamayib qolganiga karatish, bularning sabablarini mustaqil aytib berishga o'rgatish

Kuz faslining eng go'zal xususiyatlari turli-tuman yorqin ranglarga boy ekanligi haqidagi bilimlarini aniqtashtirish. Bu davrdameva va sabzavotlar garq pishadi, yig'im-terim mavsumi boshlanadi. Kuz fasli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish hamda mustaqil ravishda kattalarga yordam berii1ga odatlantirish

Bolalar ongiga tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, hayvon va kushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, gullarni yulish oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish.

Hayvonog dunyosi. Uy hayvonlari (tuya, ot, sigir, qo’y, echki) va parrandalar (tovuq, xo’roz, kurka, o’rdak, goz)ning asosiy turlari, xayoti va sharoitlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash va sistemalashtirish kuyidagi belgilar asosida umumlashtirilgan tasavvurni tashkil kilish, odamlar yenida yashaydigan va undan qo’rkmaydigan hayvonlar, foyda keltiradigan hayvonlar, insonlar, ularning hayot kechirishlari uchun zarur bo’lgan sharoitlarni yaratishi, uy hayvonlarining kishilar hayotida tutg’an o’rni haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ularda g’amxo’rlik tuyg’ularini mustahkamlash.

Bolalarga respublikamizda qishlab qoluvchi kushlar (musicha, chumchuq, kaklik, bedana) haqida tushuncha berish. Kushlarning ovqatlanishi, tashqi ko’rinishi, ulardagi o’zaro o’xshashlik va farkli tomonlarini farklashga o’rgatish. Ularga qishda g’amxo’rlik ko’rsatish va xayrihohlik munosabatini tarbiyalashni davomettirish.

Qish faslining o’zigaxostabiati haqidatush\'ncha berish (k>nlar qisqa, sovuq, ayozli bo’lishi, ariq va ko’lmaklarning muzlashi, qorning pag’a-paga yog’ishi va b.) yer yuzi va daraxtlar usti oppoq qor bilan qoplanganda tabiat qanchalik jozibali ko’rinishiga bolalar e’tiborini qaratish, ularning estetik tuyg’ularini shakllantirish.

Kunlar ilishi bilan q\chllar, hashoratlarping ko’payishi, ularning harakatini kuzatish. in kurishi. tuxum qo’yishi, bola ochishi va h.k. haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalargaqushlarning donxo’raklariga don solishni, suvlarini almashtirishni o’rgatish. Qafasga paxta, yumshoq matolardan tashlab, kushlarning harakatlarini kuzatish. Kushlarning sayrashini tinglash va farklashga o’rgatish.

Ninachi, chumoli, asalari. kapalaklarning paydo bo’lish sababi, hayot tarzi, nima bilan oziklanishini tushuntirish.

Bahorda tabiatdagi o’zgarishlar haqidagi tasavvurni bir tizimga kegma ketlikka tushirish. Issiqlikning ortib borishi bilan qor, muzlarning erib borishi o’rtasidagi, tuproqning xolati. Bularning barchasini tabiat uyg’onishiga ta’siri to’g’risidagi tasavvurlarini shakllantirish.

Yoz faslida poliz, bog’ va dalalardamevalar pishishi, ayri.m sabzavotlarning yer ostida meva tugishi va pishishi(kartoshka, sabzi, yeryong’oq) haqida ma’lumot berish, mevalarni hididan ajratishga o’rgatish, sabzavot va mevalarni inson organizmiga ta’siri, foydasi haqida bolalarga tushuntirish hamda ularni qanday iste’mol qilish haqida suhbatlashish.

Yer maydoichasidagi va yaqin oradagi o’simliklar haqidagi bilimlarini aniqpash. Yaproq, gul, va mevalari, po’stlog’iga qarab daraxt, butalarni farqlashga o’rgatish. Boshoqli ekinlarni o’stirish bilan, o’rmon mevalari, qo’ziqorinlar bilan tanishtirish. Turli xil o’simliklarning o’sish joylari(o’tloq, dasht, o’rmon, dala, bog’, poliz, xiyobon) haqidagi tasavvurlarini aniqlash

Bolalarga o’zlariga tanish uy hayvonlari va parrandalarning inson uchun foydali tomonlari haqida ma’lumot berish. Ularni parvarish qilishga o’rgatish. Hasharotlar(kapalak, ninachi, chumoli, asalari, chigirtkalar)ning tabiiy sharoitdagi hayoti haqida tasavvurlarini shakllantirish. Ma’lum joylarda yashaydilar(kapalaklar-o’tloqlarda, kurbaqalar-botkoqliklarda va h.k.) ovkat izlashadi(kapalaklar, asalarilar-gullar shirasini, kurbaqalar mayda chivinlarni), dushmanlaridan qochish uchun yaxshi moslanganliklari (ninachilar tez uchadi, kapalaklar pirillab uchadi, chigirtkalar, qurbaqalar sakraydilar va h.k.), uchib ketadigan kushlar(3-4 xili)bilan, tashqi ko’rinishi xatti-harakati(nima bilan oziqlanadi, nima uchun issiq o’lkalarga uchib ketadi) bilan tanishtirish. Kushlardan birining in kurish va bola ochishi bilan tanishtirish.

Bolalarning tabiatdagi yozgi hodisalar, issiqlik, namning ko’nligi bilan o’simliklarning birdaniga gurillab o’sishi, barcha hayvonlarning faol hayot boshlashi o’rtasidagi aloqadorliklari haqidagi tasavvurlarni bir tizimga ketma ketlikkatushirish.

6-7 yosh

Jonsiz tabiat. Bolalarda jonsiz tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarini shakllaitirish.

Havo, magnitning xususiyatlari bilan tanishtirish. Bolalaruchuntushunarli vositalar yordamida havo hamma joyda: suvda, g’ishtda, yerda vashukabilarda mavjudliginitajribalarorkaliko’rsatish.Havoningqayishqokbo’lishi,ma’lum hajmni egallashi (sovun ko’iiklarini nuflash, sharlarnipuflash)mumkinligini ko’rsatish.

Havo harakatlanadi(shamol) va u harakat qilib,predmetlarnijoydan- joyga ko’chirishi va shuningdek, harakatga karshilikko’rsatishimumkin(parashyut).

Bolalarni magnitning xususiyatlari bilan tanishtirish. Magnito’zigametall buyumlarni tortishi, magnitning xususiyatlari to’siklar orqali ham namoyon bo’lishi(magnitta predmetlar suv, qog’oz, plastmassa, yogoch, karton orqaliham tortilishi). Magnit o’ziga tortinsh va o’zidan itarishi bilantanishtirish.

O’simliklar dunyosi. Bolalarni yangi hona o’simliklari bilan tanishtirish. Ularning xususiyatlari: shakli, hajmi, poyasi, barglar, gulining’ rangini ajratish va xarakterlashga o’rgatish. O’simliklariing yorug’likka, issiqlikka, namga, oziklantiruvchi tuprokka ehtiyojlari haqidagi tasavvurni shakllantirish. Bolalarni yerug’likni sevuvchi va salqinga chidamli, suvni sevuvchi va suvsizlikka bardosh beruvchi o’simliklarning tashqi tuzilishiga qarab farqlashgao’rgatish.

Sabzavotlarning (8-9 xili), meva (5 xili)larning va sitrus o’simlik (3-4 xili)larning shakli, rangi, hajmi, ta’mi, ozik-ovkat sifatida qo’llanilishi, belgilarg’a qarab qiyoslash va xarakterlay olish ko’nikmasini shakllantirish, umumlashtirilgan (sabzavotlar, mevalar, gullar) so’zlarni ko’llashga o’rgatish

Bolalarda tabiatdagi go’zallikdan zavq olishni tarbiyalashni davom ettirish. Ular ongiga tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, o’t-o’lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, hayvon va kushlarga ozor bermaslik. uyalarini buzmaslik, gullarni yulmaslik, bu ning oqibatida gullar, kapalaklar yo’q bo’lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongig a singdirish.

Bolalarning hovlidag’i barcha o’simliklar va xonaki(kishda vaktincha utkazilgan) o’simliklarning yorug’likka, issiqlikka, suvga, (ozuqa) tuproqqa oo’lgan ehtiyejlari hak,idagi tasavvurlarini aniqlash. O’simliklarning o’sish va usmasligi shart-sharoitlarining’ mavjudligi va ularning turlicha talablarga bog’liqligini belgilashga o’rgatish.

Usimliklarning’ o’sishi uchun havo, suv, quyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy1iy ishlar orkali tanishtirish.

Bolalarning o’simliklarni turli yo’l bilan ko’paytirish haqidagi bilimlarini kengaytirish. O’simliklar qalamchasidan, piyozidan, butasini ajratib ekishdan . nishi mumkinligini xonaki o’simliklar misolida ko’rsatish. O’simlikning *U* ishi uchun yorug’lik, suv, issiqlik, ozuqali tuproq zarur ekanligi to’g’risidagi vdimlarini tajriba, amaliy mashg’ulotlar orqali takomillashtirish. Bahor Uldari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bolalarni ularning rangi, shakli. gullari, yaproqlariniig xajmi. belgilarigaqarab kiyoslash asosidaxarakterlashga o’rgatish.

Erta gullaydigan o’teimon, butasimon o’simliklar va daraxtlar bilanI tanishtirishni davom ettirish. Ba’zi daraxtlar(o’rik, bodom) avval gullab,so’ng barg chikarishi, ba’zilari esa barg chiqarib(olma, behi) so’ng gullashinitushuntirish.

Bolalar bilan birgaliqda maktabgacha ta’lim muassasasi hovlisida daraxt] va gul ko’chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug’orishga o’rgatish. Qurigan shox-shabbalarni qirqish, ko’milgan gul, tok va anor ko’chatlarini ochish va ularii parvarish qilish ko’nikmasini hosil qilish.

Bog’, poliz va gulxonada sabzavot va gul ekinlari yetishtirish xaqidagi bolalar tasavvurlarini boyitish. O’simliklarning ayrim turlari misolida bolalar ularning urugdan ko’karib, to urug bergunigacha bo’lgan o’sish va rivojlanish davrining izchilligini. unib chiqishi uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlarni, I ularni parvarishlash usullarini bolalar ongiga singdirish, amalda kuzatish I ishlarini olib borish.

Yovvoyi o’simliklar urug’ini to’kib ko’payishi va madaniy o’simliklarni inson tomonidan yetishtirilishi, madaniy va yovvoyi o’simliklarning inson hayotidagi | ahamiyati, barcha o’simliklarni extiyet qilish va ularni qo’riqlash asosida madaniy va yovvoyi o’simliklar xaqida umumiy tasavvurni shakllantirish. Usimliklar qanday belgilari asosida (xonaki, dala. polizekinlari)madaniy

o’simliklar](o’rmon, o’tloq ekinlarini), yovvoyi o’simliklarga bo’linishi to’g’risidagi z tushunchalarini shakllantirish, guruxdagi gullar nominibilish.

Hayvonot dunyosi. Bolalarni o’zlariga tanish bo’lgan yovvoyi (quyonlar, tulkilar va hokazo) va tabiat burchagida yashovchi hayvonlarning moslashuvchanlik xususiyatlari bilan tanishtirish. Hayvonlarning o’zi yashaydigan muhitga tanasining tuzilishi va xatti-harakat bilan moslanishiga doir belgilarini ajrata bilishga o’rgatish. Uzun baquvvat oyoqlari tez yugurish imkonini beradi (bo’ri), agar hayvonning orqa oyoklari uzunroq bo’lsa, unda hayvon katta-katta sakrab yuradi (kuyon), o’tkir qayrilgan tirnoqlari daraxtlarga tirmashib chiqishga yordam beradi (olmaxon), to’mtok baquvvat, oldingi oyoqlari yon tomonga chiqqan, tirnoqlari yerni qazishgamoslashgan (toshbaqa,ko’rsichqon).

Hayvonlarning tana koplami (himoya uchun xizmat qiladigan rang (kuyon, olmaxon)ga, ignalar (tipratikan), kattiq qoplamga (toshbaqa) ega bo’lib, bular dushmandan o’zini himoya qilishda yordam) himoya va moslashuv xususiyatiga ega ekanligi hakidagi tasavvurlarinikengashirish.

O’simlik (suv quyish, tagini yumshatish) va hayvonlar (ovqaglantirish, kattalar yordamida akvarium yoki kafasni tozalash)ni parvarishlashnibilish.

Kuz faslining o’ziga xos xususiyatlari: kunlar soviy boshlab, kunduzi qisqaradi. Yaproqlar to’kiladi, o’tlar so’liydi. o’simliklar o’sishdan to’xtaydi, chunki ular uchun zarur bo’lgan yorug’lik va issiqliknipg mikdori kamayadi. Sovuq tushishi bilan hasharotlar yashirinadi. kushlarning ko’pchiligi issik o’lkalarga uchib ketadi, hayvonlar qishga tayyorgarlik ko’radilar: tullaydi (barcha hayvonlar), ovqat to’playdi (olmaxon), ovkat yeb semirib ketadilar va uyqu uchun joy izlaydilar (tipratikan,ayiq).

Bolalar uchun yangi O’zbekiston sharoiti uchun xos bo’lmagan uy hayvonlari-shimol bug’usi bilan tanishtirish. Ularning yashash joyi. tashqi qiyofasi fe’l-atvori, inson tomonidan boqilishi va ular yetkazadigan foydalar hakida tasavvurni shakllantirish. Hayvonlarning tanatuzilishi va fe’l-atvori, tabiiy sharoitlarga moslashuvi yungining qalinligi, uning qor ostidagi mox (shimolda o’sadigan o’simlik)ni kovlab olish ko’nikmasi, buguning keng qo’shaloq tuyoqlari bilan loy, tuproqli yer va xatto qiya yerlarda ham yura olishi, o’zining belgilari bilan uy hayvonlari toifasiga kirishi haqida so’zlabberish.

Tabiat burchagida yashovchi qushlar haqida, ularning yashash sharoiti, oziqlanishi, ko’payishi to’grisidagi tasavvurlarini anikdash. Qushlarning uchishga moslashganligi xaqidagi tasavvurlarini shakllantirish(keng yigma kanotlari, dumi, yengil patlari havoga tayanish va uchish imkonini beradi).

Qish faslining o’ziga xos tabiati haqida tushuncha berish(kunlar qisqa, sovuq, ayozli bo’lishi, ariq va ko’lmaklarning muzlashi. korning paga-pag’a yog’ishi va b.)

yer yuzi va daraxtlar usti oppoq qor bilan qoplanganda tabiat qanchalik jozibali ko’rinishiga bolalar e’tiborini qaratish, ularning estetik tuyg’ularini shakllantirish.

Daraxt va butalar bargsiz, harakatsiz holatda. Hasharotlar ham, ular bilan oziqlanuvchi qushlar ham yo’q. Ular issiq o’lkalarga uchib ketishgan. Qishlab koluvchi qushlar o’t-o’lanlarning uruglarini va o’simliklarning mevalarini, odam yashab turgan joy oldidagi ovqat qoldiqlarini yeydilar. Odamlar kushlarni boqib turadilar.

Yovvoyi hayvonlarning bahor davridagi hayoti va tabiatga moslanganligi bilan bo;tlarni tanishtirishni davom ettirish, ular uyq>'dan uygonadilar, dam olish holatidan chiqadilar, tullaydilar, joyquradilar...

Hayvonlarning rivojlanishi haqidagi bilimlarini kengaytirish. Qushlar in(uya) kuradi, tuxum qo’yadi, bolalaydi, baliqlar urug’ ko’yadi va bolalaydi.

Bolalarni akvariumda boqiladigan baliqlarning tana tuzilishi va harakatlari, bularning hammasi hayotga moslashish belgilari ekanligi bilan tanishtirish.Baliklarning tanasi,shakli.hajmi,

ko’zlari va og’ziningtuzilishini ajrata bilishga, bu xususiyatlarni ularning xatti-harakti, xususiyatlari(yashash joyi, harakat usuli, ovqatlanishi) bilan qiyoslashga o’rgatish.

Bolalarda bahor haqidagi umumlashgan tasavvurni shakllantirish: Kunlar issiqroq bo’ladi, kuyosh ravshanroq yoritadi, qor va muzlar eriydi, o’tlar. navro’zgullar paydo bo’ladi, kurtaklar to’lishadi va birinchi gullar, yaproqlar paydo bo’ladi. Jonivorlar uyqudan uyg’onadi(xasharotlar, hayvonlar), uchib ketgan qushlar qaytib kelishi xaqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalarga o’zlariga tanish uy hayvonlari, ularning yoz faslidagi hayoti haqidagi bolalar bilimlarini aniqlash, ular haqida umumlashgan tasavvurni mustahkamlash. Qanday belgilar asosida u yoki bu hayvon uy hayvoni guruhiga kirishi haqida bolalar bilimlarini aniqlash. Hayvon va parrandalarning inson uchun foydali tomonlari haqidagi tasavvurlarini aniklash. Ularni parvarish qilishga o’rgatish.

Bolalar bilan hayvonlarning o’sishi va rivojlanishi hakidagi tasavvurlarini keshaigirish. Qushlar, hayvonlarning bolalari juda nozik tug’ilishi, ular ko’p jixatdan katta hayvonlardan fark kilishi haqida suhbatlashish. Kichik hayvon yeki parranda ko’pincha yung yoki pat bilan qoplanmagan, ko’zi yumuq, mustaqil yura lmaidigan va ovqatlana olmaydigan bo’ladi. Ota-onalari ular haqida gamxo’rlik Qilishlari, isitishlari, ovkatlantirishlari, dushmanlardan qo’riklashi, ovqat izlab topish, yurish, uchish, tirmashib chiqish va sakrashga o’rgatishlari haqidagi tushunchalarini aniqlash va kengaytirish adiqlar baliqchalari haqidagamxo’rlik

qilmaydilar. Baliqlarning baliqchalari mustaqil ravishda ovqat izlaydilar, dushmanlardan yashirinadilar.

Yovvoyi va qo’lga o’rgatilgan hayvonlarni taniy olishga bolalarni o’rgatish. Qanday belgilari bilan ular u ye*ki bu guruhga taalluqli bo’lishini tushuntirish.

Yoz fasli haqida umumlashgan tasavvurni shakllantirish: iliq, issiq, yomgir yogadi, momaqaldiroq bo’ladi. Hasharotlar ko’p. Hayvonlar faollashadilar, bolalaydilar. Usimliklar gullaydi, yegiladi, xosil beradi.

Yoz faslida poliz, bog’ va dalalarda mevalar pishishi, ayrim sabzavotlarning yer ostida meva tugishi va pishishi(kartoshka, sabzi, yeryongoq) haqida ma’lumot berish, mevalarni mevasi hididan ajratinp^a o’rgatish, sabzavot va mevalarni inson organizmiga ta’siri va foydasi haqida bolalarga tushuntirish hamda ularni qanday iste’mol qilish haqida suhbatlashish.

SHARQ VA G‘ARB OLIMLARINING TABIAT HAQIDAGI QARASHLARI.

REJA:

1. **Sharq mutafakkirlarining tabiatshunoslik fani haqidagiqarashlari**
2. **G’arb mutafakkirlarining tabiatshunoslik fani haqidagita'limotlari.**

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimdanekologikmadaniyat merosiga ega.

Eng mo^{k}tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»xaIqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o'Ikada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hmjatdir.

«Avesto» tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, rnhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvehifalsafadir.

«Avesto»da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uyjoy, atrofmuhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan.

«Avesto»da yer, suv, xona, inson tana a'zolari, kiyim KechakJarni toza tutish haqida yozilgan. Atrofmuhit, ko'chalarni, butazorlaru o'tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan.

Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlarni yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yomonlari ham ko'rsatilgan.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso alXorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Buyuk alloma **Muhammad ibn Muso alXorazmiy** (783850) risolalaridan birida bunday deb yozadi:

«Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!» Daryoning «yoshli ko'zlari» deganda Muhammad Muso alXorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng awalo daryo bilan odamlarning «birbirlarini tushunishlari», o'zaro mehrmuhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan.

847 yilda Muhammad alXorazmiy «Kitob surat alarz» nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar, ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, Yerning asosiyboyliklari hamda boshqatabiiyresurslarhaqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlariningtabiiy ko'nikmalari va tarixiyhuquqiy bilimlariumumlashtirilgan.

2.1. Abu Nasr Forobiy. O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiyfalsafiy fikrlarining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasrj Forobiyning (873950) ilmiyfalsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro'yxatida Forobiyning turli sohalarga oidi 180 ta asarining nomi keltirilgan.

Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, uning «Kitob alhajm va almiqdor», «Kitob almabodi alinsonia» («Insoniyatning boshlanishi haqida kitob»). «Kitob ala'zo alhayvon» («Hayvon a'zolari to'g'risida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo'laoladi.

Tabiatshunoslikka oid «Odam a'zolariningtuzilishi», «Hayvona'zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a'zolarning tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtab o'tilgan.

Odam a'zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, debtushuntiriladi.

Forobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

2.2. Abu Rayhon Beruniy (9731048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri opqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo ko'payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbliginiyo'qotmagan:

«Ekin va nasi qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit boimay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordiyu yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulibtashlaydilar».

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, «Saydana», «Minerologiya», «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqimuhitbilan aloqasi,ularningxulqatvoriyilfasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan.

Beruniy yer yuzining o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb ta'kidlaydi alloma.

Beruniy «Saydana» deganasarida1116 hil doridarmonlarnitavsiflagan. Ularning750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqimuhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Beruniy o'zining tabiiyilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosagakeladi.

2.3. Abu Ali ibn Sino (9801037) yirik qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning 450taasarimavjudbo'lib,bizgacha240tasiyetibkelgan.IbnSinoasarlariorasida «Tib qonunlari» shox asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho'qqisi bo'lib hisoblanadi.

Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur «Kitobashshifo», ya'ni «Davolash kitobi» asarida bayon etilgan. Bu asardamateriya,

fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Ibn Sinoning tog'larning vujudga kelishi, yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

2.4. Zahiriddin Muhammad Bobur (14831530). Bobur nafaqat shoir balki podsho, ovchi, tarixchi, bog'bon va tabiatshunos bo'lgan. «Boburnoma» asarida Bobur o'zi ko'rgankechirganlari, yurgan joylari tabiati, boyligi, urfodati, hayvonoti, o'simliklarini tasvirlagan. Asarda yer, suv, havoga tegishli xalq so'zlari ko'plab uchraydi.

Bobur o'z asarida joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, o'simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug'doy, o'rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ta'kidlagan.

Asarda Bobur borgan joylarining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan, hamda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batafsil bayon etib bergan.

Chexiyalik mashhur pedagog **Ya.A. Komenskiy** bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o‘rin olgan. U o‘zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliya- tini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o‘qitish va tarbiya- lashdek oliyjanob ishga bag‘ishlagan.

Uning fikricha, inson tabiatning eng go‘zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O‘zining«Buyuk didaktika», «Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlarida o‘zining muhim pedagogik g‘oya- larini ifodalagan.

Ya.A. Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o‘xshatgan.

«Onalar maktabi» xushbo‘y o‘simliklar, g‘uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. «Ona tili» maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o‘xshaydi.

«Gimnaziya»da dalalar, bog‘ va terakzorlardagi mo‘l ho- silni yig‘ib, uni «aql xazinasi»ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.Va nihoyat, «Akademiya» yig‘ilgan hosilni umr bo‘yi sarflash- ni mo‘ljallab

taqsimlayotgan kishiga o‘xshatiladi.Ya.A. Komenskiy «Onalar maktabi»da 18 ta fandan ma’lu- mot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:suv, yer, havo, olov, yomg‘ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o‘t, qush, baliq kabilarni;yorug‘lik va qorong‘ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagitasavvurlarni;

o‘zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog‘, vodiy, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.Ya.A. Komenskiy hamma narsani tabiatga bog‘lab tu- shuntirgan. U o‘quvchilar diqqatini jalbetishuchunkitob-larningnominiqiziqarlinomlab,mazmunini to‘liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog‘ning turli manzaralaridan namuna olishdir.Masalan, nega endi 1- sinf uchun bitilgan kitobni «Gu- nafsha jo‘yagi», 2- sinf kitobini — «Atirgul tupi», 3- sinf kitobini — «Istirohat bog‘i» va hokazo deb nomlash mumkin emas?Ya.A. Komenskiy bolalarni tarbiyalashda tabiatning aha- miyatini o‘zining boshqa asarlarida ham ochib bergan.

I.G.Pestalossi 1746- yilda shveytsariyalik shifokor oilasida tug‘ilgan. U o‘z zamonasining mashhur pedagogi bo‘lgan. Uning fikrlari haligacha pedagogika sohasida qo‘llanib keli- nadi. U «Gertruda o‘z bolalarini qanday qilib o‘qitadi», «Ku- zatish alifbosi», «Son to‘g‘risida ko‘rsatmali ta’lim», «Oq- qush qo‘shig‘i» kabi asarlarni yaratdi. I.G. Pestalossining fikri- cha, bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. U Ya.A. Komenskiy, Jan Jak Russolarning ushbu g‘oya- siga amal qildi:«Insoniy kuchlarning o‘sishi uchun tabiatqilayotgan hara- katga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni hayvoniy- hissiy xususiyatlardan sekinlik bilan qutqaradi. To‘g‘ri tarbiya esa ularni, ya’ni barcha insoniy kuchlarni o‘stirishga yordam beradi».I.G. Pestalossi bolalarning aqliy kamolotini o‘stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg‘a suradi:Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi.Oddiydan murakkabga yo‘naltirish.Bolaning kuch vaqobiliyatiga moslashtirish.Ko‘rsatmalilik.G. Pestalossi boshlang‘ich ta’lim xususiy metodi- kasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, hisob, geografiya, o‘lkashunoslik fanlaridan elementar ta’lim berish mazmunini asoslab berdi va bola tilini boyitish uchun geografiya, tibbiyot fanlarining ham uzviy ravishda olib borilishini tavsiya etgan edi.

I.G. Pestalossi dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib, o‘z asarlari bilan o‘ziga haykal yaratgan olimdir.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi **K.D. Ushinskiy** 1824- yili Rossiyaning Tula shaxrida tug‘ilgan. U «Bolalar dunyosi», «Ona tili», «Muallimlar uchun qo‘llanma»asarlariniyozgan. K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktabdagi ta’lim maz- munini asoslab berish bilan birga undagi qonun-qoida, tartib, metod va vositalarini ham ishlab chiqib, didaktika faniga katta hissa qo‘shdi. Bu esa ajoyib yangilik sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. U eng avvalo o‘qitishni bolalar mehnati bilan bog‘lashnitavsiyaqildi. K.D. Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiyani o‘rganib, o‘zining «Pedagogik adabiyotning foydasi», «Boshlang‘ich ta’lim metodikasi» hamda «Ona so‘zi» asarlarini yozdi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalalari bilan juda ko‘ppedagog-olimlar shug‘ullanganlar.

S.A. Veretenikova «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish meto- dikasi» kitobida, har bir yosh guruhidagi bolalarni yil fasllariga qarab tabiat bilan tanishtirish metodini asoslab bergan.

P.G. Samorukova tahriri ostidagi «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiatbilan tanishtirish» o‘quv qo‘llanmasida tabiat bilan tanishtirish metodlari, vositalari va usullari, ish shakl- lari, bolalar bog‘chasi hovlisidagi tabiat burchagini tashkil etish masalalari keng yoritilibberilgan.

M.M. Markovskaya «Bolalar bog‘chasida tabiat burchagi» kitobida, tabiat burchagini tashkil etishning shart-sharoitlari, undagi xona o‘simliklari, hayvonlar, tabiat burchagidagi mav- sumiy ishlar, bolalarni tabiat burchagidagi hayvonlar bilan tanishtirish yo‘llarini ko‘rsatibbergan.

A.G. Grigoryans, **U.B. G‘ofurovalarning** «Bolalar bo- g‘chasida ekologik tarbiya» nomli qo‘llanmalarida ekologik tarbiya berish metodlari, yo‘llarini misollar orqali yoritib, shuningdek bolalarda oddiy izlanuvchanlik faoliyatini tar- biyalashning yo‘llari haqida qimmatli maslahatlarberishgan.

MAVZU:MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH VAZIFALARI VA METOD, VOSITALARI.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tabiat bilan tanishtirish uslub va usullariga umumiytavsif.
2. Beriladigan bilim mazmuniga uslub va usullarnibog'liqdigi.
3. Kuzatish - tabiat blan tanishtirishnng asosiyuslubi.

Pedagogikada metod deb, pedagog va bolalarning birgalikdagi faoliyatlari aushuniladi. Bunda pedagog bolalarga bilim beradi bolalar esa bilim, ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Tabiat bilan tanishtirishda quyidagi metoddardag' foydalaniladi:

Ko'rgazmali uslub: (Kuzatish)

Amaliy uslub

Og'zaki uslub

Bolalarga bilim berishda bilimlar mazmunga ko'ra uslub va usullar tanlanadi.

Masalan: Biror bir kush bilan tanishtirishda etakchi metog kuzatish xisoblanadi. Tabiat hodisalari bilan tanishtirishda esa etakchi metod ogzaki uslub hisoblanadi.

Kuzatish atrof - olam predmetlari va hodisalarini maqsadgyo muvofiq, rejali idrok etishdir.

Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Kuzatilayotgan hodisani tunguntirishda bolaning tajribasi, b ili mi, malakalari muxim ahamiyatga ega.

K O' R G A Z M ALI U S L U B

Kuzatish	Tarqatma Material	Rasm ko'rish	Texnik vositalar
Uzoq muddatli, qisqa muddatli solishtirma	urug'lar mevalar barglar	ta'limiy voqea band rasmlar predmetli rasmlar	kinofilm diofilm depozita

Predmet va hodisalarning xususiyati va sifatlari haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan kiska muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar kismlarning shakli, rangi katta-kichiklish, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, satxining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tani'shganda esa harakat xarakteri ular chiqadigan tovushlarni ham o’rganadigan va x.k. O’simlik va hayvonlarning usishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o’zgarishlar haqidagi bilimlarning yoritalishi uchun kuzatashning ancha murakkabroq turi uzok, muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga ob`ektiing kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to’gri keladi. Kuzatish predmetining ayrim belgisiga ko’ra uning holatini aniqlash, ayrim belgilarga ko’ra yaxlit manzarani taklash, maqsadida ham tashkil etilishi mumkin. Kuzatashning yana bir turi solishtirib kuzatishdir. Kuzatashning bu turi o’rta guruhdan boshlab tashkil etiladi Solishtirma kuzatishda bir turdagi o’simlik yoki hayvonlarni kuzatiladi. YA`ni, masalan, pishgan meva bilan xom mevani, yoruglikda o’sgan usimlik bilan soyada qrrong’ulikda o’sgan o’simliklarni uzaro solishtiribkuzatish.

Tarqatma materiallardan foydalanib, kuzatishlar o’rta guruxdan boshlab tashkil etiladi. Bu kuzatish bitta ob`ektni kuzatishdan murakkabdir. Bu o’rinda tarbiyachidan o’z dikdatini taqsimlash, barcha bolalar harakatini uyushtara olishi talab etiladi, bolalar esa tarbiyachining barcha topshiriqlari kursatmalariga aniq rioya kilishlari, tengdbshlarni tinglashlari va quloq solishlari, boshqalarning kuzatishlari bilan taqqoslashlari va qiyoslashlari kerak. Kuzatishlarni tashkil etishning katta ahamiyati bor. Barcha bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanishida mashqlarni uquv ko’nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo’ladilar. Bolalarda aniq tasavvurlar shakllanadi. Tarqatma material sifatida o’simliklar va ularning qismlaridan foydalanishmumkin.

Kuzatishda ishtirok etuvchi har bir bola material to’plamini qo’liga oladi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalarga savollar beradi. Olingan tasavvurlar qiyoslanadi. Tarbiyachi bolalarni xulosa chiqarishlariga ko’maklashadi. Kuzatishlarda tarqatma materiallardan foydalanish bolalarning yuqori faoliyatini ta`minlaydi.

Ko’rgazmali metoddar guruhiga bolalar bilan birga rasmlarni kurish diapozitiv va kinofilmlarni namoyish qilish ham kiradi.

Bu metodlar foydalanish xilma-xil vazifalarni xal qilishga, tasavvurlarni aniklash va bilimlarini tazimlashtirish, umumlashtirish, estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi.

Rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq kurish, diqqatni uzoq muddat shu predmetga qaratash imkonini beradi, buni esa qupyncha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi va o’zgaruvchanligi tufayli amalga oshirilishining imkoni bulmaydi. Bundan tashqari kup hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta`limiy, voqeabandb predmetli, shuningdek badiiy rasmlardan foydalaniladi. Ta`limiy, vokeaband predmetli rasmlar bolalarni o’qitishda ko’rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir. Rasmlardan foydalanishdan maksad bolalarda tabiatga nisbatan estetik munosabatni tarkib toptirishdir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishida kitob jadvalidan ham foydalaniladi Qoyilgan maqsadlarga ko’ra kitoblarga illyustratsiyalarni ko’rish turlicha o’tkaziladi, ya`ni illyustratsiyalarni kurishdan oldin, o’qish davomida va ximoya sungida namoyish etish mumkin.

Bolalar bogchasida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda diapozitiv diafilm, kinofilm, telefilmlardan foydalaniladi. O’quv ekrani bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi: usimlik, hayvonlarning o’sishi va rivojlanishi - kattalarning mehnati haqidagi tasavvurini shakllantiradi, qisqa muddat ichida uzoq vaqt bo’lib o’tgan hodisalarni ko’rsatish imkonini yaratadi

Filmni ko’rishga bolalarni oldindan tayyorlash lozim. Buning uchun film mazmuniga bog’liq suhbatlar, ekskursiyalar o’tkaziladi, kitoblarni o’kish tashkil etiladi. Bevosita filmlarni ko’rsatishdan oldin bolalar yo’llanma beruvchi suhbat o’tkazilib unda bolalarga filmini ko’rayotganlarida e`tibor berishlari lozim bo’lgan topshiriqlar beriladi Film ko’rib bo’lganidan keyin muxim joylarini ajratib kursatishga yo’llangan suhbat utkaziladi. Maktabgacha kichik yoshdagilar uchun ovozsiz filmdan foydalanish ma`qul. Ularning mazmunini tarbiyachi aytib turadi. Film sungida kichkintoylar bilan maxsus suhbat o’tkazish tavsiya etiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Uslub nima?
2. Ko’rgazmali uslubga tasnif bering?
3. Ko’rgazmali uslub turlari?

IX. MAVZU: TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA OG’ZAKI USLUB

Maksad: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi hikoyasi, suhbati, badiiyadabiyotni ahamiyati haqida talabalarga bilim berish, talabalarni uzbek yozuvchilarining bolalar yoshiga moe tabiatga oid, ilmiy xikoyalardan foydalanishga o’rgatish.

Reja:

1 .Tabiatga oid hikoyalar. Ularning ahamiyati.
2. Suhbat, uning turlari.
3. Turli guruxlarda badiiy adabiyotlardanfoydalanish.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishlardan. suhbatdan foydalaniladi. Og'zaki uslub yordamida kuzatish va tabiatdagi mehnap jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi. to'ldiriladi, umumlashtiriladi. hamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib, ogzaki uslub bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkoiiniberadi.

OG'ZAKI USLUB VA UNING TURLARI		
Tarbiyachining hikoyalari ularga quyilgantalablar	Suhbat, uning turlari	Badiiy adabiyot unga qoyilgan talab
Ilmiyligi, bolalar yoshiga mos tabiatshunoslikkajonliligi	Kirish Yakuniy	1.Tarbiyaviyligi 2.Hissiyotliligi 3.Jonliligi-obrazliligi.

Og'zaki metodlardan foydalanish bir qancha vazifalarni xal etadi. Tabiatga oid hikoyaning qimmati shu bilan anikdanadiki, u ma`lum ta`limiy vazifaeini hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi va ma`lum yoshdagi guruh bolalariga mo'ljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o'qishga nisbatan afzalligi mana shundandir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutkini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi ogzaki tasnif asosida etarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi himoyasidagi voqea-hodisalarning bir-biriga bogliqligi hamda munosabatlarni aniqlash va tushunishi, hikoya mazmunidagi yangiliklarni o'zining avvalgi bilim i bilan qiyoslab kurishilozim.

Bularning barisini tarbiyachi tabiat haqidagi hikoyasiga bo'lgan talablarni belgilaydi. Tilni jonliligi, obrazliligi, aniqligi -tarbiyachining hikoyasiga qoyiladigan mutloqtalabdir.

Hikoya uchun tarbiyachi xilma xil material: tabiatga oid shaxeiy kuzatishlari, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi ocherklar va hikoyalar ilmiy materiallardan foydalaniladi.

Suhbat didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda: kirish suhbati va yakuniy suhbatga bulinadi

Kirish suhbati tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyadan oldin qo'llaydi. Maqsad bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida bolalarni bilimini aniqlashdir

Yakuniy suhbat bilib olingan dalillarni bir tizimga solish va aniqlashtirishga, mustahkamlashga yo’naladi. Suhbatning samarali bo’lishi bolalarni oldindan qanday tayyorlanganligiga bog’liq. Suxbat - bu ular bilan o’tkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mehnat faoliyati, oyinlar, tabiatshunoslik, kitoblarini o’qish, hikoyalar orqali tasavvurlar hosil qilish vazifagi turali. Tarbiyachi doimo suhbatni ta`limiy maqsadini aniq tasavvur qilishi kerak. Suhbat hodisa, dalillarni taxlil qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, hodisalarya o’rtasida muhim aloka va munosabatlarni ta`kidlashdan boshlanadi Bunday tahlil umumlashtirishga utishni ta`minlaydi, tarqoq dalillarni tizimga soladi. Suhbat tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida o’rta, katta, tayyorlov guruhlarida qo’llaniladi.

Bolalar adabiyotida tabiat turlari badiiy vositalar yordamida ifodalanidi. O’z mazmuniga kura ilmiy bo’lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda san`atning bir turidir. Uning xususiyati manashundadir.

Tabiat haqidagi tabiat kitobidan pedagog birinchi navbatda tarbiyaviy maqsadlarda foydalanadi. U san`atning turi sifatida faqat bolaning aqligagina emas, balki uning hissiyotiga ham ta`sir etadi. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni kuzatuvchanlikni bilimga bo’lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi, U bolalar oldiga yangi savollarni quyadi. Bolalarni atrofdagi tabiatga diqqat bilan o’rashga majbur qiladi. Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachining ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy vosita sanaladi.

Demak, bolalarni yuksak e`tiqodli ma`naviy barkamol, ajoyib fazilatli, xushfe`l, mehnatkash. samimiy kishilar bo’lib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o’rni ham kattadir. Badiiy adabiyotda berilgan barcha voqea hodisalar hayotiy, jonli qilib berilishi lozim. Shundagina bola shu asar qahramonlariga ishonadi. Bolalar bog’chasi tarbiyachisi esa o’sha asarlar orqali tarbiya maksadlariga muvaffaq bo’lishlari mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar

1.Og’zaki uslublarning qanday turlari bor, ularni izohlab bering.

2.Tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning urni kanday?

X. MAVZU: TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA AMALIY METOD

Maqsad: Talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat ilan tanishtirishda tabiatga oid oyinlar, mehnat, oddiy tajribalar o’tkazish uslubiyoti bilan tanishtirish.

Reja

1.Tabiatdagi mehnatning ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati.

2.Tabiatga oid uyinlar. Ularning ta`limiy tarbiyaviy ahamiyati.

3.Oddiy tajribalar.

Amaliy uslub		
Tabiatdagi mehnat	Oyin	Oddiy tajribalar
Tabiat burchagida. Er maydonchasida Navbatchilik	1. Predmetli 2.Stol-bosma. 3.Didaktik 4. Harakatli 5. Ijodiyoyin	

Bolalar tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan extiyotkorlik, gamho’rlik munosabatlari shakllantiradi. Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan ma`suliyatni xis etib yondoshishni tarbiyalaydi. Bolalar o’simlik va hayvonlarni parvarish qilar ekanlar. uning zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Biroq tabiatdagi mehnatga nisbatan ma`suliyatni tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarinn egallab olgan bo’lishlari o’z mehnatlarining ahamiyatlarini tushunishlari lozim. Mehnat jarayonida bolalar usimliklar holati ularning yoruglikka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo’lgan ehtiyojlarini qondirishiga bog’liq ekanligining anglab oladilar. Bolalar muhitning o’zgarishi qonuniy tarzda usimliklar holatini o’zgartirishni bilib oladilar. Bu aloqa va o’zaro munosabatlarning egallab olinishi bolaning mehnatga bo’lgan munosabatiga ham ta`sir etadi, mehnat ancha ongli va maqsadga yo’llangan holda olib boriladi. Bolalarda mehnatga barqaror qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Tabiatdagi mexnat kuzatuvchanlikni o’stirishning usullaridan biridir. Bolaning tabiatdagi mehnati yakka topshiriq shaklida va kollektiv mehnat tarzida tashkil etiladi.

Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o’tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda turli uyinlardan keng foydalaniladi Bu uyiilarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradi, egallagan bilimlarini ijodiy o’zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirshda ta`limiy, harakatli, ijodiy uyinlardan foydalaniladi.

Ta`limiy uyinlarda bolalar uzlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o’simlik haqida mavjud bo’lgan bilimlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiraddar. Predmetli oyinlar - barglar, uruglar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan uynaladigan "ajoyib qopcha", "mevalar va ildizlar" va hakozolar. “Stol bosma”

kengaytirish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o’rgatishni davom ettirish.

Yovvoyi hayvonlar (quyon, olmaxon, tipratikan) haqidagi tasavvurni kengaytirish, ularning bahorgi-yozgi mavsumdagi tabiiy sharoitdagi hayoti (ovqatlanish, tullash, uya qurish, bolalarni o’stirish, bolalari haqida ota-ona g’amxo’rligi xususiyatlari) bilan tanishtirish; tashqi qiyofasi, xatti-harakatiga ko’ra yosh hayvonlarning kattalaridan farq qilishini ko’rsatish.

Kunlar ilishi bilan bolalar diqqatini qushlar ko’payib, hasharotlar paydo bo’la boshlagani, kunlar sovishi bilan hashoratlar butkul ko’rinmay qolganiga, muassasa hovlisidagi qushlar ham kamayib ketganiga qaratish. Sovuq qish kunida qorni ochib ovqat izlayotgan qushchaga naqadar qiyin ekanligini his etishga undash. Bolalarda qushlarga g’amxo’rlik qilish hissini tarbiyalash.

Qushlarning nima bilan oziqlanishi, qishloq xo’jaligiga keltiradigan foydasi haqida ham qisqacha ma’lumot berish. Qushlarga hayrixoxlik bilan munosabatda bo’lish kerakligini tushuntirish.

Tabiat burchagida piyoz o’stirish, parvarish qilish, tashqari sovuq bo’lishiga qaramay, xonada ularning o’sish sababini tushuntirish.

O’rmon hayvonlari ularning yurish-turish xususiyatlarini bilishni va to’g’ri xarakterlashni; yashash sharoitlari, nima bilan oziqlanishini qanday yurishi, qanday foyda keltirishi haqida tasavvur hosil qilish.

Uy hayvonlari hayoti, yoz vaqtida odamlar ularni parvarish qilishdagi mehnatlari (sigir, echki, qo’ylar yaylovlarda o’tlashi, odamlar o’t o’rishi, xashak jamg’arishlari va hokazo) haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Yaqin atrofdagi hayvonlarni, hovliga keladigan qush, kapalak, qo’ng’iz va ninachilarni bir-biridan farqlashga o’rgatish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o’rgatishni davom ettirish.

Jonsiz tabiat. Kun va tunni, ob-havoning asosiy holatini (shamol esyapti, yomg’ir, qor yog’yapti, havo bulutli, quyosh charaqlab turibdi) farqlash va aytishni o’rgatish.

Suv, qor, muz, qum, loyning belgilarini farqlash va nomini aytishni (qor-oppoq, sovuq, suv oqadi, iliq va sovuq bo’lishi mumkin, muz-qattiq va sirpanchiq, qum to’kiladi, ho’l qumdan narsalar yasash mumkin, loy-yumshoq, undan narsalar yasash mumkin, agar u qurisa, ezganda uvoqlanadi) o’rgatish.

Tabiat hodisalari va insonlarning unga nisbatan munosabati (yomg’ir-nam, kastyumsiz sayr qilish mumkin emas, yozda issiq quyosh taftidan bosh kiyim kiyib oladilar, qishda sovuq, odamlar issiq paltolar, sharf, issiq etiklar, issiq shapkalar va h.k.)ni tushuntirish. **O’simliklar dunyosi.** Mahalliy o’simliklar haqida bolalar

tasavvurlarini mustahkamlash. Bolalar daraxtlarning 4-5 turi (tut, terak, qayrag'och, tol)ni (barglariga, po'stlog'iga, mevasiga qarab), butalarning xili(na'matak, maymunjon)ni(barglari, ranglari, mevalariga qarab) nomini aytishlar, farqlashlari, sabzavotlarning 6-8 xilini, mevali daraxtlardan 4-5 xili(olma, nok, anor, anjir, olcha)ning nomlarini, ranglari, shakli, mazasi, ovqatda iste'mol qilishda xarakterli belgilarini bilishlari kerak.

Sabzavotlar va mevalar haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlarni quyidagi belgilariga qarab shakllantirish: sabzavot va mevalar ovqatda qo'llaniladi, ularni maxsus yetishtiradilar: sabzavotlar poliz(dala)da o'sadi, mevalar esa bog'da yetishtiriladi.

O'simlik(suv quyish, tagini yumshatish) va hayvonlar (ovqatlantirish, kattalar yordamida akvarium yoki qafasni tozalash)ni parvarishlashni bilishi

Xona gullaridan aloe bilan tanishtirishni davom ettirish, ularni parvarish qilish yo'llarini o'rgatish.

Bolalarda tabiatdagi go'zallikdan zavq olishni tarbiyalashni davom ettirish. Tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani buzmaslik(tevarak-atrofni iflos qilmaslik, o't-o'lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish.

O'simliklarning tuzilishi, ularning ayrim qismlari vazifalari haqidagi tasavvurni aniqlash va kengaytirish: ildizlar suvni, ozuqa moddalarni shimib oladi, bular poyalar orqali, tana orqali, shoxlar orqali yaproqlar, gullar, mevalarga yetkazilishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. O'simliklarning o'sishi uchun havo, suv, quyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy ishlar orqalitanishtirish.

Zaruriy sharoitlar yetishmasligini bildiruvchi belgilarni bolalar bilishlari kerak: yorug'lik kam bo'lganida o'simlik yorug'lik tomonga cho'ziladi, yaproqlari va poyasi oqaradi, oziqa moddasi kam tuproqda o'simliklar sekin o'sadi, issiq bo'lmasa urug' unmaydi, barglar yozilmaydi, suvsiz o'simliklar qurib qoladi.

O'simliklarni ko'paytirishning usullaridan biri-qalamcha qilish bilan tanishtirish. Erta gullaydigan o'tsimon, butasimon o'simliklar va daraxtlar bilan tanishtirishni davom ettirish. Ba'zi daraxtlar(o'rik, bodom) avval gullab, so'ng barg chiqarishi, ba'zilari esa barg chiqarib(olma, behi) so'ng gullashini tushuntirish.

Bahor tabiatning uyg'onish fasli ekanligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va chuqurlashtirish. Ayrim o'simliklarning piyozidan, daraxtlarning qalamchasidan, butasidan ko'payishi mumkinligini tushuntirish va o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida bolalar bilan birgalikda erta gullaydigan daraxt va gul ko'chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug'orishga o'rgatish. Qurigan shox - shabbalarni qirqish, ko'milgan gul, tok va anor ko'chatlarini ochish va ularni parvarish qilish ko'nikmasini hosil qilish.

Urug'lardan o'simliklar o'stirilishi (2-3 xil sabzavot gullaydigan o'simliklar misolida), o'simlikning o'sishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlar haqidagi(urug' unib chiqishi, yaproqli poya, gul, urug'), o'simliklar o'stirish, ularni parvarishlashning asosiy usullari(chopilgan yerga o'tkazish, suv quyish, yerni yumshatish, o'toq qilish, ozuqa berish) haqidagi tasavvurni shakllantirish.

3. Hayvonot dunyosi. Yovvoyi hayvonlar(tulki, bo'ri, ayiq)ning xayoti bilan tanishtirish. Hayvonlarning tashqi qiyofasi, yashash tarzi xususiyatlarini ajrata bilish va xarakterlash ko'nikmasini shakllantirish, ular qaerda yashaydi, o'ziga qanday uy quradi, qanday yuradi, kuzda, qishda nima bilan oziqlanadi, qishga qanday tayyorgarlik ko'radi. Bolalarni hayvonlarning ko'rinishi va xulqidagi umumiylik va o'xshashliklarni ajrata bilishga, bir-biriga o'xshashligiga qarab xulosa chiqarish(o'rmon hayvonlari, yirtqich hayvonlar)ga o'rgatish.

Ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish.

Bolalar diqqatini kuz faslida ob-havo o'zgarishiga, daraxt barglarining sarg'ayib to'kilishiga, kishilar kiyimidagi o'zgarishlarga, hashorat va qushlarning kamayib qolganiga qaratish, bularning sabablarini mustaqil aytib berishga o'rgatish

Kuz faslining eng go'zal xususiyatlari turli-tuman yorqin ranglarga boy ekanligi haqidagi bilimlarini aniqlashtirish. Bu davrda meva va sabzavotlar g'arq pishadi, yig'im-terim mavsumi boshlanadi. Kuz fasli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish hamda mustaqil ravishda kattalarga yordam berishgaodatlantirish

Bolalar ongiga tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, gullarni yulish oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish.

Uy hayvonlari (tuya, ot, sigir, qo'y, echki) va parrandalar (tovuq, xo'roz, kurka, o'rdak, g'oz)ning asosiy turlari, hayoti va sharoitlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash va sistemalashtirish. quyidagi belgilar asosida umumlashtirilgan tasavvurni tashkil qilish, odamlar yonida yashaydigan va undan qo'rqmaydigan hayvonlar, foyda keltiradigan hayvonlar, insonlar, ularning hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishi, uy hayvonlarining kishilar hayotida tutgan o'rni haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ularda g'amxo'rlik tuyg'ularini mustahkamlash.

Bolalarga respublikamizda qishlab qoluvchi qushlar(musicha, chumchuq, kaklik, bedana) haqida tushuncha berish. Qushlarning ovqatlanishi, tashqi ko'rinishi, ulardagi o'zaro o'xshashlik va farqli tomonlarini farqlashga o'rgatish. Ularga qishda g'amxo'rlik ko'rsatish va xayrihohlik munosabatini tarbiyalashni davomettirish.

Qish faslining o'ziga xos tabiati haqida tushuncha berish (kunlar qisqa, sovuq, ayozli bo'lishi, ariq va ko'lmaklarning muzlashi, qorning pag'a-pag'a yog'ishi va

b.) yer yuzi va daraxtlar usti oppoq qor bilan qoplanganda tabiat qanchalik jozibali ko'rinishiga bolalar e'tiborini qaratish, ularning estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Kunlar ilishi bilan qushlar, hashoratlarning ko'payishi, ularning harakatini kuzatish, in qurishi, tuxum qo'yishi, bola ochishi va h.k. haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalarga qushlarning donxo'raklariga don solishni, suvlarini almashtirishni o'rgatish. Qafasga paxta, yumshoq matolardan tashlab, qushlarning harakatlarini kuzatish. Qushlarning sayrashini tinglash va farqlashga o'rgatish.

Ninachi, chumoli, asalari, kapalaklarning paydo bo'lish sababi, hayot tarzi, nima bilan oziqlanishini tushuntirish.

Bahorda tabiatdagi o'zgarishlar haqidagi tasavvurni bir tizimga ketma ketlikka tushirish. Issiqlikning ortib borishi bilan qor, muzlarning erib borishi o'rtasidagi, tuproqning holati. Bularning barchasini tabiat uyg'onishiga ta'siri to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish.

Yoz faslida poliz, bog' va dalalarda mevalar pishishi, ayrim sabzavotlarning yer ostida meva tugishi va pishishi(kartoshka, sabzi, yeryong'oq) haqida ma'lumot berish, mevalarni hididan ajratishga o'rgatish, sabzavot va mevalarni inson organizmiga ta'siri, foydasi haqida bolalarga tushuntirish hamda ularni qanday iste'mol qilish haqidasuhbatlashish.

Yer maydonchasidagi va yaqin oradagi o'simliklar haqidagi bilimlarini aniqlash. Yaproq, gul, va mevalari, po'stlog'iga qarab daraxt, butalarni farqlashga o'rgatish. Boshoqli ekinlarni o'stirish bilan, o'rmon mevalari, qo'ziqorinlar bilan tanishtirish. Turli xil o'simliklarning o'sish joylari (o'tloq, dasht, o'rmon, dala, bog', poliz, xiyobon) haqidagi tasavvurlarinianiqlash

Bolalarga o'zlariga tanish uy hayvonlari va parrandalarning inson uchun foydali tomonlari haqida ma'lumot berish. Ularni parvarish qilishgao'rgatish.

Hasharotlar(kapalak, ninachi, chumoli, asalari, chigirtkalar)ning tabiiy sharoitdagi hayoti haqida tasavvurlarini shakllantirish. Ma'lum joylarda yashaydilar(kapalaklar-o'tloqlarda, qurbaqalar-botqoqliklarda va h.k.) ovqat izlashadi(kapalaklar, asalarilar-gullar shirasini, qurbaqalar mayda chivinlarni), dushmanlaridan qochish uchun yaxshi moslanganliklari (ninachilar tez uchadi, kapalaklar pirillab uchadi, chigirtkalar, qurbaqalar sakraydilar va h.k.), uchib ketadigan qushlar(3-4 xili)bilan, tashqi ko'rinishi xatti-harakati(nima bilan oziqlanadi, nima uchun issiq o'lkalarga uchib ketadi) bilan tanishtirish. Qushlardan birining in qurish va bola ochishi bilan tanishtirish.

Bolalarning tabiatdagi yozgi hodisalar, issiqlik, namning ko'pligi bilan o'simliklarning birdaniga gurillab o'sishi, barcha hayvonlarning faol hayot boshlashi o'rtasidagi aloqadorliklari haqidagi tasavvurlarni bir tizimga ketma ketlikkatushirish.

O’quv yili oxiridabola:

- tabiatdagi faslo’zgarishlari;
- suvning xususiyatlari va o’simliklarning o’sishi holati va rivojlanishi uchun zarur sharoitlar;
- sabzavot va mevalarniparvarishlash;
- buta va daraxtlarning bargi hamda mevasiga qarab atash, farqlayolish;
- erta gullovchi 2-3 xildagi mahalliy o’tsimono’simliklarni;
- 2-3 turdagi doimiy qishlovchi hamda uchib keluvchi qushlarni tashqi ko’rinishga qarab farqlayolish;
- xona va yer maydonidagi o’simliklarni parvarish qila olish, tabiat burchagida navbatchilikqilish;
- tabiatdagi predmet va hodisalarga mustaqil holatdaqiziqishi;
- hayvonlarni yaxshi ko’rish, ularni parvarishlash, yurish-turishlarini kuzatish, ularni ko’rgandazavqlanish;
- jonli va jonsiz tabiatni o’rganishga qiziqish, kattalar va tEngdoshlarining diqqatini jonli va jonsiz tabiatda sodir bo’layotgan tanish, notanish predmet va tabiat hodisalariga jalb qilish;
- kattalarga tabiatdagi notanish yoki o’zi uchun qiziqarli bo’lgan predmet va hodisalar haqida savollar berish, o’zi va boshqalarning diqqatini tabiat hodisalari natijasida oldindan ko’rilmagan choralar va tartibsizliklarga jalb qiladi va ularni bartaraf qilishga kirishadi (chiqindilarni, yerga tushib yotgan quruq shoxlarni tozalashda ishtirok etadi, yerga tushib yotgan shiliqqurtni olib daraxtga qo’yib qo’yadi);
- tabiat qo’ynida, shaharda, uyda o’zini tutish ko’nikmalariga egabo’ladi.

MAVZU: “Bolajon dasturida”“Tabiat bilan tanishtirish” bo‘limlarida bolalarni tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishida o‘zigaxosliklar

Reja:

1. Tabiat bilan tanishtirish dasturiningmazmuni.
2.Tabiat bilan tanishtirsh dasturida faslchilik printsipidanfoydalanish.

O’zbekiston Respublikasining Maorif vazirligi tomonidan, bolalar bogchalarining tabiati bilan tanishtirish dasturi, Respublikamizning o’ziga xos yetnik xususiyatlari, geografik jihatdan iklimi, tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holdatuzilgan.

Dasturda amaliyotda yerishilgan yutuklar asosida ta’lim-tarbiya haqida nazariy vazifalar berilgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarni har yosh boskichiga xos psixofiziologik xususiyatlari hisobga olingan. Dastur ilk yoshdagi ikkinchi kichik guruhdan to maktabgacha tayyorlov guruhi uchun mo’ljallangan bilim va kunikmalar hajmini o’z ichigaoladi.

Bizga ma’lumki. maktabgacha tarbiya muassasalarida turli yoshdagi bolalar tarbiyalanadilar. Maktabgacha bo’lgan davrda bolalarga har bir guruxda jonli va jonsiz tabiat haqida bilim beriladi. Bu beriladigan bilim, kunikma, malakalar guruxdan guruhga o’tgan sayin chuqurlashtirilib, kengaytirilib, murakkablashib boriladi.

Dasturda tabiatshunoslik materiallari barcha guruh uchun yil fasllariga qarab taqsimlangan. Har bir mavsumda jonli va jonsiz tabiatdagi hamda kishilar faoliyatidagi yeng aniq xarakterli hodisalar ko’rsatib o’tilgan. Materialarning bunday joylashishi tabiatda sodir bo’ladigan o’zgarishlarni kuzatish, uni taxlil qilish imkonini beradi.

Tabiat bilan tanishtirsh dasturi respublikaning uziga xos tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida qo’llaniladigan "Bolalar bog’chasida ta’lim-tarbiya dasturi" davlat hujjati sanaladi. Har bir bogcha mudirasi, uslubiyotchisi, tarbiyachisi shu hujjat materiallarini to’liq amalga oshirishlari shart. Dasturniig tabiat bilan tanishtirish bo’limi. Hamma bo’limlar bilan uzviy bo’lingan. Tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni xosil qilish so’z yordamisiz bo’lishi mumkin yemas. Sh uning uchun ham ona tilini chuqur o’rganish undan foydalana olish tabiatni kuzatish va o’rganish bilan chambarchas bogliq. Bola tabiatini kuzatish davomida olgan bilimlarini uzlari tasviriy faoliyatlarida aks ettradilar. Tabiatni kuzatish orqali sanashni, mikdor, o’zgarishlarini o’rganib boradilar (daraxt baland, buta past, daraxt tanasi 1 ta, buta tanasi ko’p). Jismoniy mehnat bolalarni jismonan baquvvat, soglom o’sishlari uchun yordam beradi. Bundan tashqari tabiatga oid bo’lgan harakatli ^oyinlar ham bolani jismonan barkamol bo’lishiga yordam beradi. Bu misollarning barchasi dapurda o’z aksini topgan. Dasturga material tanlash tabiat bilan tanishtirishdagi barcha printsiplarga rioya qilingan holda amalag oshirilgan.

Yuqorida bayon yetilganidek, bolalar boqchasida turli yoshdagi bolalar tarbiya topadlar. Bolalarning o’zlashtirish qobiliyatini hisobga olingan holda dastur quyidapgcha tuzilgan, ya’ni, bolalarboqcha muassasalarida bo’lgan davrlarida bitta mavzu bilan bir necha marta tanishadilar. Lekin har safar chuqurroq, kengaytirilgan holda tanishadilar.

Masalan: Kichik guruxda suv hakida tushuncha berilganda suv bilan yuviniladi, suvni ichadilar, suv sovuq, iliq bo'ladi. suv okadi kabi o'rgatiladi. O'rta guruxda suv tiniq, ayrim predmetlar suvda chuxadi, issiq kunda suv tez, sovuq kunda sekin quriydi, katta tayyorlov guruxlarida suvning tabiatda aylanib yurishi, o'simlik, inson hayotida uning o'rni, suvdan yelektr yenergiyasi olishda foydalanish mumkin kabi tushunchalar oddiydan - murakkabga qoidasi asosida tushuntirilib boriladi. Demak, har bir guruxda tabiatga oid bilimlar har yili murakkablashib boradi.

Dastur faslchilik printsinlari asosida tuzilgan. Materiallarning bunday joylashtirilishi tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishga yordam beradi.. Dasturda o'rta guruhdan boshlab har bir faslda bolalarga jonli va jonsiz tabiatidagi, o'simliklar hayotidagi, hayvonot olamidagi uzgarishlar va ular haqida bolalar olishlari lozim bo'lgan bilimlar berilishi hisobgaolingan.

Biror bir faslda o'simliklar hayotidagi o'zgarNshlar, ob-havoning o'zgarishini kuzatish, hayvonot olamidagi o'zgarishlarni, kishilarning shu mavsumdagi mehnatlari bolalarga yaqqol ko'rinadi. Shu fasldagi barcha tabiat haqidagi, unda sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida tu lik, tasavvurlar shakllanadi. Bundan tashqari dasturda tabiat haqidagi tasavvurlrni shakllantirish kvartallarga bo'lib berilgan.

Bolalarga beriladigan bilimlarni kvartallarga bo'lib joylashtirishda ham yuqorida kurib o'tilgan prntsiplarga rioya qilinadi,

Har bir guruxda yil oxirida bolalar yegallashlari lozim bo'lgan bilimlar ko'rsatiladi. Dastur materiallarini joylashtirishda ketma-ketlik, tizimlilikka amal qilingan

"Bolajon**"** tayanch dasturining maktabga tayyorlov guruhida bolalarni tabiat bilan tanishtirish bo'limini amaliy tahlil etish natijasida talabalarni bilishi va uddalashi lozim bo'lgan bilimlar majmuasi bilan tanishtirish.

Jonsiz tabiat. Bolalarda jonsiz tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.

Ob-havo,magnitningxususiyatlaribilantanishtirish.Bolalaruchuntushunarli vositalar yordamida havo hamma joyda: suvda, g'ishtda, yerda vashukabilarda mavjudligini tajribalar orqali ko'rsatish. Havoning qayishqoqbo'lishi,ma'lum hajmni egallashi (sovun ko'piklarini puflash, sharlarnipuflash)mumkinligini ko'rsatish. Havo harakatlanadi(shamol) va u harakat qilib,predmetlarnijoydan- joyga ko'chirishi va shuningdek, harakatga qarshilikko'rsatishimumkin(parashyut).

Bolalarni magnitning xususiyatlari bilan tanishtirish. Magnito'zigametall buyumlarni tortishi, magnitning xususiyatlari to'siqlar orqali ham namoyon bo'lishi(magnitgapredmetlarsuv,qog'oz,plastmassa,yog'och,kartonorqaliham tortilishi). Magnit o'ziga tortishi va o'zidan itarishi bilan tanishtirish.

2. O’simliklar dunyosi. Bolalarni yangi xona o’simliklari bilan tanishtirish. Ularning xususiyatlari: shakli, hajmi, poyasi, barglar, gulining rangini ajratish va xarakterlashga o’rgatish. O’simliklarning yorug’lik, issiqlik, nam, oziqlantiruvchi tuproqqa ehtiyojlari haqidagi tasavvurni shakllantirish. Bolalarni yorug’likni sevuvchi va salqinga chidamli, suvni sevuvchi va suvsizlikka bardosh beruvchi o’simliklarning tashqi tuzilishiga qarab farqlashgao’rgatish.

Sabzavotlarning (8-9 xili), meva (5 xili)larning va stitrus o’simlik (3-4 xili)larning shakli, rangi, hajmi, ta’mi, oziq-ovqat sifatida qo’llanilishi, belgilarga qarab qiyoslash va xarakterlay olish ko’nikmasini shakllantirish, umumlashtirilgan (sabzavotlar, mevalar, gullar) so’zlarni qo’llashga o’rgatish

Bolalarda tabiatdagi go’zallikdan zavq olishni tarbiyalashni davom ettirish. Ular ongiga tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, o’t-o’lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo’q bo’lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongigasingdirish.

Bolalarning hovlidagi barcha o’simliklar va xonaki(qishda vaqtincha o’tkazilgan) o’simliklarning yorug’likka, issiqlikka, suvga, (ozuqa) tuproqqa bo’lgan ehtiyojlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash. O’simliklarning o’sish va o’smasligi shart-sharoitlarining mavjudligi va ularning turlicha talablarga bog’liqligini belgilashga o’rgatish.

O’simliklarning o’sishi uchun havo, suv, quyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy ishlar orqali tanishtirish.

Bolalarning o’simliklarni turli yo’l bilan ko’paytirish haqidagi bilimlarini kengaytirish. O’simliklar qalamchasidan, piyozidan, butasini ajratib ekishdan unishi mumkinligini xonaki o’simliklar misolida ko’rsatish. O’simlikning o’sishi uchun yorug’lik, suv, issiqlik, ozuqali tuproq zarur ekanligi to’g’risidagi bilimlarini tajriba, amaliy mashg’ulotlar orqali takomillashtirish. Bahor gullari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bolalarni ularning rangi, shakli, gullari, yaproqlarining hajmi, belgilariga qarab qiyoslash asosida xarakterlashga o’rgatish.

Erta gullaydigan o’tsimon, butasimon o’simliklar va daraxtlar bilan tanishtirishni davom ettirish. Ba’zi daraxtlar(o’rik, bodom) avval gullab, so’ng barg chiqarishi, ba’zilari esa barg chiqarib(olma, behi) so’ng gullashini tushuntirish.

Bolalar bilan birgalikda maktabgacha ta’lim muassasasi hovlisida daraxt va gul ko’chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug’orishga o’rgatish. Qurigan shox-shabbalarni qirqish, ko’milgan gul, tok va anor ko’chatlarini ochish va ularni parvarish qilish ko’nikmasini hosil qilish.

Bog’, poliz va gulxonada sabzavot va gul ekinlari yetishtirish haqidagi bolalar tasavvurlarini boyitish. O’simliklarning ayrim turlari misolida bolalar ularning

urug'dan ko'karib, to urug' bergunigacha bo'lgan o'sish va rivojlanish davrining izchilligini, unib chiqishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni, ularni parvarishlash usullarini bolalar ongiga singdirish, amalda kuzatish ishlarini olib borish.

Yovvoyi o'simliklar urug'ini to'kib ko'payishi va madaniy o'simliklarni inson tomonidan yetishtirilishi, madaniy va yovvoyi o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati, barcha o'simliklarni ehtiyot qilish va ularni qo'riqlash asosida madaniy va yovvoyi o'simliklar haqida umumiy tasavvurni shakllantirish. O'simliklar qanday belgilari asosida (xonaki, dala, poliz ekinlari)madaniy o'simliklar (o'rmon, o'tloq ekinlarini), yovvoyi o'simliklarga bo'linishi to'g'risidagi tushunchalarini shakllantirish, guruhdagi gullar nominibilish.

3. Hayvonot dunyosi. Bolalarni o'zlariga tanish bo'lgan yovvoyi (quyonlar, tulkilar va hokazo) va tabiat burchagida yashovchi hayvonlarning moslashuvchanlik xususiyatlari bilan tanishtirish. Hayvonlarning o'zi yashaydigan muhitga tanasining tuzilishi va xatti-harakat bilan moslanishiga doir belgilarini ajrata bilishga o'rgatish. Uzun baquvvat oyoqlari tez yugurish imkonini beradi (bo'ri), agar hayvonning orqa oyoqlari uzunroq bo'lsa, unda hayvon katta-katta sakrab yuradi (quyon), o'tkir qayrilgan tirnoqlari daraxtlarga tirmashib chiqishga yordam beradi (olmaxon), to'mtoq baquvvat, oldingi oyoqlari yon tomonga chiqqan, tirnoqlari yerni qazishga moslashgan (toshbaqa, ko'rsichqon).

Hayvonlarning tana qoplami (himoya uchun xizmat qiladigan rang (quyon, olmaxon)ga, ignalar (tipratikan), qattiq qoplamga (toshbaqa) ega bo'lib, bular dushmandan o'zini himoya qilishda yordam) himoya va moslashuv xususiyatiga ega ekanligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

O'simlik (suv quyish, tagini yumshatish) va hayvonlar (ovqatlantirish, kattalar yordamida akvarium yoki qafasni tozalash)ni parvarishlashni bilish.

Kuz faslining o'ziga xos xususiyatlari: kunlar soviy boshlab, kunduzi qisqaradi. Yaproqlar to'kiladi, o'tlar so'liydi, o'simliklar o'sishdan to'xtaydi, chunki ular uchun zarur bo'lgan yorug'lik va issiqlikning miqdori kamayadi. Sovuq tushishi bilan hasharotlar yashirinadi, qushlarning ko'pchiligi issiq o'lkalarga uchib ketadi, hayvonlar qishga tayyorgarlik ko'radilar: tullaydi (barcha hayvonlar), ovqat to'playdi (olmaxon), ovqat yeb semirib ketadilar va uyqu uchun joy izlaydilar (tipratikan,ayiq).

Bolalar uchun yangi O'zbekiston sharoiti uchun xos bo'lmagan uy hayvonlari-shimol bug'usi bilan tanishtirish. Ularning yashash joyi, tashqi qiyofasi, fe'l-atvori, inson tomonidan boqilishi va ular yetkazadigan foydalar haqida tasavvurni shakllantirish. Hayvonlarning tana tuzilishi va fe'l-atvori, tabiiy sharoitlarga moslashuvi yungining qalinligi, uning qor ostidagi mox (shimolda o'sadigan o'simlik)ni kovlab olish ko'nikmasi, bug'uning keng qo'shaloq tuyoqlari bilan loy,

tuproqliyer va hatto qiyayerlarda ham yura olishi, o’zining belgilari bilan uy hayvonlaritoifasigakirishi haqida so’zlabberish.

Tabiat burchagida yashovchi qushlar haqida, ularning yashash sharoiti, oziqlanishi, ko’payishi to’g’risidagi tasavvurlarini aniqlash. Qushlarning uchishga moslashganligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish(keng yig’ma qanotlari, dumi, Engil patlari havoga tayanish va uchish imkonini beradi).

Qish faslining o’ziga xos tabiati haqida tushuncha berish(kunlar qisqa, sovuq, ayozli bo’lishi, ariq va ko’lmaklarning muzlashi, qorning pag’a-pag’a yog’ishi va b.) yer yuzi va daraxtlar usti oppoq qor bilan qoplanganda tabiat qanchalik jozibali ko’rinishiga bolalar e’tiborini qaratish, ularning estetik tuyg’ularinishakllantirish.

Daraxt va butalar bargsiz, harakatsiz holatda. Hasharotlar ham, ular bilan oziqlanuvchi qushlar ham yo’q. Ular issiq o’lkalarga uchib ketishgan. Qishlab qoluvchi qushlar o’t-o’lanlarning urug’larini va o’simliklarning mevalarini, odam yashab turgan joy oldidagi ovqat qoldiqlarini yeydilar. Odamlar qushlarni boqib turadilar.

Yovvoyi hayvonlarning bahor davridagi hayoti va tabiatga moslanganligi bilan bolalarni tanishtirishni davom ettirish, ular uyqudan uyg’onadilar, dam olish holatidan chiqadilar, tullaydilar, joy quradilar...

Hayvonlarning rivojlanishi haqidagi bilimlarini kengaytirish. Qushlar in(uya) quradi, tuxum qo’yadi, bolalaydi, baliqlar urug’ qo’yadi va bolalaydi.

Bolalarni akvariumda boqiladigan baliqlarning tana tuzilishi va harakatlari, bularning hammasi hayotga moslashish belgilari ekanligi bilan tanishtirish. Baliqlarning tanasi, shakli, hajmi, ko’zlari va og’zining tuzilishini ajrata bilishga, bu xususiyatlarni ularning xatti-harakti, xususiyatlari(yashash joyi, harakat usuli, ovqatlanishi) bilan qiyoslashga o’rgatish.

Bolalarda bahor haqidagi umumlashgan tasavvurni shakllantirish: Kunlar issiqroq bo’ladi, quyosh ravshanroq yoritadi, qor va muzlar eriydi, o’tlar, navro’zgullar paydo bo’ladi, kurtaklar to’lishadi va birinchi gullar, yaproqlar paydo bo’ladi. Jonivorlar uyqudan uyg’onadi(hasharotlar, hayvonlar), uchib ketgan qushlar qaytib kelishi haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalarga o’zlariga tanish uy hayvonlari, ularning yoz faslidagi hayoti haqidagi bolalar bilimlarini aniqlash, ular haqida umumlashgan tasavvurni mustahkamlash. Qanday belgilar asosida u yoki bu hayvon uy hayvoni guruhiga kirishi haqida bolalar bilimlarini aniqlash. Hayvon va parrandalarning inson uchun foydali tomonlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Ularni parvarish qilishgao’rgatish.

Bolalar bilan hayvonlarning o’sishi va rivojlanishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Qushlar, hayvonlarning bolalari juda nozik tug’ilishi, ular ko’p jihatdan katta hayvonlardan farq qilishi haqida suhbatlashish. Kichik hayvon yoki parrandako’pinchayungyokipatbilanqoplanmagan,ko’ziyumuq,mustaqilyura

olmaydigan va ovqatlana olmaydigan bo'ladi. Ota-onalari ular haqida g'amxo'rlik qilishlari, isitishlari, ovqatlantirishlari, dushmanlardan qo'riqlashi, ovqat izlab topish, yurish, uchish, tirmashib chiqish va sakrashga o'rgatishlari haqidagi tushunchalarini aniqlash va kengaytirish Baliqlar baliqchalari haqida g'amxo'rlik qilmaydilar. Baliqlarning baliqchalari mustaqil ravishda ovqat izlaydilar, dushmanlardan yashirinadilar.

Yovvoyi va qo'lga o'rgatilgan hayvonlarni taniy olishga bolalarni o'rgatish. Qanday belgilari bilan ular u yoki bu guruhga taalluqli bo'lishini tushuntirish.

Yoz fasli haqida umumlashgan tasavvurni shakllantirish: iliq, issiq, yomg'ir yog'adi, momaqaldiroq bo'ladi. Hasharotlar ko'p. Hayvonlar faollashadilar, bolalaydilar. O'simliklar gullaydi, yetiladi, xosil beradi.

Yoz faslida poliz, bog' va dalalarda mevalar pishishi, ayrim sabzavotlarning yer ostida meva tugishi va pishishi(kartoshka, sabzi, yeryong'oq) haqida ma'lumot berish, mevalarni mevasi hididan ajratishga o'rgatish, sabzavot va mevalarni inson organizmiga ta'siri va foydasi haqida bolalarga tushuntirish hamda ularni qanday iste'mol qilish haqidasuhbatlashish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari.

Reja:

1.Tabiat haqidagi beriladigan bilimlar mazmunining bolalar yoshiga mos kelishi zarurligi.

2. Tabiat bilan tanishtirish **tamoyillari.**.

3.Tabiat bilan tanishtirish dasturiningtuzilishi.

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir kismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilshp jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishnn vazifa kilib qoyadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning ko'p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o'rganish bilan shugullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir.

Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar yekanmiz. avvalo. pedagogika fanining asoschilarini aytib o'ttan fnkrlarga asoslanamiz. Garbning ilgor pedagoglaridan Kominskiy bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va kurgazmalilikka asoslanishi kerak; - degan yedi. Bolalarga tabiat orkali beriladigan bilimlar turlicha metod va usullar bilan olib boriladi va yekskursiya, sayr, ta'limiy oyinlar orqali mustahkamlanib chuqurlashtiriladi.

Dasturning tabiat bilan tanishtirish bulimiga materiallar quyidagi printsiplar asosida tanlanadi: Bolalarni tabiat bilan tanishtirsh printsiplari

Bolalaryoshiga Ko'rgazmalilik Entsiklopedik

Moslikprintsipi printsipi printsip

Ilmiylik Ulkashunoslik -

printsipi printsipi

Bolalar yoshiga moe jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo’lishi bilan birga ilmiy aniq bo’lishi kerak. Masalan: o’simlikni yoruglikka, suvga, issikdikka bo’lgan yextiyoji.

Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko’rgazma asosida berilishi shart. O’z o’lkasi tabiati haqida chuqur bilim berish. Tabiatshunoslikning barcha sohalari (botanika, zoologiya, astronomiya) hakida bilim berish.

Yuqorida aytib o’tilgan printsiplar bir-biri bilan bogliq xolla olib boriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik printsipiga rioya qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo’lishi bilan birga bolalar tuigunadigan bo’lishi zarur.

Masalan: Erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigani sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Osmon ko’m-ko’k tus oldi biz yendi boqcha yer maydonchasiga yekin yekishim iz mumkin.

Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga yega bo’ladilar.

Ilmiy printsip bolalar yoshiga mos bo’lsagina samarali natija beradi. Bu haqda Y.A.Komenskiy shunday degan: Oddiydan - murakkabga, yaqindan- uzoqqa, tanishdan-notanishga tomon borish kerak. Bu printsiplar dasturdagi tabiat bilan tanishtirish bo’limida o’z aksini topgan. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bevosita o’zlariga yaqin bo’lgan, atroflarini o’rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz. Bolalarga avval boqchadagy daraxtlar so’ngra o’rmondagi daraxtlar haqida bilim beramiz. Demak, biz yaqindan-uzoqqa tomon degan qoidaga rioya qilishimizzarur.

Biz bolalarga bilim berishda ularning avvalgi bilimlariga tayanamiz. Shundagina ular yangi bilimni chuqur o’zlashtirib oladilar. Bolalarga beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga mos 6o’lsa-Y. ular ko’rgazmasiz bo’lsa, bolalar yaxshi tushunmaydilar.

Y.A.K omenskiy shunday degan: "Avval sezgilarda bo’lmagan narsa, intellektda hambuliaydi".

Shundan kelib chiqib hissiy tajribani bilish va o’rganish asosida quyidagi ko’rgazmalilik printsipini asoslab berdi. Ko’rgazmalilik faqat buyum, hodisalarni ko’rib idrok yetish yemas, balki ularni hamma sezgi organlarini jalb qilgan holda idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oltin qoidaei hisoblanadi. Agar biror bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo’lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yula bir necha sezgi organlarini ishga solish lozim. Agar o’rganilayotgan predmetni ko’rish imkoni bulmasa. ularning sur’atlari yoki

modellariga murojaat qilish lozim. Demak, ko’rgazmalilik bolalarni abstrakt tushanchalarini real anglashga olibkeladi.

Entsiklopedik so’zi grekcha so’z bo’lib, barcha fanlarni har tomonlama bilim olish, bilimlar yigindisi manosida qo’llaniladi

Bolalar osmon jismlarini astronomiyadan, o’zi tutilib usgan shahar, qishloq, voha, dare, toglarning nomlarini geografiyadan; o’simliklar nomlari. ularning uziga xos xususiyatlari botanikadan bilib boradilar.

Tabiatshuposlik bilimlarini oddiydan - murakkabga tizimli ravishda yakindan - ya’ni o’z o’lkasi tabiatidan boshlab uzoq ya’ni boshqa o’lka tabiatini tanish. o’rganish asosida amalga oshiriladi. O’z o’lkasi tabiati bilan tanishish bevositasi bolani tevarak - atrofdagi, boqchasidagi yer maydonchasidagi o’simliklar, gullar, ko’chatlar, daryo va ko’l nomlari, tog’lar, yo’lda uchraydigan maysalar nomi, hayvonot olami; ya’ni bola kundalik hayoti davomida duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur. Shu tizim asosida ish tashkil yetilsa, o’zga o’lkaning tabiati bilan tanishish yengil, oson kechadi.

MAVZU: TABIAT VOSITASIDA BOLANI XAR TOMONLAMA BARKAMOL QILIB TARBIYALASH.

Mashg’ulot rejasi:

1. Tabiat bilan tanishtirish metodikasining tarbiyaviyimkoniyatlari
2. Aqliytarbiya
3. Estetiktarbiya
4. Axloqiytarbiya
5. Jismoniytarbiya

1. Tabiat bilan tanishtirish metodikasining tarbiyaviyimkoniyatlari

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'limtarbiya jarayonini takomillashtirish, bu jarayonning samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham «har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasbhunar dasturlarini ongli ravishda tiklash va huquqiy, psixologikpedagogik sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oilaoldidao'zjavobgarliginihisetadiganfuqarolarnitarbiyalashniko'zdatutadi»."

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona

munosabatda bo’lish, Vatanga mehrli bo'lish, ekologik ta'limtarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifasi o'quvchilarni tabiat bilan tanishtirish usullari, ish shakllari, shuningdek pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani pedagogikaning bir qismidir, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiat bilanbolalarning yosh xususiyatlari, fizioiogik tuzilishlarini hisobga olgan holda tanishtiriladl Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlan, aobiliyatlari, ehtiyojlari, xarakter hislatlari, iste'dodlari hisobga olinadi.

Bola a'zolarining tuzilishi — oliy nerv sistemasi, ichki a'zolari, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo'ladigan o'zgarishlar tabiat bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, bu kurs bolalar fiziologiyasi fani bilanham bevositabog'langan.

Biologiya fani tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosini tashkil etadi. Chunki biz bolalarni jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, yilning turli fasllari bilan tanishtiramiz.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanifalsafa,biologiya,pedagogika, psixologiya, fiziologiya va barcha metodikalar bilan bog'liq holda birbirini to'ldirib, mustahkamlaydi.

Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagitushunchava tasavvurlarinikengaytirishhamda boyitish, shuningdek, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko'nikmalar hosil qilish ta'lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Bolalarda mehnatni sevish, o'zgalar mehnatini qadrlash, o'simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o'z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go'zalliklarini ko'ra olish kabi hislatlarni o'stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas.(1-2shakl)

2. Aqliy tarbiya (1shakl)

Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o'sishiga ta'siri kattadir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishishda ta'limtarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o'rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga

asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasa, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi.

Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalarda maktabgacha ta'Iim yoshidanoq, his qilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir.

I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, insonning tabiatdagi narsa va hodisalardan olayotgan ta'siri birinchi signal sistemasini, ularni ifodalovchi so'z esa, ikkinchi signal sistemasini hosil qiladi. Bilishning I hissiy tomoni birinchi signal sistemasi bilan bog'liq, bu ko'rgazmali, ' obrazli tafakkurga asoslangan bo'lib, miya po'stlog'idagi muvaffaqiyatli bog'lanishni o'z ichiga oladi, ya'ni tashqi dunyodagi narsa va hodisaiarni sezishda, idrok qilishda va tasavvurda bevosita aks etadi. Bilimning ratsional tomoni, abstrakt tafakkur, ya'ni tushunchalarning hosil bo'lish jarayoni ikkinchi signal sistemasi bilan bog'liqdir. Ikkinchi signal sistemasi tashqi dunyo bilan faqat birinchi signal sistemasi orqali aloqa olib boradi, shuning uchun tafakkur sezgi va idroksiz bo'lishi, biron narsa haqida aniq tasawurga ega bo'lmay turib tushuncha hosil qilinishi mumkin emas.

«Hissiy bilimning fiziologik asosi — ko'rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir» — degan ediI.P.Pavlov.

O'zlashtirishda qancha ko'p analizatorlar birgalikda ishtirok etsa, tasawur va tushuncha shunchalik aniq, boy va ma'noli bo'ladi. Demak, bolalarni tabiat bilan tanishtirish asosiga birinchi navbatda ko'rgazmalilikni qo'yish kerak, ya'ni narsa va hodisalar ularning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etishi, bolalar narsalarni ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'rishlari, eshitib, hidlab ko'rishlari, ta'mini tatib ko'rishlari, ya'ni ularning xususiyatlarini seza bilish imkoniyatlariga ega bo'lishlarishart.

Uyda, sayrda, o'yinlardava mehnatda,tabiatdaginarsa va hodisaiarni bolalarga ta'sir etishi natijasida ularda seza bilish tajribalari to'planib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarbog'chaga ketayotganlarida ko'chadagi obhavo sharoiti (sovuq, issiq, iliq va namlik)ni seza oladilar. Qo'llarini yuvganlarida, cho'milish vaqtida, o'yinlarda suvning xususiyatlarini (sovuqligi, iliqligi, sachrashi,toshlarning suvda cho'kishi yoki yog'ochning suzib yurishi)ni payqay oladilar. Hayvonlarniparvarishqilishdaesaularningharakatlarini,odatlarinibiliboladilar.

Bola tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lishi natijasida, undaginarsa va hodisalarni yaqqol ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin ko'pincha bola narsalarni payqamay qolishi yoki muhim bo'lmagan tomonlarga diqqat qilib, idrok qilgan narsalarini noto'g'ri tasvirlashi mumkin. 34 yoshdagi bola uchayotgan qushlarni hamma vaqt ham sezmasligi mumkin. Hayvonlarni uchratganda u birinchi navbatda uning kattaligiga e'tibor beradi, akvariumda suzibyurgan baliqni ko'rsatib

uni «yuryapti» yoki «qanotlarini silkityapti», — deb aytadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, bolani tabiat bilan tanishtirishda unga hodisa yoki narsani ko'rsatishning o'zigina kifoya qilmaydi. O'rgatish jarayonida maqsadga muvofiq rahbarlik qilinishi zarur. Bu esa tarbiyachining bolaning idrokini yo'lga soladigan, diqqatini ko'rish va eshitishi muhim bo'lgan narsa va hodisalarga to'g'ri yo'naltiruvchi so'zlarida ifodalanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida tabiatni o'rganish ko'proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog'liqdir. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko'ra so'z bilan aytib idrok qilish mustahkam o'zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang'ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks ettirish faqat idrok qilish bilan bog'langan so'zlar yordamida hosil qilinishi mumkin.

Tushuncha — bu miyaning analitiksintetik faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi narsa va hodisalarning bir necha marta sezib idrok qilinishi, ularning boshqalari bilan taqqoslab ko'rilishi, ulardagi eng muhim belgilarning so'zlarda aks ettirilishi natijasida tushuncha hosil bo'ladi. Tushuncha bolalar faoliyatida o'yin va mehnatda o'zlashtiriladi va tekshiribko'riladi.

3. Estetiktarbiya

Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad — shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarakatrofdagi narsalarni to'g'riqabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurishturish, mehnat qilish, jamoa orasida o'zini to'g'ri tuta bilish kabi hislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevish va undan zavq olish, ya'ni go'zallikni his qilishni o'rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g'ichirlashi — bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasawur etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalashda va o'stirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg'ularning o'sishi esa, o'z navbatida san'atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o'rganish uchun zarur shartsharoit yaratadi.

Avval tabiat go'zalligini, so'ngra san'at go'zalligini his etish kerak. Tabiatdagi va san'atdagi go'zallik bilan tanishish bolaning aqlidroki va histuyg'ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi.

Bog'cha yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik histuyg'ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, ulardan baxramand bo'lishi, , qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg'onishi uchun oylar, yillar kerak boiadi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki bog'cha hovlisidagi hushmanzara gullarni, chiroyli bog' hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi

bolalarni tabiat orqali estetik ruhda tarbiyalashni tabiatning istagan faslida amalga oshirish mumkin.

4. Axloqiy tarbiya

Axloqiy tarbiya deganda, yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuyg'ulari, intizomlilik, xulqatvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do'stlik, tinchlikj inson xarakterining irodaviy xislatlari hamda shaxsning ijobiy, axloqiy sifatlari, poklik, to'g'rilik, kamtarlik, xullas barcha oliyjaj nob xislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash tushuniladi.

Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat vositasidan keng foydalanish kerak. Bu murakkab jarayon bo'lib, uzoq vaqt, kerak bo'lsa yillar davomida qilinadigan mehnatninj mahsuli hisoblanadi.

Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun bog'cha hovlilariga ekilgan gullarni parvarish qilish jarayonida liar bir gulni, niholni asrash, uni parvarish qilish, gullarning tagini yumshatish sug'orish, begona o'tlardan tozalash, shakl berish, o'g'it yoki go'ng solish kabi ishlarni bajarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. gu yerda tarbiyachining ahamiyati katta. Masalan, tarbiyachi bolalarga gullarni parvarish qilayotganda ularning ham jonli organizm ekanligini, biz qanday nafas olsak, ular ham nafas olishini, bizqanday ovqatlansak, ularham bizdek «ovqatni yaxshi ko'rishini*, o'simlikning ovqati go'ng, o'g'it ekanligini, biz yuvinish, taranishni qanday yaxshi ko'rsak, gullar ham «yuvinishni», «taranishni» yaxshi ko'rishini va buning uchun gullarning taginivaqtivaqti bilanyumshatib, suv beribturish kerakligini, barglariga chang yuqtirmasdan yuvib, artib turish kerakligini o'rgatishi zarur. Shuningdek tarbiyachi bolalarga odamlar yorug'likni, quyoshni qanday yaxshi ko'rsa, gullar ham yorug'likni, quyoshni shunchalik yaxshi ko'rishini, shuning uchun ham ularni soya yoki qorong'i yerga ekish mumkin emasligini ularga uqtirishizarur.

Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo'llari juda ko'p va xilmaxildir. Biz yuqorida faqat uning ba'zi birlarini eslatdik, xolos. Uni har bir tarbiyachi o'z sharoiti, o'z milliy urfodatlari asosida amalga oshirsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bolalarning o'simliklar o'stirish va hayvonlarni parvarish qilishda ishtirok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka o'rgatadi.

5. Jismoniy tarbiya

Insonning ma'naviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan sogiom bo'lishning ahamiyati beqiyos kattadir. Xalqimiz «tani sogiik — tuman boylik», «to'rt muchaHng sog' bo'lsin» deb bekorga aytmagan. Bu naqllarning tumantuman ma'nosi bor.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasidan ma'lumki, bolalar 78 yoshgacha bo'yiga har yili 5 sm gacha o'sib, tana °g irligi 22,5 kg ga ortib boradi. Keyin esabiroz

sekinlashadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bolaning jismonan sog'lom o'sishini yoshlikdan ta'minlash kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarni Jismonan sogiom tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor berish zarur? Bunda qanday tarbiya vositalaridan foydalanish kerak, degan haqli savollar tug'ilishi mumkin.

Bolalarni jismonan to'g'ri tarbiyalash uchun quyidagi shartlar1 ga qat'iy rioya qilish kerak:

1) gigiyenik ko'nikmalar hosil qilib tarbiyalash (bino, hovlij jihozlar, kiyimbosh, poyafzalgigiyenasi);

2) tibbiyot xodimlarining doimiy nazoratida (sog'lig'i, antropolitrik ma'lumotlari, fiziologik holati)bo'Iish;

3) bog'chadagi bolalarning kun tartibini tuzish (ovqatlanish, uyqu, o'yin, mashg'ulot, sayrlar, organizmnichiniqtirish).

Bog'cha yoshidagi bolalarga tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishda ochiq havoda sayr qildirish, tog' etaklari, daryo bo'ylariga sayohatga chiqish, shahar ichidagi istirohat bog'larida bo'Iish, ular bilan bog'cha hovlisida ishlash, harakatli o'yinlar tashkil qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishish, hayvonot bog'larida bo'Iish kabilar bolani jismoniy tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bog'cha hovlisidagi gullarni parvarish qilish, tagini yumshatish, sug'orish, gulzorni begona o'tlardan tozalash, gullarga mineral va madaniy o'g'itlar solish kabi ishlar bolalarni hammehnatsevarlikka,hamjismonansog'lombo'libyetishishlarigayordamberadi.

Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda yer maydonchasi, bog'cha hovlisining mavjudligi ahamiyatga ega. Bola ochiq havoda sayr etar ekan, nafas olish organlarining rivojlanishi bilan birga tanasining boshqa a'zolari mustahkamlanadi, sog'lom o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishning turlari juda ko'p bo'lib, ulardan oqilona foydalanishkerak.

6. Tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachiningo'rni

Kelajak avlodni barkamolkishilar qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirish muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqea, hodisalar haqida to'g'ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta'limtarbiya berishdek muhim vazifa turadi. Tarbiyachi eng avvalo o'zi tabiatni sevuvchi, jonli vajonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo'lmog'ilozim.

Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun «Bolajon» tayanch dasturida berilgan tabiatga oid bilimlar bilan tanishib chiqqan va har bir yosh guruh uchun berilishi lozim boigan bilim, ko'nikma, malakalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Tarbiyachi har bir faslda olib boradigan tabiat haqidagi bilimlarini to'g'ri rejalashtirishi, yer maydonchasidagi o'simliklar, tirik burchakdagi xona o'simliklari,akvariumda,terrariumdayashovchilarniparvarishqilishko'nikmalarini,

qafasdagi qushlar va mayda sutemizuvchilar bilan tanishtirishni to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur. Tarbiyachi bolalarni yuqoridagilar bilan tanishtirar ekan, ularning dunyoqarashini shakllantirib, jonli va jonsiz tabiatning xususiyatlarini o'rganib, ular haqida dastlabki tushunchalarberadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tabiatni kuzatishmetodikasi.

1. Tabiat bilan tanishtirishmetodlari haqida tushuncha

Pedagogikada metod — pedagog va ta'lim oluvchining (bolaning) ma'lum ta'limtarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash,| malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o'stirishj, axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo'llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. (1.1. shakl)

Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z oikasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi| metodlar birbiri bilan uzviy bog'liq va birbirini to'ldiradi.

2. Tabiat bilan tanishtirishning ko'rgazmali metodi

Ko’rgazmali metod. Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiaa bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metod — kul zatishdan keng foydalanadi. *Kuzatish — tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan vd bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan holda sezgilan bilan qabul qilib olishdir.* Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaroi diqqat talabetiladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, to'g'ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi».

Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.

Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi.

Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa va sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta'lim yoshidagi

bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish yo'li bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya'ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan, biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz.

Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog'lom bo'lmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o'zaro bog'liqligini, ya'ni uning «oltin zanjir» ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik ta'limtarbiya berib boriladi.

«Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishgaham qiziqishnio'rgatadi. Buningasosidataxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir», deb hisoblaydi I.P.Pavlov. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalaming kattalarga «Bu nima?», «Nima uchun?», «Qanday qilib?» kabi cheksiz savollari bunga misol bo'la oladi. Bu o'rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalaming o'zlarini jalb qilishga harakat qilishizarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalaming turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli' xillaridan foydalanadi.

Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha *qisqa muddatli* va *uzoq muddatli* bo'lishimumkin.

O'simlik va hayvonlami o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi — *uzoq muddatli kuzatishl*ardan foydalaniladi. Bunda bolalaming obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashlariga to'g'ri keladi.

Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug'orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalaming pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda tabiat hodisalarini analiz qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga yordam beradi. Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko'ra murakkab bo'lganligi sababli, maktabgacha ta'lim, o'rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayonitakomillashadi.

Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o'z oldiga qo'yganmaqsadigako'ra o'simlik va hayvonlar, obhavohamda kattalarning tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek tabiat burchagidagi mashg'ulotlardatashkiletiladi.

Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, kattakichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o'rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg'iryog'ishi, kamalakning hosil bo'lishi kabi holatlar kiradi.

Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashi lozim.

Tarbiyachining kuzatishga tayyorlanishi. Kuzatishni tashkil etishda obyekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan obyekt vaxshi holatda, bo’lishi kerak, ya'ni o'simlik so'limagan, navlari o'ralmagan, hayvon qo'lga o'rgatilgan, sogiom, bolalardan cho'chimaydigan bo'lishi zarur. Kuzatish tabiat burchagida bo'lsa, obyekt yaxshi yoritilgan bo’lishi, unga yaqinlashish qulay bo’lishi uchun yorug'lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o'ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o'zlarini erkin tutishlari, bemalol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar tabiat burchagida qulay joylashib o'tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishni boshqarish. Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o'tkazayotgan bo'lsa, dastlab bolalarda hosil bo'lgan qiziqishlarini qondirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1—2 daqiqa tomosha qildirib turadi.

Kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi xilmaxil usullardan — bolalarning yoshlariga mossavolva topshiriqlar,narsaniushlab ko'rish, qiyoslash, o'yin harakatlaridan foydalanadi.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli maiumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg'otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she'rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarda esa badiiy asarlarni o'qishdanfoydalanadi.

Hayvonlarni kuzatishda tarbiyachi izchillikka rioya etib, bolalarning diqqatini «Nima qilyapti?» «Qanday yuryapti?» «Nima yeyapti?» «Qanday eyapti?» «Tanasi nima bilan qoplangan?» «Oyoqlari qanday — uzunmi yo qisqami?» «Ko'zlari qanday (shakli, rangi)?» kabi savollar yordamida hayvonlarninghattinarakatiga qaratadi.

O'simliklarni kuzatish ularning eng yorqin, ko'zga tashlanadigan belgilarini belgilash va ajratib ko'rsatishdan boshlanadi. Bu o'simlikning guli yoki uning yorqin rangdor barglari, ba'zan poyasi (masalan, kaktus) bo'lishi mumkin. Ana shundan so'ng o'simlik tashqi tuzilishining asosiy xususiyatlari — kattaligi, shakli, poyasi (yoki tanasi), barglari, gullari va shu kabilar tartib bilan ko'rib chiqiladi. Bunday izchillik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning diqqati hali yetarlicha barqaror emasligi, ko'p jihatdan beixtiyoriyligi tufayli zarurdir. Biroq mashg'ulot oxirida kuzatish jarayonida paydo boigan tasawurlar natijasini umumlashtirish lozim. Tarbiyachi topshiriq berishning turli usullaridan foydalanib, «Gapirib berchi, qayerdan bilding? Nimasi bilan farqqiladi?» kabi savol va topshiriqlarbilan bolalarning kuzatish orqali nutqlarining o'sishiga yordamberadi.

Barcha hollarda, tarbiyachikuzatishnitashkiletar ekan, uninganiq bir vazifadan ikkinchisiga, faktlardan aloqalarga, tasawurlar to'plashdan ularni qiyoslashga, so'ngra xulosalar chiqarishga o'tishda izchillikka rioya qilishi lozim. Shunda bolalarda mantiqiy tafakkur o'sadi. Har bir kuzatishda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning kichik, aniq vazifasini hal etish lozim. Shuning uchun kuzatishlarning har biri ilgarigisi bilan bog'lanib o'tkazilishizarur.

Tarbiyachi uzoq muddatli kuzatishni tashkil etishda, uni ol~ dindan bir qator epizodik kuzatishlar — «bo'laklarga» taqsimlaydi. Bunday kuzatish o'simliklar rivojlanishidagi o'zgarishlar aniq ko'rinadigan vaqtda o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalarga o'simlikni tomosha qilib, belgilarini qayd qilishni (birinchi barglarning chiqishini,o'simtaningurug'qobig'iniyoribchiqayotganinikuzatishni)tavsiyaetadi.
Yakuniy kuzatishda bolalar kuzatilayotgan o'simlik rivojlanishining butun tasvirini tiklashi lozim. Buni kuzatishlar kundalik daftari, turlicha rasmlar, gerbariylar, katta yosh guruhdarda esa chizmali jadvallar asosida tashkil etishmumkin.

Tarqatmamateriallardan foydalanibkuzatish. Bu kuzatishlaro'rta yosh guruhlardan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina obyektni kuzatishdan ko'ra ancha murakkabroqdir. Bu o'rinda tarbiyachi o'z diqqate'tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtira olishi talab qilinadi, bolalai esa tarbiyachining barcha ko'rsatmalariga aniq rioya qilishlari birbirlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o'zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo'ladi. Kuzatishning bi usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib, o'quv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega boiadilar. Bu esa o'z navbatida ularda aniqroq tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi.

Tarqatma material sifatida o'simliklar hamda ularning bargi, mevasi, urug'i, shoxchalari, shuningdek, sabzavot va mevalardan keng foydalaniladi.

Kuzatishda qatnashgan har bir bolaning va tarbiyachining qo'lida tarqatma materialbo'lib,kuzatishdavomidatarbiyachibolalargasavollarberib,narsalarni

tekshirishni tashkil etadi. So'ngra olingan tasavvurlarni qiyoslab, bolalarni xulosa chiqarishga o'rgatadi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi barchabolalarning yuqori faolligini ta'minlaydi.

Kichik yosh guruh (3—4 yosh). Bu yosh guruhlarda dastlabki kuzatishlar bolalarning ozchiligi bilan o'tkaziladi. Tarbiyachining asosiy vazifasi bolada kuzatishning sodda malakalarini shakllantirish, ya'ni diqqatni kuzatilayotgan narsaga to'plash,qo'yilgansavollargajavobberish, aniqbelgilarniajratibko'rsatish, kichkintoylarnialohidaharakatlantiruvchinarsalarbilanjalbqilishdir.Shuninguchun bolalar dastlab jonivorlarni kuzatishlari maqsadga muvofiqdir. Ularning namoyon bo'lishi — harakati, oziqlanishi, chiqaradigan tovushlari kichkina bolalarda beixtiyor qiziqishuyg'otadi.Shuninguchuntarbiyachikuzatishjarayonidajonivorlarniharakat qildirishi, masalan, ularni oziqlantirib bolalarning diqqatlarini jalb qilishi zarur. Bunda ozuqa ma'lum bir oraliqda qo'yilib, bolalarning e'tiborini jonivorning ozuqani qoilari bilan ushlab, qisirlatib yeyishiga qaratiladi va bolalarni hayvon harakatlarini so'z bilan ifodalashga o'rgatiladi. Keyingi kuzatishlarda tarbiyachi jonivorning u yoki bu harakati yuzasidan savollar berib, shu orqali bolalarni ma'lum so'zlardan va savollardan foydalanishgaundaydi.

Shunday qilib, bolalar savollar asosida yotgan aniq vazifani aniqlashni sekin asta o'rganadilar.

Kichik yosh guruhda bolalar bilan o'tkaziladigan kuzatishlar qisqa muddatli bo'lib, tarbiyachi bolalar diqqatini jalb qilish maqsadida ularning ba'zilariga suvdonga suv quyish, hayvonlarga ozuqa berish, baliqlarni oziqlantirish kabi topshiriqlarni beradi. «Qush Nodira uchun qo'shiq aytyapti», «Baliq Madina tomonga suzyapti» kabi so'zlardanfoydalanadi.

Kuzatish oxirida she'r o'qish, qo'shiq aytish mumkin. KichJ kintoylardan kuzatilayotgan narsa haqida gapirib berishni talabj qilish noo'rindir. Obhavoni yokijonsiz tabiatning boshqa obyektj larini kuzatish, o'simliklarni ko'rish jarayonida tarbiyachi bid kuzatishlarni o'yin, mehnat bilan bog'laydi (xona gullarinij tomosha qilish jarayonida uning barglarini artishadi, qum o'ynayotganlarida uning sochiluvchanligini bilib olishadi). Bu yosh guruhda oddiy tadqiqot (tekshirishlar) harakatlaridan ko'p| roq foydalanish maqsadga muvofiqdir: kaftni oftobga tutib, issiqlikni sezish, gulni hidlash va hokazo.

O'rta yosh guruh (4—5 yosh). Bu yosh guruhdagi bolalar qiziquvchan boiadilar, ko'p savollar beradilar, narsalarni sifatlarij va xususiyatlari, atrofmuhit tabiati va ijtimoiy hayot hodisalari\ bilan qiziqib tanishadilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqati ancha barqaror bo'lib qoladi. Ular endi kuzatilayotgan hodisalardagi oddiy aloqalarni tushuna oladilar. Bolalarning ana shu sifatlari asosida o'rta guruh tarbiyachisi tabiat bilan tanishtirishning yangi vazifalarini hal qiladi: bolalarni predmetlardagi xarakterli xususiyatlarini ko'ra bilishga, ularni qiyoslashva

guruhlashga, ba'zi hodisalar o'rtasidagi oddiy aloqalarni aniqlashga o'rgatadi, dastlabki elementar umumlashtirishni shakllantiradi.

Kuzatishdan ko'pincha tanish jism va hodisalar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, yangi obyektlar bilan tanishtirishda foydalaniladi. Shu bilan birga tarbiyachi bolalar bilan birgalikda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi, tabiat hayotidagi yorqin mavsumiy o'zgarishlar yuzasidan uzoq muddatli kuzatishlarni ham tashkil qiladi. Dastlab bu kuzatishlar yakka obyektlar (masalan, kuzda daraxtlardan birining barglari turli rangda bo’lishi, tabiat burchagida ekilgan loviyaning o'sishi va hokazo) | yuzasidan o'tkaziladi, so'ngra esa uzoq muddatli kuzatish obyektlari yuzasidan (masalan, bahorgi bog' yoki daraxtzor, daraxtlarning barg yozishi, gullarning ochilishi, obhavo, qushlarni kuzatish) bo'lishimumkin.

Tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish davomida o'rta guruh bolalari kuzatilayotgan jismlarning xarakterli belgilarini: hajrriij rangi, shakli, sathining miqdorini ko'rsatishni o'rganadilar. Natijada bolalardagi kuzatish asosida shakllanadigan tasavvurlar ancha konkretlashib boradi. Tarbiyachi bolalarga savol va top' hiriqlarni ketmaket berar ekan, shu asnoda o'zi tavsiya etayotgan rejaga rioya qilishga odatlantiradi. Kuzatishning maqsadi ko'pincha mehnat yoki tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun, boqqa sayohat tashkil etiladi va u yerda daraxtlar eullaganini ko'rish, ular bilan tanishish ishlari amalga oshiriladi. Ba'zan kuzatishlarda topishmoqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bolalar topishmoqlarning javobini predmetni kuzatish jarayonidatopadilar.

O'rta guruh bolalari kuzatish uchun zarur boigan muhitni o'zlari yarata oladilar (masalan, ozuqa tayyorlash, jonivor uchun joy tayyorlash kabi). Bu esa bolalarning kuzatishga bo'lgan qiziqishlarinioshiradi.

Xuddi kichik guruhdagidek kuzatish jarayonida xilmaxil tadqiqot (tekshirish) harakatlari, o'yin usullari, mehnat topshiriqlaridan foydalaniladi. Bu harakatlardan ba'zilari izlanish xarakterida bo'lishi mumkin. Masalan, jonivorning nima yeyishinibilish uchun unga turli ozuqa berib ko'riladi.

O'rta guruh bolalari bilan olib boriladigan kuzatishlarda tarbiyachi taqqoslashdan foydalanishi muhimdir. Bunda tarbiyachi predmetning belgilarini ajratib, ikki predmetni qiyoslaydi (ulardan bin bolalarga oldindan tanish). Bolalar ko'ribgina qolmasdan, kerak bo'lganda ushlab, hidlab ham ko'rishi yaxshi natijalarga olib keladi.

O'rta guruhda kuzatishning natijasi hikoya— tasvirlashbo'lishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga hikoyaning qisqacha rejasini tavsiya etib, ularni ikkiuchta savolyordamida gapirib berishga undaydi.

Bolalarning mustaqil kuzatishlari o'rta guruhda paydo bo'ladi. Bunda ularni rag'batlantirish, kuzatilayotgan hodisani tushunishlarida yordam berish, ba'zan u yoki bu usulni qo'llashda maslahat berish, boshqa bolalarni ham kuzatishga jalb qilish, o'z kuzatish natijalarini o'rtoqlariga gapirib berishga undash lozim.

Katta guruh. Bu guruh bilan olib boriladigan kuzatishlar jarayonda bolalar obyektlarning xarakterli va muhim belgilari bilan tanishadilar, o'simlik hamda hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar ustida uzoq muddatli kuzatishlar olib boradilar.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, bolalarni ma'lum usullardan foydalanishga, rejaga rioya qilishga, mustaqil ravishda murakkab boimagan xulosalar chiqarishga o'rgatishda davom etadi. Bunda kuzatilayotgan jism va hodisalarda u yoki bu faoliyat uchun ahamiyatli yoki butun bir obyektlar guruhining umumiy belgilari ajratib ko'rsatiladi, jismlarning tevarakatrof bilan aloqasi va munosabati aniqlanadi.

O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi, mavsumiy o'zgarishlar ustida olib borilgan kuzatishlarda bolalarning davr (fazo), bosqich yoki holatlarni ko'ra bilish xususiyatlari shakllantiriladi. Masalan, ular o'sayotgan no'xat novdalari, poyasi, barglari, gajaklar, g'unchalar, gul va meva (qo'zoq)larning paydo bo'lishini sinchkovlik bilan kuzatadilar.

Bolalarni jism va hodisalarni ko'ra olish, eshitish va qabul qilib olishga o'rgatish tarbiyachining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalar ko'pincha ikkita tanish jismga qaraydilaru, ularni birbiridan ajrata olmaydilar. Shuninguchun tarbiyachi kuzatishni tashkil qilar ekan, aniq obyektlarni topishi, ularni ta'riflashi, savollarga javob berishga oid muayyan vazifalar qo'yishi kerak.

Kuzatishlarda qo'llaniladigan qiyoslash usullari borgan sari xilmaxillashadi: kuzatilayotgan obyekt rasmda tasvirlangani yokij tasavvurdagisi bilan qiyoslanadi. Faqat ayrim jismlargina emas, balki tabiat hodisalari ham (masalan, bog'ning bahor va qishdagi ko'rinishi) qiyoslanadi. Jismlarni taqqoslashda tarbiyachi bolalarn ning diqqatini bir necha umumiy bo'lgan belgilarga, ayniqsaj ularning muhim tomonlarini aks ettirgan belgilariga qaratadi. Masalan, bolalar turli hasharotlarni kuzatar ekanlar, ularningi oltitadan oyoqchasi borligini bilib oladilar. Tarbiyachi kuzatilayotgan jism va hodisalarni qiyoslash uchun vazifa topshirar ekan, bolalarning mustaqil ishlashga qiynalib qolgan hollaridagina yordam berishga harakatqiladi.

Xuddi o'rta guruhdagidek kuzatish natijalari haqidagi og'zakil hisobot iloji boricha mustaqil bo'lishi lozim. Kuzatish natijalari™bolalar rasmlarda, yasagan buyumlarida aks ettirishlari mumkin.

Maktabgacha tayyorlov guruhi. Bu guruhdagi kuzatishlarga rahbarlik qilishning o'ziga xos xususiyatlari bolalarga ko'prod mustaqilliklarini namoyon qilish uchun sharoit yaratishdari iboratdir. Uzoq muddatli kuzatishlar uchun topshiriqlarning bil qismi bolalarga oldindan beriladi. Tarbiyachi bularni bolalarga ba'ziba'zida eslatib turadi. Qisqa muddatli kuzatishlarda tarbiya chi savoltopshiriqlardan foydalanadi. Masalan,«Yangikeltirilgan qush, bizda oldin yashagan qushdan nimasi bilan farq qiladi?» «Bog'chamizdagi daraxt va butalarning barglari bir xilda sarg'ayganmi?» va shu kabilar. Ko'pincha savollarfaqatgina

bolalar ba'zi bir murakkabliklarga uchraganlaridagina beriladi. Tadqiqotchilik harakatlaridan ham yuqoridagi holatdafoydalaniladi.

Tayyorlov guruhi bolalari o'z kuzatishlarida oddiy moslamalar, ba'zan esa asboblar — termometr, flyuger, lupa, reyka (qorning qalinligini oichash uchun va shu kabi)lardan foydalanishlari mumkin.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISH ISHIGA USLUBIYRAXBARLIK.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tabiat bilan tanishtirish ishiga raxbarlikqilish.
2. Tabiat bilan tanishtirish ishiga raxbarlikning asosiyyunalishlari.
3. Uslubiyot xonalarining, ish mazmuni va uni tashkiletish.
4. Mudira va tarbiyachilarning ilgor ish tajribalarini urganish va ommalashtirish.

Xalk maorifining birinchi tizimi xisoblangan maktabgacha tarbiya muassasalari bolalarni har tomonlama rivojlanishida, ularni maktab ta'limiga oila bilan uzviy xamkorlikda tayyorlaydi.

Bolalar bogchasining boshkarishda asosiy rolni bogcha mudirasi uynaydi. Mudiraning asosiy vazifasi bogcha jamoasi bilan birgalikda «Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturini» barcha vazifalarini amalga oshirishdir. Maktabgacha tarbiya muassasi mudirasining faoliyati uch yunalishda:1 .Tarbiyaviy — uslubiy ishgaraxbarlik;

- Dastur vazifalarini vaktida bajarishga yerdam kursatish; ish malakasini oshirish;
- Ilgor pedagogik tajribani urganish va amalda tadbiretish.

2. Xujalik masalaparini xalqilish.
3. Ota - ona va keng jamoatchilik orasida pedagogik bilimni berilgan. Bolalar bogchalarida uslubiyatchi va mudira ta'lim tarbiya ishiga birgalikda javobgar shaxs bo'lib xisoblanadi. (1.1-shakl) Uslubiy ishlarga kuyidagilarkiritiladi.

1) Tarbiyachiga uslubiy yordam berish, nazoratqilish;
2) Tarbiyachilarning ilgor ish tajribalarini targibotetish;
3) Tarbiyachilarning tabiat uslubiyotidan malakasinioshirish;
4) Ota onalar urtasida tabiat bilan tanishtirish bilimini targibot etish.

Tabiat bilan tanishtirish ishiga raxbarlikning asosiyyunalishlari

Uslubiy xonalarda tabiat bilan tanishtirish uchun zarur bulgan adabiyotlar, ko'rgazma qurollar, tarbiyachilar tomonidan tayyorlangan kolishlari bulishi darkor. Bundan tashkar Uzbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya konsepsiyasi,

maorif vazirligining buyruk, farmonlari, tavsiyalar, uslubiy xatlar ilgor tarbiyachilarning istikboli xamda kundalik rejalari, ochik mashg'ulot. o'yin muxokamalari, ota - onalar uchun tavsiyalar berilishi kerak.

Raxbar tarbiyachining uz uslub va usullari xazinasida ilgorlar ishini tajribalarini xamisha taxlil kilib va anglab tugri va ongli tarzda boyitishga urgatish lozim.

Mudira bolalarning har tomonlama rivojlanishlari uchun barcha shart - sharoitlarini yaratmogi zarur. Mudiraning ishi ijodiy xisoblanadi. Maktabgacha tarbiya muassasasi murakkab organizm, mudiraning ishi esa kup kirralidir. Mudira - davlat muassasasining raxbari, shuning uchun u doimo uz ustidan ijodiy izlanishi, tabiat xakidagi konun va karorlarni bilib, urganib borishi davlatimizning xozirgi boskichida ichki va tashki siyosatini bilishi xamda amaliy faoliyatda unga amal qilishi kerak. Mudira keng va chukur ma'lumotli yukori saviyali mutaxassis bulishi, tarbiya jarayonini yaxshi anglab yetgan bulishi zarur. Maktabgacha tarbiya muassasasida bolalarni tarbiyalash mudira va katta tarbiyachi metodistning uzaro xamkorligidagi uslubiy raxbarligi kanchalik uyushkoklik reja asosida samarali amalga oshirilayottanligiga boglik buladi. Uslubiy ishda uyushkoklik, reja asosida, kuyilgan vazifalarning imkoni boricha kiska muddatlarda xal etilishini ta'minlay bilishi, istikbolini kura olish va unga jamoani kiziktira bilish muximdir. (2.1 -shakl)

Bogcha mudiralari uz kul ostida ishlaydigan tarbiyachilarni umumiy bilimlarini xususan tabiat soxasiga oid bilimlarini tinmay oshirib borishi tabiat burchagini tashkil etish va uni yangi kushimcha materiallar bilan jixozlashda maslaxatlar berish, yul - yuriklar kursatishi, tarbiyachi bilan birga tabiatga ekskursiyalar uyushtirish biologiyaga doir adabiyotlarni aniqlash va ularni tuplash ishiga aktiv yordam kursatish lozim. Bundan tashkari ota - onalarni bogcha maydonchasida tabiatshunoslikka oid ishlarda faol ishtirok etishga jalb etadi, bolalarni tabiatni sevish, uni asrab - avaylab ustiradigan kishilar bo'lib yetishish ruxida tarbiyalanishiga bevosita raxbarlik kiladi. Mudira umumiy ota - ona majlisini utkazadi, unda bogcha maydonchasida kilinadigan ishlarni ota - onalari bilan xamkorlikda bajarish rejasini tuzadi. Bog'chalarda bunday uslubiy raxbarlik turli shakllarda olib boriladi: pedagogik kengash, mashg'ulot, sayr, ekskursiya, o'yin, tabiatni kuzatish, pedagogik xonani ishini tashkil etish yer maydonchasida kilinadigan ishlarni maslaxatlashib olish guruxlaridagi tabiat burchagini axvolini taxlil qilish. Bundan tashkari bolalar muassasalariga doimo olib boriladigan ilmiy — tekshirish ishlari va ularning natijalarini xayotga keng joriy etmogi zarur. Ma'lumki, bogchalarda tabiat bilan tanishtirishning yangi - yangi uslub va shakllarni kuzatish, amaliy mashg'ulot va siz vositasidagi ilmiy izlanishlar natijasidan xam keng foydalanishimiz kerak. Biz bu ishlarga yosh kadrlarni, talabalarni keng jalb

etmogimiz darkor. Bogchalarda tarbiyachilarning akliy — nazorat saviyasi, pedagogik maxorati va tabiat konunlarini ilmiy asosda tushinib olishlari bevosita mudira raxbarligida amalga oshiriladi. Kilingan koidaga muvofiq har bir tarbiyachi xalk maorifi bo’limi tomonidan tashkil etilgan kurslarda har yilda bir marta uz malakasini oshirib borishi lozim.

Tabiat bilan tanishtirish ishiga raxbarlik qilish va uning asosiy yunalishlari, uslubiyot xonalarining, ish mazmuni va uni tashkil etish, mudira va tarbiyachilarning ilgor ish tajribalarini urganish va ommalashtirish to’g’risida ma’lumot beradi va yo’l yo’riqko’rsatadi.

.MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA TABIAT BURCHAGINITASHKIL QILISH.

Mashg’ulot rejasi:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tabiatburchagi.
2. Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkiletish
3. Tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarnisaqlash

Maktabgacha ta’lim muassasalarida da bolalarni tabiat bilan tanishtirish u bilan doimo bevosita munosabatda bo'lishni talab qiladi. Buni ta'minlovchi shartlardan biri bolalar bog'chasida jonii tabiat burchagiga ega bo'lishdir. Bolalarni tabiat bilan uzviy, davomli va sistemalitarzda tanishtirish ularda jonii tabiat burchagida yashovchilar haqida chuqur va puxta bilimlarni, mehnat, malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilish, kuzatuvchanlikni o'stirish uchun sharoit yaratadi. Ana shu malaka va ko'nikmalar asosida tabiatga ehtiyotkorona munosabat ham, unga qiziqish ham tarbiyalanadi.Tabiat burchagi bolalarning diqqatini burchakda yashovchi bir necha hayvonlarga, uiarning o'ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning chuqur, mustahkam bilimga ega bo'lishlariga imkon yaratadi. Tabiatda bolalar uchratadigan hayvon va o'simliklarning xilmaxilligi ular hayotidagi umumiy, ahamiyatli hamda qonuniy tomonlarni ajratib ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan obyektlar bilan tabiat burchagida tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etish imkoniyatini beradi. Tabiat burchagida yashovchilarning fazoviy yaqinligi ham ahamiyatlidir. Bolalar, masalan, akvariumdagi baliqlarni yaxshilab ko'rish, ularni uzoq muddat davomida kuzatish imkoniyatiga egabo'ladilar.

Jonii tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlashda bir qator talablarni nazarda tutish lozim. Ular quyidagilardir:

1) o'simlik yoki hayvon u yoki bu ekologik guruhga xos bo'lishi lozim. Bundabolalarnio'simlikvahayvonlarningkattaguruhiuchunxarakterli

bo'lgan, asosiy, o'ziga xos belgilari, yashash sharoitlari bilan tanishtirish imkoni yaratiladi;

tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish, qilinadigan mehnatning sifati, xarakteri, unga sarflanadigan kuch va vaqtiga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga mos(tarbiyachining ishtiroki va rahbarligi ostida) bo'lishi lozim. Shuning uchun «beor» o'simliklar va ovqatni tanlamaydigan hayvonlartanlanadi;

3) tabiat burchagidagi hayvon va o'simliklar tashqi ko'rinishidan yorqin, jozibador, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hali unchalikbarqaror bo'lmagan diqqatini o'ziga jalb qila oladigan bo'lishikerak;

4) tabiat burchagida bu turdagi o'simlik va hayvonlarning bir necha xili mavjud bo'lishi lozim. Chunki bolalar kuzatish obyektida faqat umumiy belgilarnigina emas, balki o'ziga xos xususiyatli belgilarni ham ko'ra olishlari kerak. Bu bolalarning tirik organizmlarningxilmaxilligihamda takrorlanmasliginibilib olishlariga yordamberadi;

5) tabiat burchagida o'simlik va hayvonlar tamoman xavfsiz bo'lishi, bolalarning sog'liqlariga hech qanday zarar yetkazmasligilozim;

6) o'simlik va hayvonlarning bolalar muassasasi binosidagi hayot faoliyati, o'sishi va rivojlanishida binoning doimiy haroratini, karbonat angidrit gazining konsentratsiyasini,quruqligini,shovqinsuronningmavjudliginihisobgaolishlozim.

Hayvon va o'simliklarni tabiat burchagiga joylashtirishda, birinchi navbatda, ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlariga e'tibor berish lozim. Masalan, ba'zi xona o'simliklari (chiroqgul, kaktus va boshqalar) quyosh nurini ko'proq bo'lishini talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug' joyga qo'yish lozim, ba'zilari esa (masalan, uzambarg gunafshasi) tik tushib turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Shu bilan birga jonli tabiat burchagi ko'zni quvontirishi, bezashi lozim. Bunda, obyektlarni shunday joylashtirish kerakki, bolalar ularning yoniga bemalol kela olishlari, kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari mumkinbo'lsin.

Tabiat burchagida yashovchilarni doimiy va vaqtincha yashovchilarga ajratish mumkin. Doimiy yashovchilarga xona gullari, qafasdagi qushlar, akvariumdagi baliqlar, katta guruhlarda esa hayvonlar kiradi. Vaqtincha yashovchilarga qisqa muddatga olib kiriladigan mahalliy o'lka o'simligi, hayvonlar, dastlabki bahorgi gullar, kuzda qiyg'os gullaydigan gulxonadagi dekorativ o'simliklar, xonadagi manzarali o'simliklar, hasharotlar va shu kabilar kiradi.

2. Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkiletish

2.1. Kichik yosh guruhining tabiat burchagi. Kichik guruh tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning narsalarni idrok etishxususiyatlarishuningdek,ta'limiymasalalarnazardatutiladi.Kichkintoylar2— 3 xil o'simlikni bilib olishlari va ularning asosiy qismlarini (bargi, poyasi, guli) farqlay olib, nomlarini aytishlarilozim.

Ikkinchi kichik guruhdagi bolalar o'simliklarni parvarish qilishga jalb qilinadilar: ular o'simlikJarga suv quyadilar (suvni kattalar tayyorlab beradi, qancha quyish lozimligini ham ular ko'rsatishadi), nam latta bilan o'simliklarning barglarini artadilar. Hayvonlarni kuzatar ekanlar, bolalar hayvonlarni tashqi aniq belgilariga: gavda qismlari, harakatlanish xarakteri, chiqaradigan ovozlari va hokazolarga ko'ra tanib olishni, tanasining asosiy qismlarini farqlashni o'rganib oladilar. Tarbiyachi bolalarni kuzatishga, savolni anglashga, diqqatni kuzatilayotgan narsaga qaratib, uncha murakkab bo'lmagan harakatlaridan foydalanishga, kuzatish jarayonida berilgan savollarga javob qaytarishgao'rgatadi.

Kiehik yosh guruhning tabiat burchagiga asosiy qismlari (poyasi, bargi) aniq ifodalangan va yorqin, qiyg'os hamda uzoq gullaydigan o'simliklar joylashtiriladi. Masalan: xina, azaliya, fuksiya, xitoy atirguli va hokazolar. Aytib o'tilgan turlardan yil davomida kuzatish uchun 3—4 o'simlik tanlanadi. Ularning ba'zilari 2 nusxada bo'lishi lozim. Bular ichidan bolalar bir xil o'simliklarni topib, ajratib ko'rsatishni o'rganadilar.

Ilk yoshdagilarning ikkinchi guruh tabiat burchagiga akvarium joylashtiriladi. Akvariumga kichkintoylarning idrok etish xususiyatlaridan kelib chiqib, chiroyli rangdagi, yilning ko'p qismida faol yashaydigan, ozuqani shoshibpishib yeydigan baliqlarni tanlash lozim (masalan, oddiy tilla baliq, tilla yoki kumush rangdagi tovon baliqlar). Kichik yosh guruhlarning tabiat burchagida qushlarni ham saqlash mumkin. Qushning patlari chiroyli, o'zi xushchaqchaq bo'lishi, ovqat tanlamasligi, qafasda ham sayrashi maqsadga muvofiqdir. Kanareyka xuddi shunday qushlardandir. Biroq imkon bo'lsa, sa'va, snegirni saqlash lozim. Kichik yosh guruh tabiat burchagida sut emizuvchilarni doimo saqlash mumkinemas.

2.2. O'rta yosh guruh tabiat burchagi. O'rta yosh guruhdagi bolalarda narsalarning xususiyat va sifatlarini (shaklining xilmaxilligi, rangi, kattaligi, sathining xarakteri va shu kabilar) ko'ra olishmalakasi hosil qilinadi. Bolalar solishtirib ko'rishning murakkabroqusullariniegallaydilar, narsalarningfarqiva o'xshashliginianiqlashni, ularni u yoki bu belgilariga ko'ra umumlashtirishni o'rganadilar. O'simlik va hayvonlar haqidagi bilimlar murakkablashadi. Bolalar o'simliklarning xususiyatlarini aniq farqlashni boshlaydilar, ularning hayotlari uchun zarur bo'lgan sharoitlari bilan tanishadilar. Shu bilan bolalar ko'rganda taniydigan hamda nomlarini biladigan o'simliklar soni ortibboradi.

Besh yoshga qadam qo'ygan bola hayvonlar bilan tanishar ekan, ularning tashqi ko'rinishi, tuzilishi, harakat qilishi, ovqatlanishining o'ziga xosligini va dastlabki bog'liqlik — harakat qilishxarakteri oyoqlarining tuzilishiga bog'liq ekanligini bilib oladi.

Jonli tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish jarayonida bolalar unchalik murakkab bo'lmagan ko'nikmalarni egallaydilar: bular — o'simlikni toza saqlash, uni

to'g'ri sug'orish, suvdon va oxur (donxo'rak)larni yuvish, ozuqa berish kabi. Bu yoshdagi bolalar o'simlik va hayvonlarni kuzatar ekanlar, ularning o'sishi va rivojlanishidagi o'zgarishlarni qayd qiladilar, o'z kuzatishlarini to'g'ri gapirib berishni o'rganadilar. O'rta yosh guruhdagi bolalarning jonli tabiat haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirishmaqsadida tabiatburchagining aholisini to'ldirib, boyitib turish talab qilinadi. Xona o'simliklari turli shakl va hajmdagi barglarga ega bo'lishi lozim, chunki bolalaro'simliklarni ozodasaqlashning o'zlari uchunyangi bo'lgan usullarini egallaydilar, egilgan barglarni mo'yqalam bilan artadilar, gullarga suv purkaydilar. Bunda bolalar parvarish qilish usulini barglarning xarakteriga: kattaligi, miqdori, sathining xarakteri, pishiqligiga ko'ra aniqlashni o'rganadilar. O'rta yosh guruh jonli tabiat burchagida doimiy yashovchilar sifatida sut emizuvchilarni ham saqlash mumkin. Bu yoshdagi bolalar ularni parvarish qilishning oddiy malakalarini bemalol egallay oladilar. Xattiharakatiga ko'ra qiziqarli bo'lgan *dengiz cho'chqasi* va *siriya og'maxonlarini* joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Ularni parvarish qilish qiyinemas, ular vaqt va muhitga oson shakllanadiganjonivorlardir.

2.3. Katta yosh guruh tabiat burchagi. Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagi

Katta yosh guruhda narsalarni kuzatish, solishtirib ko'rish, ularni turli belgilariga ko'ra umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish davom ettiriladi. Kuzatishlarning asosiy mazmuni o'simlik va hayvonlarni o'sishi hamda rivojlanishini, ularning mavsumlarda o'zgarishlarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bolalar o'simlik o'sishi uchun yorug'lik, nam, issiqlik, tuproqdan oziqlanishini, turli o'simlik turli miqdordagi yorug'lik va namlik talab qilishini bilishlari kerak.

Bolalarni o'simliklar, ularning tashqi tuzilishining xususiyatlari, faqat barglarigina emas, balki poya va gullarining ham xilmaxilligi bilan tanishtirish davom ettiriladi. O'simliklarni parvarish qilish usuli asosida barg va poyalarni xarakteriga ko'ra aniqlash, o'simlikni ozoda saqlash ko'nikmasi mustahkamlanadi. O'simliklarni o'rganishda ularni ko'paytirishning ba'zi usullari, jumladan,poyasini «qalamcha» qilib ko'paytirish haqidagi bilimlar ham kiritiladi. Bulamingbarchasi jonli tabiat burchagini yangi o'simliklar — xilmaxil poyali, chirmashadigan, yoyilib o'sadigan yoki tik poyali, piyozli, kartoshka piyozli va shu kabilar bilan to'ldirib borishni talab qiladi. *Tradeskansiyaning* 2—3 xil turi, *xona uzumi, plyush, chirmashuvchi fakus, aloe, zigokaktus, epifdlyum, siklamen, primula, amarilis, kiavniya* kabilar shular qatoriga kiradi. Bu o'simliklarning shakli va barglari, poyasi, gullari xarakteriga ko'ra xilmaxil bo'lib, quyosh nuri va suvga ehtiyojlari hamturlichadir.

Katta guruh bolalarining jonli tabiat burchagi uchun hayvonlarni tanlashda asosiy vazifa hayvonlarning yashash muhit sharoitlariga moslashish xususiyatlari haqidagi boshlang'ich bilimlarni shakllantirishni ta'minlashdir.

Akvariumda issiqsevar, tirik tutiladigan va ikra tashlaydigan baliqlar guruhi — *mechenosets, skalyariy, guppi* va shu kabilarni saqlash maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh tabiat burchagida toshbaqaning istalgan turini saqlagan yaxshi. Odatda bu jonivor qishda qisqa muddatli uyquga ketadi. Agar toshbaqa tabiat burchagida bir necha yildan beri yashayotgan boisa u uxlamasligi mumkin, biroq u bu davrda lanj bo'lib qoladi, ozuqani istaristamas yeydi. Bunday holatning sababini hamda uning yashashi uchun mos sharoitni faqat maktabgacha ta'lim yoshidagi katta bolalar tushunishlari va yaratishlari mumkin. Sutemizuvchilarni tanlash ham juda xilmaxildir.Bu guruh burchagida «dengizcho'chqasi»dantashqaritipratikan, olmaxon ham bo'lishi kerak. Olmaxon tabiat burcha gida yashovchi boshqa sutemizuvchilarga nisbatan mavsumlarda o'z hayot tarzini ko'proq o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar hayvonlarning tabiatdagi hayot sharoitlariga bog'liqligini maktabgacha ta'lim yoshidagi katta bolalar bilishlarikerak.

2.4. Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagi. Tayyorlov guruhida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy vazifasi ularda tabiat olamidagi muhim bog'liqliklar — o'simliklarning kompleks sharoitlarga (namlik, issiqlik, yorugiik va shu kabilar), hayvonlarning tashqi tuzilishi va hayot tarzi, yashash muhitiga bog'liqligi haqida elementar bilimlarni shakllantirishdir. Bolalar turli mavsumlarda o'simlik va hayvonlar hayotida sodir bo'layotgan doimiy takrorlanuvchi o'zgarishlar, ularning o'sish va rivojlanishining asosiy davrlari bilan tanishadilar.

O'simliklar dunyosi haqidagi bilimlar mazmuniga ularni ko'paytirishning ba'zi usullari haqidagi bilimlar kiritiladi. Bolalar narsalarning muhim, umumiy belgilarini ularning o'zgaruvchanligiga ko'ra bilishlari kerak. Shunga ko'ra o'simlik va hayvonlarni tanlashda faqatgina tuzilishlarining xilmaxilligiga emas, balki muhitning ma'lum sharoitlarga moslashganligiga ham e'tibor beriladi. Bolalar o'simliklarni sug'orish (suvning miqdori va sug'orishning takrorlanishi) o'simlikning tabiatdagi yashash muhitiga (tropik botqoqliklar va soy, changalzorlar, quruq cho'l va dashtlar), shuningdek, yil fasllariga bog'liqligini anglab olishlari uchun jonli tabiat burchagiga, yilning 10 oyi davomida juda nam tuproqda o'sadigan papirusni, suvni kam talab qiladigan va ondasonda sug'oriladigan *kaktusni* (1¯2 turini), namga ehtiyoji katta bo'lgan *pirimula, tradiskantsiyani* hamda o'rtacha sug'orishni talab qiladigan *uzambarg gunafshasini* qo'yish zarur. Qishda ko'pgina subtropik o'simliklar sug'orishni uncha ko'p talab qilmaydi.

Tabiat burchagidagi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini tabiiy sharoitdagi o'sish sharoitlari bilan aloqasi haqida boshqa o'simliklar ham, ayniqsa liliya va amarillis oilasiga taalluqli bo'lgan — *amarillis, kliviya, krinum, dratsena, gemantus* va shu kabilar dalolat beradi. Mazkur o'simliklar uchun qishning birinchi davri — tinchlik davri bo'lib, bu vaqtda sug'orish deyarli to'xtatiladi.

Xona o'simliklarini ko'paytirish usullari xilmaxildir: *yorongul, begoniyareks, sansevyerava boshqalar*novdalaridan,*aspidistra, asparagus* va shu kabilar butoqchalaridan ko'paytiriladi.

«Tirik tug'iluvchi» o'simliklardan — *toshyorar, xlorofitum, briofillyum* bolalarda katta qiziqish uyg'otadi.

Akvariumdagi baliqlar ham (ularning 23 turi bo'lishi kerak) mahalliy suv havzalaridagi issiqsevar baliqlardir.Bu guruhlarning har biri, garchi unchalik murakkab bo'lmasada, boqishda alohida sharoit talab qiladi.

Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagida tutqunlikda bola ochadigan qushlarni, yozda esa maydonchada tovuq, o'rdaklarni (mahalliy sharoitga ko'ra) boqish maqsadga muvofiqdir. Sutemizuvchilardan tabiat burchagida istalgan jonivor, ayniqsahayot tarzi mavsumga muvofiq o'zgaradiganlarini (tipratikan, olmaxon), bog'cha hovlilarida esa katta bolalar quyonlarni parvarishlab boqishlari mumkin.

3. Tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarnisaqlash

Tabiat burchagidagi xona o'simliklarini saqlash ularni sug'orish, purkash, yuvish, tuprog'ini yumshatish, almashtirish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, oziqlantirish, kesish, ko'paytirish, zararkunandalarga qarshi kurashishdan iboratdir (3.1-shakl)

Suv quyish. O'simlikka xona haroratidagisuv quyiladi.Vodoprovod suvi tarkibidagi xlorni yo'qotish uchun uni ochiq idishda ushlab turiladi. O'simlik rivojlanayotgan va gullayotgan vaqtda unga xona haroratidan 2°C ortiq bo'lgan suv quyiladi. Agar gultuvak tagida suv yig'ilib qolgan bo'lsa va ikki soat davomida tuvak teshigi orqali shimilib ketmasa, u to'kib tashlanadi.

Purkash. Purkash ko'pgina o'simliklarni parvarish qilishning muhim qismi hisoblanadi. Chunki u o'simlikning suv bilan me'yorida ta'minlanishiga yordam beradi. Purkaganda o'simlik qishda ham xuddi yozdagidek ko'mko'k bo'lib turadi. Iliq suv bilan purkab turilganda o'simlik novdalari va barglari tezroq o'sadi, kurtak chiqaradi.

Yuvish. O'simlikni changdan tozalash uchun iliq suv bilan muntazam yuvib turish lozim. O'simlik dush tagiga yoki tog'oraga qo'yib yuviladi, bunda tuvakdagi tuproq yuvilib ketmasligi uchun uning usti kleyonka bilan yopib qo'yiladi. Tikanli kaktuslarni yuvishdan oldin changlari yumshoq cho'tka bilan tozalanadi. Egilgan bargli o'simliklarni yuvish mumkin emas, ulami changimayin mo'yqalam bilan tozalanadi. Gultuvaklar yiliga 3—4 marta sovunlab, qaynoq suv bilan qattiq cho'tka yordamida yuviladi.

Yumshatish. Yumshatish — bu suvsiz sug'orishdir. U suv quyilgan kunning ertasiga amalga oshiriladi. O'simlik ildizlariga zarar yetkazmaslik uchun tuvak chetlaridagi tuproq ko'pi bilan 1 — 1,5 sm chuqurlikda yumshatiladi.

Ko'chirib o'tqazish va ko'chat qilish. Ko'chirib o'tqazish — tuvak torlik qilib qolganda o'simlik ildizini yopishib turgan tuproq bilan birgalikda boshqa tuvakka o'tqazishdir. Tuvak tagiga yangi tuproq solinib, o'rtasiga ko'chat o'tqaziladi. Bunda, qolgan tuproq bo'sh joyga solinadi. Ko'chat qilishda esa o'simlik ildiziga yopishib turgan uyum bir oz tozalanadi va eski tuproqni bir qismi olib tashlanadi. Yangi tuvak eskisidan 3—4 sm kattaroq bo'lishi kerak. Ko'chat qilishni bahorda, o'simlik o'sishni boshlamasdan oldin amalga oshirish maqsadgamuvofiqdir.

O'g'itlash. O'simliklarning me'yorida oziqlanishlari uchun ularni o'g'itlab borish zarur. Buning uchun bolalar bog'chasi sharoitida mineral o'g'itlardan foydalangan ma'qul. O'simlik ko'chat qilib o'tqazilgandan so'ng o'sa boshlagach yoki ildiz olgach o'g'itlanadi. O'g'itlashdan bir necha soat oldin o'simlikni yaxshilab sug'orish lozim.

Kesish. O'simlikning chiroyli ko'rinishi va sershoh bo'lishi uchun uning o'sishini muntazam boshqarib turish lozim. Buta hosil qilish maqsadida, yon shoxchalar o'sishiuchun asosiy shoxning uchi qirqiladi, yon shoxchalar 10—15 sm ga yetganda ularning ham uchi qirqiladi. Kesishda o'tkir pichoqdan foydalanilib, kurtak tepasidan qirqiladi va kesilgan joyga maydalangan ko'mir sepiladi. Yorongul, fuksiya, rozan va shu kabilarkesiladi.

Ko'paytirish. Xona o'simliklarini poya va barg qalamchalari, bachkilari, piyozi, butani bo'lish, parvarish qilish va shu kabilar orqali ko'paytirish mumkin.

Qalamchalar yordamida ko'paytirish. Qalamchalar poya va bargdan bo'lishi mumkin. O'simliklarning ko'pchiligi (radeskatsiya, begoniya, fikus, aukuba, xina, pelargoniya) poya qalam chalaridan ko'payadi, bundao'sib turgan novdadan 23 bo'g'imli novda qirqib olinadi. Pastki kesik shunday bo'g'imning tagida bo'ladi. Qalamcha suvga solib qo'yiladi yoki tuvakka ekiladi, bunda pastki kesik qumga ko'milib turishi kerak. Ekilgan qalamchalar usti oyna bilan yopilib, kuniga 2 marta pulverizator yordamida suv purkab turiladi. Begoniyareks, sansevyera, uzambarg gunafshasi barg qalamchalaridan ko'payadi. Begoniyareksning bargi (pastki tomoni)ni tomirlari tarqalgan joydan lezviya bilan kesiladi va nam qumga o'tqaziladi. Kesilgan joylar qum bilan siqib qo'yiladi.

*Piyozdanko'paytirish.*Amaralis,krinum,gemantus,zafirantespiyozdan ko'payadi. Piyoz boshida kurtaklar paydo bo'lib, ulardan piyozchalar o'sib chiqadi. Ko'chat qilinishda ular eski piyozboshdan ehtiyotkorlik bilan ajratilib, tuvakka ekiladi va xuddi piyozbosh singari parvarish qilinadi.

Bachkilardan ko'paytirish. Yer ustidan deyarli toiiq shakllangan yosh o'simliklar shaklidagi bachkilarni hosil qiluvchi o'simliklar (toshyorar xlorofitum) juda oson ko'payadi. Bubachkilar asosiy o'simliklardan qirqib olinib, kichik tuvaklarga o'tqaziladi.

Ildizpoyadan ko'paytirish. Bu usuldan o'simliklarni ko'chat qilib ekishda foydalaniladi. lldizpoyadagi tuproq silkitib tushiriladi va uni o'tkir pichoq bilan har bir bo'lakda, juda bo'lmaganda 1—2 kurtak yoki nihol va ildiz qoladigan qilib qismlarga ajratiladi. Aspidistra, sansevyera, siperus ildizpoyadan ko'payadi.

4. =

*Terrarium turlari.*Toshbaqa, kaltakesak, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrariumlarning tagiga 5—6 sm qalinlikda tuproq va qum solinib, ko'proq qismiga chim o'tqaziladi. 1—2 ta yassi tosh solib qo'yilsa yahshi bo'ladi. Terrariumdagi «suv havzasi» o'rnini tog'orachadagi suv bajaradi. Agar terrariumda qurbaqa yoki toshbaqa saqlansa, gultuvak parchalaridan uy (yashirinish joylari) yasash lozim. Qishda o'to'lanlardan uzun, ingichka barglixona o'simliklari, suli, salat barglari qo'yiladi.

Tirik tug'iluvchi kaltakesaklar, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrarium toshbaqalar terrariumiga o'xshash bo'ladi: uning tagiga qum solinadi, usti esa o'rmon yo'sini bilan qoplanadi va 12 ta tosh, po'stloqli yo'g'on shox solib qo'yilsa yaxshi bo'ladi.Baqalaruchun tuvak parchalaridan yashirinadigan joy qilinadi. Yo'sin orasigakichikroq suvhavzasijoylanadi. Qishdaaspidistra, plyush, paporotnik o'simliklarini qo'yish maqsadga muvofiqdir. Terrariumga qarash unchalik murakkab emas. Suv vaqtivaqtida almashtirilib, suv idish muntazam yuvilib turiladi.

Bir yilda 2—3 marta terrariumni, undagi tuproqqum ustini, devorlarini tozalab turish kerak. Terrariumdagi o'simliklar xona o'simliklaridek parvarish qilinadi. Terrariumda yashovchilar past temperaturada harakatchanligini yo'qotadi va ovqat yemay qo'yadi. Bunday hollarda terrariumni elektr lampochkalari bilan isitish lozim. Jonivorlarni 25—30°C haroratda nimrang margantsovka eritmasida, boshini suvga tiqmay, 20—30 soniya cho'miltirish maqsadga muvofiqdir.

Agar jonli tabiat burchagida qurbaqa, baqa, kaltakesaklarning yashashi uchun normal sharoit yaratishning iloji bo'lmasa, hayotini saqlab qolish maqsadida kuzda ularni qo'yib yuborish kerak.

Sudralib yuruvchilar hamda suvda va quruqlikda yashovchilar terrariumda saqlanadi. Tayyor terrariumlardan tashqari turli idishlardan, eski akvariumlardan foydalanish mumkin. Ularning ustidan doka yoki mayda metall to'r qoplash kifoyadir. Terrariumlar hayvonlarning biologik xususiyatlariga moslab tayyorlanadi.

Quruqlikda yashovchi toshbaqa. Toshbaqa salat, qoqio't barglari, sabzi, sholg'om, xom kartoshka bo'laklari bilan boqiladi. U tarvuz po'sti, pomidor, ba'zi mevalarni va nonni yaxshi ko'rib yeydi. Gohgohida qiyma go'sht berish kerak. Bu toshbaqa ozuqani quyoshda yaxshi yeydi. Ozuqa yozda har kuni, qishda 1—2 kun oralatib beriladi. Ozuqa suvli bo'lsa, toshbaqa suv ichmaydi.

Botqoq toshbaqasi go'sht, mayda baliq, chuvalchang, suv shilliq qurti bilan oziqlanadi va ozuqani faqat suvda yeydi.

Takimon. Un qurti, chuvalchang, tirik hasharotlar va ularning lichinkalarini yeydi. Qishda unga chivin g'umbagi, uzun qilib kesilgan xom go'sht beriladi. U suvni yaxshiko'radi.

Tirik bola tug'adigan kaltakesak takimondan ko'ra maydaroq narsalar (tutgan o'ljalari) bilan oziqlanadi.

Baqa va qurbaqa tirik ozuqa: hasharotlar, chuvalchanglar, molluskalar hamda xomgo'sht bilanboqiladi. Bundago'shtnitayoqchauchigailib,qurbaqaningko'zioldida qirmirlatib turishkerak.

5. Qushlar uchun donxo'rak vainlar

Bolalar bog'chasi hovlisidagi qushlarni butun yil davomida kuzatish mumkin. Qushlarni jalb qilish usullaridan biri ularni qishda boqishdir. Kuz fasli yaqinlashgan sari chumchuq, qarg'a, katta chittak, sa'va singari qushlar odamlar yashaydigan joylar yaqiniga uchib kela boshlaydi. Xuddi mana shu vaqtlarda hovlida donxo'rak va uyalarni o'rnata boshlash kerak. Eng oddiy donxo'rak — don tokchasidir (hajmi 50x60 sm, chetlari bir oz ko'tarilgan taxta). Uni daraxtga, deraza, yog'ochga osib qo'yish mumkin. Qushlarni derazadan boqishda ularni xonada ko'rib turish imkonini beradigan donxo'raklar qulaydir. Qushlar bu vaqtda o'zlari yaxshi ko'rinib tursalarda, kuzatilayotganliklarini sezmaydilar. Bunday donxo'rakni bir litrlik shisha bankadan qilish mumkin. Yonboshlatib ayvon panjarasiga bog'lab qo'yilgan bunday shisha banka deraza donxo'ragi o'rnidaqoilaniladi.

Qushlar ozig'i xilmaxildir. Bu yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar — qayin, otquloq urug'i va mevalaridir. Qovoq, tarvuz, pista urug'lari ham qushlar uchun yaxshi ozuqadir. Bu ozuqalarni katta chittak sevib yeydi. Chittaklarni qishdagi sevimli ozuqalari — tuzlangan yog'dir. Qushlar oq non ushoqlarini ham yaxshi ko'rib yeydilar.

Sun 'iy inlar. Hovlida sun'iy inlarni ommaviy osish chittak, chug'urchuq, hasharotxo'r kabi qushlarni jalb qilishda yaxshi natijalar beradi.

Chittak va chug'urchuq uchun inlar ko'pincha taxtadan tayyorlanadi. Inning oichami uch ko'rsatkich bilan: tubining maydoni, chuqurligi (tagidan tuynugigacha bo'lgan oraliq) va tuynugining oichamiga ko'ra aniqlanadi. Chug'urchuqlar inining eng qulay o'lchami — 14x14 sm, hasharotxo'rlarga — 9x9 sm, chittaklarga esa — 12*12 sm dir. Chittak va chuqurchuqlarga in yasashda taxtaning qalinligi 1,5 sm yoki yaxshisi 0,5 sm bo'lgani ma'qul. Inni fanerdan yasash yaramaydi. Yaxshi inlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: in mustahkam qoqilishi, teshikiar qoldirmasiigi, tayyorlash usuli sodda. Taxtalarning faqat tashqi tomonini ranglash lozim, chunki ichki tomoni ranglansa, qushning silliq devordan chiqishi qiyin bo'ladi. Tuynuk in tomiga yaqin bo’lishi zarur. Bu oraliq taxminan tuynuk diametrigateng.
I n n i ng tuynugi dumaloq, tomi esa olinadigan qilinadi. Qushlar inga yaxshi joylashishlari uchun ularni to'g'ri osish muhimdir. Inlar yoz va kuz faslida osiladi.

Qushlar uchun inlar juda zarur, chunki qishlovchi qushlar sovuq tunda shu yerda jon saqlaydilar. In tuynugining yo'nalishi turli qushlar uchun turlichadir.

BOLALARNI YIL FASLLARI BILAN TANISHTIRISH

Mashg'ulot rejasi:

1. Bahor fasligatavsifnoma
2. Yoz fasligatavsifnoma

Mashg'ulotning maqsadi:

Talabalarga maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni yil fasllari bilan tanishtirish bo'yicha ma'lumotlar berish.

Ma'ruza mazmuni:

1. BAHOR FASLIGATAVSIFNOMA

Bahor mavsumi kalendar hisobi bo'yicha birinchi martdan boshlanadi. Lekin bahoming kelishi har yilda turlicha bo'ladi.

Yurtimizda bahor erta, odatda fevral oyidayoq boshlanadi. Biroq mart oyining oxirgi o'n kunligida ko'pincha qor yog'ib, ertasigayoq erib ketadi.

Bahor kunlarining boshlanishi bilan daraxt kurtaklari bo'rtadi, mevali daraxtlar gullay boshlaydi. Shundan keyin bo'lgan qattiq sovuqiar esa kurtak va gullarni urib ketadi. Natijada o'rik, shaftoli va boshqa mevali daraxtlar hosil bermaydi.

1.1. Obhavodagi o'zgarishlar. Mart oyida qattiq yog'ingarchilik bo'ladi. Harorat +25+29 darajagacha ko'tariladi. Lekin sovuqiar ham bo'lib turadi.

Martning oxirlarida ba'zan momaqaldiroq bo'ladi.

Aprel oyida harorat ko'tariladi. Oyning boshida kunning o'rtacha harorati +12+13, ba'zan +18+19 darajaga ko'tariladi. 1955 yili kunduzgi harorat hatto +35 darajaga ham yetgan edi. Aprel oyining ikkinchi yarmi haroratning ko'tarilishi, ayrim hollarda esa haroratning birmuncha pasayishi bilan xarakterlanadi.

Aprel oyida yog'ingarchilik ko'p bo'ladi. Ba'zi yillarda sovuq tushib qolishi hollari ham bo'ladi, ayrim hollarda qor ham yog'adi. Bahorda yoqqan kattakatta qorni xalqimiz «laylak qor» deydi, chunki shu qor bilan laylak ham keladi.

May oyida esa issiq kunlar boshlanadi, kunlik o'rtacha harorat + 10+25 daraja atrofida bo'ladi.

Biroq, oyning boshlarida obhavo beqaror bo'lib, teztez o'zgarib turadi. Ba'zan g'o'za va boshqa o'simliklarga zarar keltiruvchi do'l yog'adi, momaqaldiroq bo'lib turadi.

1.2. O'simliklar hayotidagi o'zgarishlar. Mart oyida dalalar «ko'klam libosini kiyadi». Boychechak, chuchmoma, sovrinjon, gunafshalar ochila boshlaydi. Yovvoyi ildizli o'simliklar, lolalarning ko'pgina turlari, giatsintlar, har turli narsislar barg chiqaraboshlaydi.

Toshkentning tepalik va yon bag'irlari ertangi gulsapsar, lola, nilufar singari gullar bilan qoplanadi. Bu gullar ko'p yil yashasa ham, yog'ingarchilikdan keyingina gullaydi. Yozda ularning tanalari quriydi, yer ostida esa ildizlari saqlanib qoladi.

Ochiq va baland joylarda oq qaldirmoq, boychechak, itgunafsha, qoqio't, kapalakgul, gunafsha, bo'tako'z singari bir yillik o'simliklar ham gullaydi.

Daraxtlar shira chiqara boshlaydi. Qor erishi bilan daraxt ildizlari yerdagi namliknio'zigatortadi.O'simlikto'qimalarisuvgato'ladi,suvolishbilanbirgaozuqa moddasi bo'lgan uglevodni ham oladi. Uglevod barg to'qimalari orqali ildizga borib, kunlar isiy boshlashi bilan ildizdan kurtakka qarab yo'naladi. Kurtak bo'rtadi va ochiladi. Ozuqaning shunday harakati orqali o'simlik «uyg'onadi». Suvning ildizdan daraxtga ta'siri shoxshabba orqali bo'ladi, yozda suv shoxlar orqali ildizga boradi va parlanadi.

Mart oyida qo'ziqorinlar paydo bo'ladi. Ular O'zbekiston sharoitida uch haftagina o'sadilar, biroq seryomg'ir bahorda qo'ziqorinlar aprelmay oylarida ham o'sishni davom ettiradi.

Mart oyida ko'lmak suvlarda lempa, elodeya, qo'ytikan, perolistnik va boshqa suv o'simliklari o'sadi.

Aprel oyida deyarli barcha daraxtlar barg chiqaradi. Eman va shumtol singari daraxtlar hamma daraxtlardan keyin ko'karadi.

Yog'ochli daraxtlar gullay boshlaydi, yong'oq, eman, tol singari daraxtlar gulto'da chiqara boshlaydilar, zarang daraxtining gullari kul rang va ko'ksariq tusda bo'ladi, shumtol daraxtida esa mayda gul kosalari ichida o'tiradi, akatsiyada — cho'p shaklidagi oq, xushbo'y gullar ochiladi, gledichiya daraxtida, ko'rimsiz, mayda sariq gulchalar paydo bo'ladi.

Aprel oyida nastarin, jasmin, buldonej singari buta o'simliklari gullaydi.

Daraxtlarning uyg'onishi obhavoning isishiga bog'liq bo'ladi.

Martning oxiri va aprel oyining birinchi yarmida danakli o'simliklardan birinchi bo'lib: shaftoli, olcha, tog'olcha, olxo'ri gullaydi. Keyinchalik aprel oyining yarmida mevasining ichida urug'i boigan daraxtlardan: olma, nok, behi gullaydi.

Bahorda harorat bir me'vonda ko'tarilganda danakli daraxtlar bilan urug' daraxtlarning gullashi deyarli oldinmaketin, ayrim hollarda esa, bir vaqtning o'zida gullaydi.

O'rik, shaftoli singari daraxtlar awal gullab, keyin barg chiqaradi. Olcha, tog'olcha, olma, nok, olxo'ri, behi singari daraxtlar esa awal barg chiqarib, keyin gullaydi. Obhavo sharoitining qulay kelishi daraxtlarning ko'plab gullashiga imkon beradi va hosildorlikni oshiradi.

Bolalar bilan gullarning har turli rangi va tuzilishi bilan tanishtirish maqsadida mevali boqqa ekskursiyalar o'tkaziladi. Bolalar o'rik, shaftoli, olcha daraxtlarining gullarini hajmiga, barglarining rangiga qarab tezda ajrata olib, eslarida saqlab qolish imkoniyatiga egabo'ladilar.

Ana shu vaqtda sahrolarda lolaqizg'aldoq va lolalar chamandek ochiladi.

Aprel oyining oxirida va ko'pincha may oyining boshlarida jiyda daraxti kumushsimon barglar bilan qoplanadi. U kuchli xushbo'y hid taratuvchi sariq gullar chiqaradi.

May oyida buldonej, uzum, jiyda gullaydi, olcha, gilos, qulupnay pishadi. Suv havzalarida mayda suv o'simliklarining ko'payishi davom etadi va suv yashil yoki sariq tusga kiradi.

1.3. Qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar. Mart oyida qushlar uchib kela boshlaydi. Qushlarda ko'payish davri bosh lanishi sababli ularda uyalariga qaytib kelish zarurati tug'iladi. Agar qushlarda ko'payish ikkinchi yilda bo'lmay, uchinchi yilda sodir bo'lsa (masalan: kakkuga o'xshash) u vaqtda ular ikkinchi yili ham o'sha yerda qishlabqoladilar.

Qushlar, odatda oziqovqat paydo bo'lishi bilan, hasharotxo'r qushlar esa keyinroq uchib keladilar. Ularning uchib kelishi hasharotlarning ko'payishi davriga to'g'ri keladi. Suvda suzuvchi qushlar suv havzalarida hayot qaynaganda uchib keladilar. Mart oyida biz bolalar bilan birgalikda turnalar, g'ozlar va o'rdaklarning to'dato'da bo'lib uchib kelayotganligini kuzatamiz.

Fevralning oxiri,martning boshlaridajiblajibonlar uchibkeladilar. Ular bahorning darakchilaridan hisoblanadilar.

Qaldirg'ochlar, jarqaldirg'ochlar, popishak, chug'urchuqlar uchib kelib, bo'g'otlarga, daraxt kavaklariga uya quradilar.

Chug'urchuqlar qurilgan tayyor uyalarga zo'r ishtiyoq bilan joylashadilar. Shuning uchun bog'cha hovlisida bolalar bilan birgalikda erta bahorda daraxtlarga donxo'rak va inlar osib qo'yish kerak.

Qushlar qo'shaqo'sha bo'lib urchiy boshlaydilar. Ba'zi bir qushlar butun bir umrga juftlashadilar. Agar ular qishda ba'zan ajralishsa, bahorda yana o'sha eski inlarida uchrashadilar. Qarg'alar esa o'z juftlaridan hatto qish faslida ham ajralmaydilar. Zag'chalar o'z juftlari bilan har yili o'zlarining eski inlariga joylashadilar.

Qushlar eskiinlarigaqaytibkelganlaridan keyin, uni «tuzatadilar». Ular tumshuqlarida pat va xashaklarni tishlab inlariga olib keladilar. Ba'zan ulardaraxt

shoxlarida shovqinsuron qilib shox talashadilar. Bu vaqtda qushlarning sayrashlari, hushtaklari va qiyqirishlari, ajoyib parvozlari kishini o'ziga jalb qiladi.

In qurish vaqtida ota qushlar patlarining to'kilishi juda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ona qushlarniki u qadar yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Bolalar bilan ekskursiyaga chiqqanda ularning e'tiborini bu narsaga qaratish zarur.

Mart oyida g'urraklarning g'urullashi yanada ko'proq eshitila boshlaydi. Chittaklarning ovozi yana ham o'tkirroq, sa'valarning ovozi esa ahyonahyondagina eshitiladi.

Zag'cha, qarg'a singari ko'chib yuruvchi qushlar esa astasekin uchib keta boshlaydilar.

Mart oyida ko'pgina hasharotlar (yaltiroq quit (9rasm), qarsildoq qo'ng'iz va boshqalar) paydo bo'ladi. Ular o'simliklarning asosiy ildizlarini kemirib, ularga kattazararyetkazadilar. Buning natijasida ko'pgina o'simliklar nobud bo'ladi. Ayniqsa bu kabi hasharotlar tut daraxtlarining ildizlariga zarar yetkazadilar.

Mart oyining boshlarida, ba'zan esa fevral oyining oxirlarida iliq kunlar boshlanishi bilanoq arilar o'z uyalaridan uchibchiqadilar.

Asalarilar kattakatta oila bo'lib yashaydilar. Har bir oilada bitta ona urug'i bo'lib, u besh yilgacha yashaydi. Bahorgi iliq kunlarning boshlanishi va gullarning ochila boshlashi bilan ona ari tuxum qo'ya boshlaydi. Bundan avvalo lichinkalar, keyinchalik esa qo'g'irchoqlar paydo bo'ladi va nihoyat katta asalarilar yetishadi.

Bolalar bilan mevali bog'larga ekskursiyaga chiqilganda asalarilarning o'rik, shaftoli va boshqa o'simlik gullarining biridanikkinchisiga qo'nib yurganligini kuzatish mumkin. Bolalar asalarilarning g'uvillashini eshitadilar. Bolalar bog'chasi gulzorlarida ham asalarilarni kuzatish mumkin.

Hovuzlar tagidan suzg'ich qo'ng'izlar (10rasm), suvsevar qo'ng'izlar suv yuzigachiqadilar.

Suzg'ich qo'ng'izlar chuchuk suvlarda yashovchi umurtqasiz hayvonlarning eng yirik va kuchli vakillaridan biridir. Uning tanasi yashil qora tusda va tanasi atrofida sariqhoshiyasi bor. Hovuzlarga ekskursiya vaqtida tarbiyachi suvdagi qo'ng'izlarni o'simliklarga ilashtirib oladi. Uni ehtiyotlik bilan olish kerak, boimasa qo'lni tishlab oladi.

Suvsevar qo'ng'iz ham yirik suv qo'ng'izlari qatoriga kiradi. Uning rangi qora yoki qo'ng'ir bo'ladi. U o'simliklar bilan ovqatlanadi.

Tabiat burchagida qo'ng'izlarni baliqlardan bo'lak akvariumda saqlash kerak, chunki qo'ng'iz yovvoyi hasharotdir. Suzuvchi qo'ng'iz qo'yiladigan akvarium keng va baland bo'lishi kerak. Qo'ng'iz unda bemalol suzib yura oladi. Bunda akvarium doka bilan bekitiladi. Suzg'ich qo'ng'izlar, odatda, kechasi ovqat izlab chiqadilar.

Katta guruh bolalari bilan suzg'ich qo'ng'iz hamda baliqlar ustida kuzatishlarolib borish mumkin. Bolalar baliq ham, suzg'ich qo'ng'iz ham suvda yashab, ammo

ucha olishi ham mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Bunda baliq tanasi tangachalar bilan qoplanganligiga, qo'ng'izlarda esa qanot borligiga bolalarning diqqatlarini jalb qilish zarur. Baliq suzg'ich qanotlari yordamida, qo'ng'iz esa orqa oyoqlari yordamida suzadi. Qo'ng'izning old oyoqlari orqa oyoqlariga qaraganda uzunroq bo'ladi. U xom go'sht va chuchalchang yeydi.

Aprel oyida uya quruvchi qushlarning uchib kelislii ancha kamayadi. Zarg'aldoq, bulbul, moyqut, ko'rshapalak, laylak, ko'k qarg'a, chivinxo'r, shuningdek,o'ziningkelganligidanxabarberuvchikakkularhamuchibkeladilar.

Aprel oyida turg'un qushlarda ham katta jonlanish boshlanadi. Ularning xattiharakatlari ham o'zgaradi. Jumladan, chumchuqlar uchishdan to'xtaydilar. Ular juftjuft bo'lib, ota chumchuq yangi chiqqan patiarini yozib ona chumchuq oldida sakrab yuradi. Chumchuqlar uylarning bo'g'otlarida, shuningdek, katta qushlar tashlab ketgan bo'sh joylarga uya soladilar.

Aprel oyida ko'kqarg'a, go'ngqarg'a, sa'valarning uchib ketishi tugaydi.
Shaharda endi so'fito'rg'aylarni uchratib bo'lmaydi.

Uy parrandalari: tovuqlar, o'rdaklar, g'ozlar tuxum bosadilar. Bu tuxumlardan quyuq path, ko'zlari mo'ltirab turgan, chopishga va ovqat cho'qishga qobiliyatli bo'lgan qush bolalari — jo'jalar chiqadilar.

Aprel oyida turli qo'ng'izlar: tillaqo'ng'iz (ko'k rangli qo'ng'izcha), tutxo'r qo'ng'iz (havo rang va yonlarida sarg'ish dog'lari bo'lgan kichkina qo'ng'izcha), meva qo'ng'iz (yashil belgili, qanot ostlarida uchta oltinsimon chuqurchasi bo'lgan qo'ng'iz)lar paydo bo'ladi.

May oyida qizil zag'chalar uchib kela boshlaydi. Kakkularning sayrashlari eshitiladi, qizilishton, laylak, popushak, ko'kqarg'a, qaldirg'ochlartuxum qo'ya boshlaydilar. Kakku o'z uyasiga tuxum qo'ymay, balki boshqa qushlarning uyasiga (uning tuxumlari 20 tagacha bo'ladi) qo'yadi. Kakku uyaga tuxum qo'yganida uya egasining bitta tuxumini olib tashlab, o'zining tuxumini qo'yadi. Shunday qilib, uyadagi tuxumlaming soni o'zgarmay qolaveradi. Shu bilan kakkuning nasllar haqidagi g'amxo'rligi tamom bo'ladi.

Kakkular boshqa qushlarga nisbatan bir sutka ilgari tuxumlarni ochib chiqadilar, tuxumni uyadan chiqarib tashlab o'zlari qoladilar. Ular uyadagi boshqa qushchalarga mutlaqo o'xshamaydi, biroq qushlar o'z bolalari singari ularni ham muhabbat bilan parvarish qilaveradilar.

May oyining o'rtalarida qushchalarning tuxumdan chiqishi boshlanadi. Yosh chumchuqlar, zag'chalarning bolalari chiyillaydilar, jarqaldirg'ochlar ovoz chiqarib uchib yuradilar. Bolalar ularning ovoziga quloq soladilar va qushchalarni ko'rsatishni iltimosqiladilar.

May oyida har xil rangdagi kapalaklar: limon o'simligi kapalagi, qichitqi o't kapalaklari va boshqalar paydo bo'ladi. Ekin maydonlarida sassiq qo'ng'iz (katta hajmdagi qo'ng'iz), go'rkov qo'ng'iz, xonqizi paydo bo'ladi.

1.4. Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar. Mart oyida qurbaqalar, cho'l baqalari va quruqlikda yashovchi hayvonlar o'z «konsertlarini» boshlaydilar. Qurbaqalar suv havzalari va anhorlarda, ariq va hovuzlarning bo'yiarida, cho'l baqalari esa devorlarning kavaklarida, ariqlardagi ko'priklar ostida, bog'larda, ekinzorlarda va dalalardayashaydilar.

Toshkent viloyatida to'q yashil va quyuq qo'ng'ir ko'l qurbaqaiari suzib yuradi. Ba'zan uning qovurg'a kuragida ko'ndalang oq chizig'i bo'lib, tanasi silliq bo'ladi.

Cho'l baqasi yashil kul rangli, terisi g'adirbudir, bir oz namxush bo'lib, oqqizil so'galli bo'ladi. U dushmanning hujumidan himoya qiluvchi suyuqlikka egadir.

Qurbaqa singari cho'l baqasining ham terisi tarang bo'lib, dumi, bo'yni bo'lmaydi. Tanasi kallasidan keskin ajralmagan, ko'zlari katta va serharakat, go'yo shishgandek bo'ladi. Bunday xususiyat tungi hayvonlar uchun xarakterlidir. Ko'zining bunday joylashishi kallasini ortiqcha harakatlantirmay yonatroflarini bemalol ko'rishiga imkoniyat beradi.

Qurbaqa suzgan vaqtida ko'zini zararlantirmaslik uchun ko'z qorachig'ini ko'z kosasi ichiga tortib oladi. Qurbaqada og'iz kengligi juda katta. Tili ikkilangan, old uch tomoni yopishgan bo'lib, hasharotlarni ovlash uchun xizmat qiladi. Qurbaqa tilini chiqarib qanotli hasharotlarni ham urib tushiradi, ushlangan hasharot tilning yopishqoq qismiga uzatiladi, og'ziga tortiladi va butunichayutiladi.

Qurbaqa va cho'l baqalarining quyruqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, orqa oyoqlari oldingi oyoqlariga nisbatan uzunroq, suzuvchi pardalar bilan ta'minlangandir. Bular quruqlikka chiqqan vaqtlarida uch buklangan shakldagi bukilish quyruqlarini to'g'rilaydilar va yerga tayangan holda nafas oladilar. Uning oldingi oyoqlari tayanch vazifasini bajaradi. Bu oyoqlar qurbaqa sakrashga tayyorlanayotganida uning tanasini ko'tarib turadi va uning yerga qaytib tushayotganida tayanish xizmatini o'taydi.

Qurbaqa ajoyib suzadi. Suzish vaqtida Lining oldingi oyoqlari ishlamaydi. U ko'pincha qirg'oqqa chiqib olib, quyoshda isinadi. U suvda yashovchi jonivorlar bilan: suzuvchi o'rgimchak bolasi, suvsevar qo'ng'iz, ninachi tuxumlari, shuningdek suv o'simliklari bilan oziqlanadi.

Choi baqalari uchmaydigan hasharotlarni zo'r ishtiyoq bilan oviaydilar, shuningdek pashsha, chivin tuxumlarini, qo'ng'iz tuxumlarini, o'simliklarning ildizini kemiradigan qurtlarni, karam barglarini, pomidor barglarini, kemiruvchi va g'o'za chanoqlarini zararlovchi qurtlarni, yomg'ir chuvalchanglarini yeydilar.

Ular qishloq xo'jaligi uchun ko'pgina zarar keltiruvchi har turli hasharotlarning katta qismini qirib tashlab, yaxshi foyda keltiradilar. Bolalarni qurbaqa va cho'l baqalarini saqlash hamda asrashga o'rgatish kerak. Tarbiyachi qurbaqavacho'lbaqasito'g'risidagibukabima'lumotlardanbolalarbilankuzatishva suhbatlar o'tkazish vaqtida kengfoydalanadi.

Ko'lmak suvlarda gulxayrilar, dafniyalarning yoki boshqacha aytganda «suv burgalari»ning to'dasi paydo bo'ladi. Suvda qizil va sariq «huqta»lar ko'rinadi — bu ana shu suv burgalaridir. Dafniyalar suv yuzasida suzib yuradilar, qorong'i tushishi bilan suv tagiga tushib ketadilar.

Dafniyalar bilan birgalikda baliqlarning sevimli ozig'i sikloplar paydo bo'ladi. Bular akvariumlarda saqlanuvchi kichik baliqlar uchun ham sevimli ozuqadir. Ko'lmak suvlar ostidan shilliq qurt, suzg'ich qo'ng'izlar, suvsevar qo'ng'izlar ko'tarilib suv yuziga chiqadi.

Mart oyida baliqlar ikra yig'ishga va urchishga kirishadilar.

Toshbaqalar, kaltakesaklar, ilonlar singari sudralib yuruvchilar ham uyg'onadilar. O'zbekistonda cho'l baqasi (toshbaqa) ko'puchraydi.

Toshbaqaning rangi kosasining rangi bilan bir xilda: sarg'ish yoxud qo'ng'ir tusda bo'ladi, barmoqlari orasida parda bor. Dumi qisqagina bo'lib, uchi o'tkir, ota toshbaqa ona toshbaqaga nisbatan kichikroq bo'lib, dumi uzunroq bo'ladi.

Toshbaqalar suvga muhtoj bo'lmaydilar, chunki ular uchun yeydigan o'simliklaridagi suvlarning o'zi ham yetarlidir. Tunlari o'z uyalariga kirib ketadilar, ular o'z uyalarini novdalarning tagiga, shuningdek, o'nqircho'nqir yerlardan kavlaydilar. Tosh baqalar erta saharda yoki kech kirishi oldidan o'tlaydilar. Tosh-baqalar yalpiz, ko'k o't va boshqa o'simliklar bilan oziqlanadilar.

Toshbaqalar terrariumlarga joylashtiriladi va bolalar ularni parvarish qiladilar — o't olib kelib boqadilar. Toshbaqaning harakat qilishi bolalarni judaqiziqtiradi.

Toshbaqalar martaprel oylarida ko'payadi. Ular tuxumlarini qum orasini yorib, u yerga ko'madilar. Yosh ona toshbaqalar odatda ikkitadan, qarilari esa uchbeshtadan tuxum qo'yadilar. Toshbaqaning tuxumi tovuq tuxumiga o'xshash bo'lib, hajmi kichikroq bo'ladi.

Toshbaqalar mavsum davomida ikkiuch marta tuxum qo'yadilar. Tuxum qo'yish iyun oyidagina tugaydi. Yosh toshbaqalar tuxumdan yuz kunda ochib chiqadilar.

Bu paytlarda ilonga o'xshagan, oyoqsiz sariq qorinli kaltakesaklar ham uyg'onadilar. Bu kaltakesak ko'zini yumishi mumkin, ilonning ko'zi esa, doimo ochiq turadi. Sariq qorinli kaltakesak qo'ng'ir yoki qizg'ish tusda bo'ladi. Yosh kaltakesaklar esa och kul rang bo'ladilar. Kaltakesaklar ko'pincha daryo vodiylarida, qirlarda, qalin o'tlar o'sadigan joylarda, shuningdek, bog'larda, sug'oriladigan joylarda ham uchraydi. U suvga ishtiyoq bilan borib, u yerda uzoq vaqt qolishi ham

mumkin. Sariq qorinli kaltakesak kemiruvchilarning uyasida, shuningdek, toshlar tagida va butazorlar orasida yashirinadilar.

Toshkentning qurg'oq yerlarida, ariqlarning bo'ylarida, bog'larda och qo'ng'ir sahroyi kaltakesak (sariq ilonlar) ko'zga tashlanadi.

Bolalar bilan sayrga chiqqanda asfalt yo'ldan tez chopib ketayotgan ilonquyruqlarni uchratish mumkin. Ular pashsha, qo'ng'iz, kapalakqurt, kana va o'rgimchaklarni yeydilar.

Bolalar sariq qorinli kaltakesaklar singari ilonquyruqlarni ham tabiat burchagidagi terrariumlarda kuzatishlari mumkin. Ular zararsiz (tishlamaydilar), kishiga beixtiyor o'rganadilar. Qo'ng'izchalar shilliq qurtlar, yomg'ir chuvalchanglari, suvaraklar bilan oziqlanadilar.

Bolalar kaltakesaklarning harakatlarini, ovqatlanishlarini kuzatadilar. Suvaraklarni tashlash bilan kaltakesaklar ularni shu ondayoq tutib oladilar va yutib yuboradilar, shuningdek, xom, qotirilgan go'shtlarni yeydilar.

Kaltakesaklar qishloq xo'jaligi uchun ham foydalidir, ular qishloq xo'jaligi zararkunandalarining katta qismini qirib tashlaydilar. Mart oyining oxirida devor yoriqlaridan kichkina, kul rang kaltakesaklar chiqadi. Ular kun bo'yi kavaklarida yotib, quyoshli kunlarda chiqib isinadilar.

Bahor quyoshi ko'lmak suvlarni ilitishi bilanoq cho'lbaqalari va qurbaqalar suvda urug' (ikra) ajratishga kirishadilar. Toshkent atroflarida ikra ajratish davri 50 kungacha cho'ziladi.

Qurbaqa urug'lari ko'lmak suvlarning tubida tevarakatrofi yaltiroq holda, qora yumaloq toshga o'xshash narsalarga yopishgan boiadi. Cho'Ibaqalarining ikrasi, ipsimon bo'lib, suvosti o'simliklariga yopishgan bo'ladi. Ikra qora rangda bo'lgani uchun bahorning iliq nurlari unga ko'proq ta'sir qiladi.

Oradan bir necha kun o'tgach, ikradan katta qurbaqalarga sira o'xshamaydigan itbaliqlar chiqadi. Qurbaqachalar tanasining quyi qismida ikkita so'rg'ich bo'lib, ular bu so'rg'ichlar yordamida suv o'simliklariga yopishadilar. Qurbaqachalarning uzun dumchalari yumshoq suzg'ichlar bilan qoplangan bo'lib, u baliqning suzg'ich dumiga o'xshash harakat qiladi. Keyinroq itbaliqlarning quyrug'i, awalo orqa quyrug'i, so'ngra oldingi quyrug'i rivojlana boshlaydi.

Shu bilan birga dumiqisqara borib, tanasiningshakli o'zgaradiva itbaliq astasekin dumli qurbaqaga aylanadi. Bu qurbaqa suvda yoki suvning atrofida har qanday xavfdan yashirinib turadi. Keyinchalik uning dumi batamom yo'qoladi. Shuningdek, choi baqalari va qurbaqachalar yer yuzi hayotiga moslashib ketadilar.

Bolalar bog'chasining jonli burchagiga ko'lmak suvlardan baqalarning ikralarini olib kelish va ularning o'sishini bolalar bilan birgalikda kuzatib borish mumkin. Buning uchun akvariumdagi harorat 20—25°C bo'lishi kerak. Tarbiyachi kundalik kuzatish ishlarini olib borarkan, (itbaliqlar) qurbaqachalarning qaysi kuni

shakllanganligini qayd qiladi. Bolalar bu kabi hodisalarni zo'r qiziqish bilan kuzatadilar.

Aprel oyida, havo yaxshi isiganida tipratikanlar uyqudan uyg'onadilar.

Toshkent atrofida va Toshkent viloyatida «quloqli tipratikan»lar uchraydi. Bu tipratikan Yevropa tipratikanidan kichikroq bo'lib, ignalari ham kaltaroqdir. Uning quloqlari katta (boshining yarmidan ham uzunroqdir), shuning uchun ham u quloqli tipratikan deb ataladi. Tipratikanlar havzalarda, tog'li o'lkalarda va bog'larda yashaydi.

Ular qorong'i tushganidan tonggacha dalalar, bogiar, soyabon daraxtlar tagida daydib yuradilar va hasharotlar, kaltakesaklar, ilonlar va sichqonlarni, chigirtkalar, cho'l sichqonlarini gohogoho o'simliklarni (yer ostidan makkajo'xori, bug'doy donlarini) topibyeydilar. Tipratikanlar suzishni biladilar, Yevropatipratikaniga nisbatan kamroq o'raladilar. Ular ko'p vaqt terrariumlarda yashaydilar. Tipratikanlar beixtiyor, tezda ko'nikadilar. Bolalar ularni qo'llariga olishlari mumkin. Ular hatto bolalar chaqirsalar ham boradilar. Bolalar terrariumga barglar solishganda, tipratikan bu barglarga yumalab, ularni o'z ignalariga sanchib olib yuraveradi. Uning bu harakatlari bolalarda katta qiziqish uyg'otadi.

Tipratikanlar berilgan narsalarni tanlamay yeyaveradilar. Bolalar ba'zan o'zlaridan qolgan ovqatlarni ham berishlari mumkin.

Tipratikanlar sichqonlarni, suvaraklarni qirib tashlaydilar. Shuning uchun ham ko'pincha odamlar mushuk o'rniga tipratikansaqlaydilar.

Aprel oyida ko'pgina yovvoyi hayvonlar, jumladan, aprelning o'rtalarida cho'l bo'risi bolalaydi, uning bolalari ko'r holda tug'ilib, oradan 12—13 kun o'tgach, ko'zlari ochiladi. Bo'ri bolalari 5—6 hafta onasining sutini emadi.

Bo'rilar urchish davrida ko'proq o'z uyalaridan boshqa joylarga ketmaydilar.

Tuya cho'l va sahroda yashaydigan ajoyib hayvonlardan biridir. Sahrodagi tuya shimolda yashaydigan bug'u singari mehnat qiluvchi hayvonlardan hisoblanadi. Bizda tuya uy hayvonlaridek bo'lib, kishilargako'chibyurishda,og'ir yuklarni tashishda va xo'jalikda ham katta foyda keltiradi. Ona tuya oqsil moddalarga boy bo'lgan va moyli quyuq sutberadi.

Tuyadan jun va par olinadi. Jundan dag'al kiyimlar, ko'rpalar, qop va arqonlar tayyorlanadi. Pardan bosh kiyimlar, shuningdek, qimmatbaho movutlar ishlab chiqariladi. Tuyaning go'shti ovqatga ham ishlatiladi.

1.5. Qishloq xo'jalik ishlari. Mart oyida dalalarda don ekinlari va beda ekish davom etadi. Kartoshka va ertangi karam ekiladi, rediska, petrushka va ukrop sepiladi.

Mart oyida ko'chatlar o'tqazish va daraxtlarni bir yerdan ikkinchi yerga ko'chirish ishlari davom ettiriladi. Daraxt ko'chatlarini o'tqazish ishlarini tuproqning yumshashidan boshlab loirtaklarning bo'rta boshlaganiga qadar davomettirish

mumkin. Daraxt ko'chatlarini o'tqazish uchun joy va har bir daraxtning yaxshi o'sishi uchun ma'lum ozuqa maydonitanlanadi.

Daraxtlarni birbiriga juda ham yaqin o'tqazib bo'lmaydi, chunki ildizlar o'sib yetilib, birbiriga xalaqit beradi (daraxtlarning ildizlari tevarakatrofga keng quloch yozadilar, ayniqsa eski bog'larda ularning ildizlari birbirlari bilan chatishib ketgan). Mevali bog'larda daraxtlarning turli xillarini ekish tavsiya qilinadi.Har bir tur mevadanbirnechanav;urug'lilaridan2—3nav,danaklilaridan3—4navekiladi.

Olma va nok daraxtlarini birbiridan 6—10 m rnasofada o'tqaziladi, olcha va olxo'ri daraxtlarini birbiriga yaqinroq, ya'ni 3—4 metr oralig'ida joylashtirish mumkin.

Daraxtlar qatorlab yoki shaxmat usulida ekiladi. Daraxtlar ko'chatzorlarda qanday o'tqazilgan bo'lsa, ana shunday chuqurlikda o'tqazilishi lozim.

Odatda daraxtlarni o'tqazish vaqtida shu narsa tavsiya qilinadiki, daraxtning ildiz bo'yni tuproqning yuqori qatlamiga nisbatan birmuncha yuqoriroq bo'lishi kerak, chunki tuproq keyinchalik cho'kkan vaqtida daraxtning ildiz bo'yni bilan barobar bo'libqoladi.

Daraxtning ildiz bo'ynini besh santimetrdan oshiqroq chuqurlikda ekilsa, keyinchalik havoning yetarli miqdorda kirmasiigi natijasida daraxtlar yomon rivojlanadi. Chuqur o'tqazilgan daraxt sekin o'sadi, sovuqqa chidamsiz bo'lib, har xil kasalliklarga, bog' zararkunandalarining hujumiga chidash bera olmaydi. Daraxt ildizining normal o'sishi uchun yetarli miqdorda issiqlik, havo va namlik bo'lishi kerak.

Mevali daraxtlar chuqur o'tqazilsa yaxshi hosil bermaydilar yoki mutlaqo hosildan to'xtab, birvaqt quvrab qoladilar. Daraxt ko'chatining sayoz ekilishi ildizlarining qurib qolishiga va o'simlikning nobud bo'lishiga olib keladi.

Daraxt ekish uchun o'yilgan chuqurlik radiusi va chuquriigi bo'yicha ildizining rivojianish darajasiga bog'liq bo'ladi (radiusi 50—75 sm, chuquriigi 60 sm), chuqur qazish vaqtida yerning ustki qamlamibir tomonga, ostki qatlamiesa ikkinchi tomonga tashlanadi. Chuqur tayyor bo'lgach, yerning yuza qatlami ko'proq ozuqalarga ega bo'lganligi uchun o'g'it bilan aralashtirib chuqurning tagiga solinadi, shuningdek tepacha qilinadi, bunda daraxt shunday qo'yiladiki, ana shu tepachaning atroflari bo'ylab erkin ravishda joylashadi (11 rasm).

Daraxt ko'chatlarini o'tqazishdan oldin qazilgan har chuqurga 3—4 chelakdan suv quyiladi.

Daraxt o'tqazilgach, uning uchi va novdalari qirqiladi, chunki daraxt ko'chatining taraqqiy qilgan uchi (tojisi) hali tuproqda yaxshi o'rnashmagan ildizlardan ko'ra suvni ko'proq bug'lantirib yuboradi.

Fevralmart oylarida daraxt va butalarning atroflari o'yib qo'yiladi. Keyin esa o'sishga yaroqsiz — kasal va zararlangan daraxtlar kesib tashlanadi. Mart oyida anor, atirgul kabi (ko'mib qo'yilgan) gullarning usti ochiladi.

O'zbekistonda tut daraxti ayniqsa ko'p tarqalgan. Tut daraxt shaklida ham, buta shaklida ham o'sadi. Tut daraxtidan pilla qurtlari uchun ozuqa sifatida foydalaniladi. Shuningdek, tut daraxti meva ham qiladi. Erta bahorda bevaqt bo'lgan sovuqlar tut daraxtini zararlantiradi, bu bilan ipak qurtini ozuqadan mahrum qiladi.

Taxminan mart oyining ikkinchi o'n kunligida toklarni ochish boshlanadi. Tok kurtak chiqarguncha ochilishi zarur. Aks holda. bo'rtgan kurtaklar va yosh sho'ralar zararlanadi.

Ko'p yillar mobaynida olib borilgan kuzatish ishlari shuni ko'rsatdiki, tok sho'ralarining ochilishi Samarqand havzasi sharoitida bir necha hafta atrofida yildanyilga o'zgarib turadi — mart oyining uchinchi o'n kunligi va aprel oyining birinchi yarmi. Bunday ahvol ko'pincha obhavo xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Yaxshi bo'rtgan «ko'zchalar» haroratning 3—4 daraja pastga kctishi natijasida zararlanishi mumkin. Ochila boshlagan kurtaklar birikki daraja sovuqdayoq osonlikcha zararlanadi. Yosh va nozik sho'ralar uchun bir daraja sovuq ham xavflidir.

Bog'ehahovlisidaboialarkattakishilarningishlarinikuzatadilar,kattayosh1i boialar esa, daraxt ko'chatlarini o'tqazishda ishtirok etadilar: ular ko'chatlarni tashib kelishda ko'maklashadilar, ko'chatlarni o'tqazishda ushlab turadilar, tuproqni o'raga tashlaydiiar, yosh ko'chatlarni sug'oradilar. Boialar zambil va zambil g'altaklarda tok taglaridagi go'ng va axlatlarni olib chiqaribtashlaydiiar.

Aprel oyida dalalarda chigit ekish boshlanadi. Chigitning yaxshi unib chiqishi uchun tuproq yetarli miqdorda nam bo'lishi va kunlik o'rtacha harorat 10 darajadan kam bo'lmasligi kerak. Bunday harorat odatda Toshkent viloyatida aprelning birinchi o'n kunligida bo'ladi, janubiy viloyatlarda birmuncha oldinroqboshlanadi.

Harorat qanchaiik ko'tarilsa, chigit shunchalik tez o'sa boshlaydi va bir tekisda ko'karib chiqadi. Chigitni yaxshi unib chiqishi uchun chuqurlarga solib namlaydilar. G'o'zani parvarish qilish vaqtida mashina bilanikkitomonlama uzunasiga va ko'ndalangiga ishlov berish maqsadida chigitni seyalkalar yordamida kvadratuyalab ekiladi. Shunday usul bilan ekilganda, qo'I mehnati kam sarflanadi. hosil esa ko'proq olinadi.

Chigit yaxshi tayyorlangan va nam yerga 4—5 sm chuqurlikda ekiladi.

Chigit unib chiqqandan keyin darhol unga ishlov beriladi. Ekin maydonini doimo haydalgan va yowoyi o'tlardan tozalangan holda tutishga harakat qilinadi. G'o'za qator oralariga ikki tomonlama ishlov berishda mashinalar yaxshi yordam beradilar. O'simlik ildiziga yaqin bo'lgan joydagi o'tlarni yo'qotish va yaganalash ishlaridagina qo'l mehnatidan foydalaniladi. Shuningdek, dalalarga makkajo'xori, oq jo'xori va kungaboqar ekiladi.

Istirohat bog'lari, ko'chalar, bog'cha hovlilarida «jonli devorlar (ko'mko'k kichik daraxtlar) ekiladi.

Bog'larda qishloq xo'jalik zararkunandalariga va hasharotlarga qarshi kurash olib boriladi (3ilovaga qaralsin). Aprel oyining o'rtalarida qashqargul, xina, nastursiya, petuniya (gullari kattakatta bog' o'simligi), jasmin, xushbo'y no'xat va boshqa bog' gullarining urug'lari sepiladi hamda ko'chatiari o'tqaziladi. Katta gullarning ko'chatiari (qo'qongul, petunya va boshqa gullarning) 15—20 sm oralig'ida o'tqaziladi. Shu bilan birga gulning uzun novdalari chilpiladi, ya'ni bo'ynining uzunligi uchdan birga qisqartiriladi, bu gulning yon shoxchalarining yaxshi o'sishiga imkon beradi. Yangi o'tqazilgan gul ko'chatini albatta mayda katakli leyka yordamida sug'orish tavsiya qilinadi. Yosh o'simliklarning o'sishiga xalaqit qilmasligi uchun yovvoyi o'tlar tezda yulib tashlanadi. Yer sug'orilgandan keyin ozgina qurigach, yovvoyi o'tlarni olib tashlashosonlashadi.

Gul urug'lari sepilishdan oldin, +12+20 daraja haroratda undiriladi. So'ng esa sepiladi. Kanna, lunasvet kabi gullarning urug'lari qattiq bo'lgani uchun, bir uchi pichoq bilan bir oz qirqib qo'yiladi.

Ba'zan ana shunday o'simliklarning urug'i qaynoq suvga solib ivitiladi, keyinchalik esa sovuq suv solib aralashtiriladi, bunda urug'lar yoriladi.

Floks, delfinnum, pion singari ko'p yillik gullarning urug'lari ekishdan oldin sovutilmasa, o'smaydi.

Aprel oyining dastlabki kunlarida yerto'lalardan kartoshkagul gulining kartoshkasi olinib, ko'zdan kechirib chiqiladi. Qurib qolganlari namlanadiva yorug'roq joyga qo'yib, vaqtivaqti bilan suv sepib turiladi. Unib chiqa boshlaganlari ajratilib, yonveridan unib chiqqan shoxshabbalar bilan birga alohida joyga o'tqaziladi.

Bunday ishlarni amalga oshirishda bolalar ham jalb qilinadilar.

Gullayotgan o'simliklar (nastarin, buldonej) gullagach, yangi shoxlarni yaxshi rivojiantirish uchun gulkosalari qirqib tashlanadi.

Ekin maydonlarida pomidor va boshqa sabzavotlarni ekish ishlari davom ettiriladi. Tarvuz, qovun, qovoq singari poliz ekiniari ekiladi.

Dala ekinlarini parvarish qilish, g'o'zaga ishlov berish, bedani o'rib olish, texnika ekiniari va boshqa o'simliklarni sug'orish davom etadi.

Profilaktika maqsadida toklar (uzum) maydalangan oltingugurt bilan changlatiladi. Shuningdck, toklarga tushuvchi, O'zbe kistonda keng tarqalgan kasalliklardan — oidiumga qarshi kurash | olib borish maqsadida ham bu tadbir qo'llaniladi. O'simlik shoxlarining yaxshi ko'karishi, ko'p suv berib turilishi bu kasallikka qarshi kurashishning qulay shartlaridan biridir. Oidium tokning barcha ko'k qismlarida: gullari, barglari va shoxlarida bo'ladi.

Mevasi ustida ko'plab kul rang nuqtalar paydo bo'ladi, to'qimalarning normal o'sishi natijasida yoriqlar paydo bo'ladi va meva urug'i (12 rasm) ko'rinib qoladi. Obhavo nam boiganida, yorilgan mevalar chiriy boshlaydi, quruq obhavo sharoitida esa qurib qoladi. Ortiqcha shoxlarni, barglarni kesib tashlash, novdalarni chekanka qilish oidiumga qarshi kurashning muhim vositalaridanbiridir.

Bu kabi tadbiriy chora agrotexnika sharoitlarini yaxshilashdan tashqari shoxlarning zichlashib qolishidan asraydi va uiarning orasidan shamol bemalol o'tadi. Bunda tekinxo'r qo'ziqorinning yashashiga hech qanday sharoit qoldirmaydi. Toklarni (uzumni) maydalangan oltingugurt bilan har 20 kunda muntazam changlab turish kerak.

Tokzorni ana shunday parvarish qilish natijasida bolalar bog'chasi uzumdan mo'l hosil olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bularga bolalarning e'tiborini jalb qilish zarur.

Mevali bog'larda qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash olib boriladi.

2. YOZ FASLIGATAVSIFNOMA

Birinchi iyun kalendar hisobi bo'yicha yozning birinchi kuni hisobianadi. 22 iyun yoz faslida quyoshning eng uzoq nuqtadan o'tgan kuni bo'lib, bunda eng uzun kun va eng qisqa tun bo'ladi.

O'zbekistonda haqiqiy yoz may oyidan boshlanadi. Yoz fasli O'zbekistonda birmuncha cho'ziladi.

Bahorda boshlangan bu jarayon o'simliklardagi meva va urug'larning pishib yetilishi bilan tugallanadi.

1.1.Obhavodagi o'zgarishlar. Iyun oyida obhavoyaxshi bo'ladi.Kurilik o'rtacha harorat +20+30 daraja atrofida bo'ladi. Ko'pincha yoz oylarida havo ochiq bo'lib turadi[1].

Iyun oyida kamdankam yomg'iryog'adi. Shunda ham oyningbirinchi o'n kunligida, ko'pincha momaqaldiroq aralash yomg'ir yog'adi. Ba'zan esa hatto do'l yog'adi.

lyul oyida harorat ko'tarilib, +30°+40° o'rtasida bo'ladi. Ahyonahyon yomg'ir yog'adi.

Yaxshi obhavo sharoiti bo'lganini ko'rsatuvchi ko'pgina belgilar bor. Jumladan, ertalabki tongning zarrin nurlari quyoshning bulutlar orasidan chiqmasligi. Tuman tushadi va tezda tarqaladi, pashshalar barvaqt uyg'onishadi, tong endi yorishishi bilanoq asalarilar, qaldirg'ochlar uyalaridan uchib chiqadilar va havoda baland parvoz qiladilar, chivinlar qo'ng'izlar g'o'ng'illab uchib yuradilar. Quyosh bulutlar orasiga yashirinmaydi, balki, botish oldidan to'q qizil yokioltin

rangga kiradi, charaqlab oy chiqadi, vulduzlar moviy rangda charaqlaydilar. Ayniqsa, oyning ikkinchi yarmida o'rtacha harorat pasayadi va +20°+25° darajaga tushadi. Havoda bulut bo'lmaydi. Ba'zan avgust oxirlarida ozgina yomg'ir yog'adi.

2.2. O'simliklar hayotidagi o'zgarishlar. Bog'larda o'rik, olcha, erta pishar olma va noklar pishib yetiladi. 3—4 yil ilgari o'tqazilgan mevali daraxtlar: shaftoli, olcha hosil bera boshlaydi, olma daraxti esa 4—7 yildan keyin hosil beraboshlaydi.

Ko'pgina mevali daraxtlar yil sayin emas, balki yil ora hosil beradi. Bu hosil berishning davriyligi deb ataladi.

Iyun oyida gladiolus, ajdarog'iz, chinnigul, kartoshkagul, karma, xushbo'y tamaki, delfiniullar, siniya (qizil gulli dekorativ o'simlik), moychechak, floks, petuniy, tizimgul, semizo'tlar va boshqa bog' gullari gullay boshlaydi, chirmashuvchi gullar, chirmovuqlar to'q qizil rangdagullaydi.

Iyunning uchinchi o'n kunligida g'o'za gullay boshlaydi.

Iyul oyida, bog'larda olma, shaftoli, olcha, nok pishib yetiladi. Bolizlarda pomidor, baqlajon, bulg'or qalampiri singari sabzavotlar pishadi.

Qovun, tarvuz kabi poliz ekinlari ham yetiladi. Gulzorlarda qo'qongul, tizimgul, nastursiya, za'fargul, kartoshkagul va boshqa gullarochiladi.

G'o'zalar yoppasiga gullaydi va ko'sak tuga boshlaydi. Makkajo'xorilar dumbul bo'ladi.

2.3. Qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar. Qushlarning ovozi jaranglaydi. Ayniqsa, bulbul ko'psayraydi.

Sayroqi qushlarning tuxumlaridan madorsiz jish bolalar — qushchalar chiqadilar. Ularni onalari boqadilar. Bu paytda uyasidan tushib ketgan qaldirg'och va chumchuq bolalarini teztez ko'rish mumkin. Ularni uyalariga solib qo'yish kerak. Qush bolalarini tabiat burchaklariga olib kelib bo'lmaydi. Ular juda serovqat bo'ladilar.

Qo'ng'izlar, pashshalar, asalarilar teztez guldangulga qo'nib turadilar. Ular gullardan nektar va chang yig'adilar.

Kapalaklar ham gullarga qo'nadilar. Barglarning quyi qismlarida hasharotlarning ignalari izini ko'rish mumkin, ular barglarning sharbatidan so'rib oladilar.

Salqin tunlarda gullarda mayda hasharotlarni uchratish mumkin. Ular tunda gullar ichida isinadilar. Ba'zi vaqtda esa, gullar ichiga tuxum qo'yadilar. Jumladan, chinnigullarning gulkosalarida tungi kapalaklarning tuxumlari topilgan.

Suzg'ich ona qo'ng'iz ham o'simliklarga tuxum qo'yadi. U ikki oy mobaynida mingtacha tuxum qo'yadi. Keyinchalik tuxumdanlichinkalar chiqadi. Suzg'ich qo'ng'izning lichinkalari ikkiuch oy yashaydi, ana shu davr mobaynida ikki marta tullaydi. Yozning o'rtalarida lichinkalar qo'g'irchoqlarga aylanadi. Suzuvchi qo'ng'izlarning barcha qo'ng'izlardagi singari qo'g'irchog'i bo'ladi. Lekin qo'ng'iz lichinkasi suvdan chiqib, quruqlikda qo'g'irchoqqa aylanadi.

Ana shu vaqtda suv qo'ng'iz oqayotgan suvdagi barglarga tuxum qo'yadi.U o'rgimchak iplariga o'ralgan holda hammasi bo'lib 50—60 ta tuxum qo'yadi. Oradan ikkiuch hafta o'tgach, tuxumlardan lichinkalar yorib chiqadilar. Suvsevar qo'ng'izning lichinkasi semiz va beo'xshov bo'ladi. U yomon suzadi. Oradan ikki oy o'tgach, qirg'oqqa sudralib chiqadi, o'ziga «beshik» yasaydi, ikki haftadan keyin esa, qo'ng'izga aylanadi. U quvvatga kirib olgach, «beshigi»ni qoldirib ketadi va suvda suza boshlaydi.

Suv qo'ng'izini bahorda yoki yoz oxirida tutib olish va tabiat burchagida tekshiruv olib borish mumkin. Ular o't bosib ketgan hovuzlarda juda ko'p bo'ladi.

Iyul oyida qushlar tullay boshlaydi. Ayniqsa, g'ozlar va o'rdaklarda tullash qizg'in tus oladi. Ularning barcha yo'g'on qanotidagi katta patlarto'kilib, uchish qobiliyatini yo'qotadi. Iyul oyining oxirlarida qushlarning sayrashlari kamaya boshlaydi. Qush bolalari esa mustaqil hayot kechira boshlaydi.

Bu vaqtda ko'pgina kapalak va chigirtkalar paydo bo'ladi. Chigirtkalar himoya ranglari (ko'k ranglari) bilan deyarli ko'zga tashlanmaydilar. Ularni ko'pincha ko'k o't, shoxshabba va daraxtlarning ustida ko'rish mumkin. Ular orqa oyoqlarining yordami bilan kattakatta sakrashlari, shuningdek, o'zlarining pirillashlari bilan bolalarning diqqatini jalb etadilar. Ularning ikki juft qanoti va uzun mo'ylovi bo'ladi.

Toshkentda kechki paytlarda uylarning devorlarida kaltakesaklarni uchratish mumkin. Ular qushlarning sayrashlari kabi chirillab, o'z yoniga kapalak, chivin va mayda chivinlarning uchib kelishlarini poylab yotadilar. Avgust oyida, ko'kqarg'a, jarqaldirg'och, ko'rkunaklar singari ba'zi bir qushlar uchib keta boshlaydi. Laylaklar Toshkentdan sentyabr oyida, Butun O'rta Osiyodan esa oktyabr oylarida uchib ketadilar.

Avgust oyida hali kapalak, ninachi va qo'ng'izlar bo'ladi.

2.4. Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar. Iyun oyida suv havzalaridagi itbaliqlar yosh qurbaqacha va choi baqalariga aylanadilar. Qurbaqalar suv havzalarining o'zida yashayveradilar,cho'lbaqalariesaqirg'oqqachiqadilar,ekinmaydonlarivabog'larga joylashadilar.

May — iyun oylarining oxirlarida sahro kaltakesaklari (3—6 tadan) tuxum qo'ya boshlaydilar. Iyun oyining oxirida sariq kaltakesak 8—10 tagacha tuxum qo'yadi.

Yovvoyi hayvonlarning ham bolalari, jumladan, bo'ri bolalari ulg'aya boshlaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bo'ri bolalari 5—6 hafta ona suti bilan ovqatlanadi. Oltinchi haftadan boshlab astasekin go'sht yeyishga o'rganadi. Bo'ri bolalari katta hayvonlar singari ko'p suv ichadigan bo'ladilar. Shunday voqealar ham uchraganki, buloq suvining qurib qolishi natijasida ko'pgina bo'ri bolalari nobud bo'lgan.Yozningikkinchiyarmidabo'rilarmolvayowoyituyoqlilar:jayronlar,arxar (yowoyi qo'y)larga teztez hujum qilibturadilar.

Iyun oyida tuyalar ham tug'adi. Yosh bo'taloq odatda nimjon bo'ladi. Mahalliy aholi uni o'z utovlarida saqlaydi, kigizlarga o'rab, quyoshdan panalaydi. Bo'taloq bir oz o'sgandan keyin, uni soyasalqin yerga bogiab juda ehtiyot qilib boqadilar. Faqat tunlari uni bo'shatib, onasining yonida qoldiradilar. Ona tuyalar o'z bolalariga juda g'amxo'r va mehribon bo'ladilar, hatto bolalarini emizish uchun ataylab yaylovlardan kelibturadilar.

Iyun — iyul oylarida ona echkemar qoyalarning yoriqlariga 1 — 2 tadanbirnecha marta tuxum qo'yadi. Iyul oyining oxirida yosh kaltakesaklar tuxumdan chiqadilar, shuningdek, sahro yosh ilonquyruqlari ham paydo bo'ladi.Yaylovlardadumbali va qorako'l qo'ylarni boqish davom etadi. Dumbali qo'ylarda moy to'planadi. Avgust oyida yosh toshbaqalar paydo bo'ladi. Ular ko'rinishda juda kichkina bo'lib,bo'ylari 3057 mm ga etadi. Toshbaqalar juda sekin o'sadilar. Tuxumdan chiqqach, ular qum orasiga kirib ketib u yerda kelgusi bahorgacha uxlaydilar.

Avgust oyida tipratikanlar 5—7 tadan bolatug'adilar. Ular tug'ilganda ko'zlari ko'r, tanasi maydachuyda qisqa ninachalar bilan qoplangan bo'ladi. Tipratikanchalar ulg'ayishi bilan ularning ninachalari o'sa boradi, qattiqlashadi va to'q qo'ng'ir tus oladi. Tipratikanlar ko'pgina yovvoyi qushlar va hayvonlar (ukkilar, tulkilar) uchun yemish bo'ladilar.

Yozda sahrolarda qo'shoyoqlarni ko'rish mumkin. Ular odatda qorong'i tushishi bilangina uyalaridan chiqadilar. Ba'zan kunduzlari ular qum oralariga kirib oladilar. Qo'shoyoqlar har turli ovqatlar: sahro lolalarining ildizlari, g'ozyoyi, g'allasimon o't urug'lari bilan ovqatlanadilar. Shuningdek, ular qo'ng'iz, qurt, chumoli va kaltakesaklarni bajonu dil yeydilar. Ular, agar yonatroflarida polizlar bo'lsa, tarvuz, qovoq, qovunlarni yorib urug'larini yeydilar. Ba'zan bodringlarni, karam, no'xat va sabzi barglarni yeydilar.

Qo'shoyoqlarning ko'pgina dushmanlari bor: tulki, bo'ri, it, bo'g'ma ilon, boyqushlar shunday hayvonlarjumlasidandir. Xavf tug'ilib qolgan taqdirda u ilon izi qoldirib sakraydi va birorta teshikka yashirinishga harakat qiladi. Yoz o'rtalarida qo'shoyoq 3—6 ta bola tug'adi, bolalari uzoq vaqtgacha onasining yonida bo'ladi.

Avgust oyining oxirida bo'ri bolalari o'sib yetiladi. Ular ko'pincha qorong'i tushgach va tun paytlarida uy hayvonlarini ovlaydilar. Ba'zi hollarda uy hayvonlariga kunduz kunlari ham hujum qiladilar, lekin aholi yashaydigan punktlardan olisda boigan joylardagina shunday qilishlari mumkin. Choi bo'risi chorvachilikka zararkeltiradi.

2.5. Qishloq xo'jalik ishlari. lyun oyida kunning jaziramasi va havoning quruq bo'lishi ko'pincha bir yillik o'simliklarning gullash davrini qisqartiradi. Biroq o'z vaqtida sug'orib turilsa va oziqlantirilsa, gullash davri birmuncha uzayadi. Shuning uchun gullarni (ertalab va kechki soatlarda) har kuni sug'orib turishkerak.

Iyun oyida va undan keyinroq bog'larda olma daraxtlarini zararlantiradigan qurt kapalaklar paydo bo'ladi. Olmaning ichi kapalak qurti uchun ishonchli uy, zahiradagi ozuqa manbai boiib ham hisoblanadi. Qurtlagan olma yerga to'kiladi, uning ichida qurtchalaro'rmalab chiqadi. Daraxt tanasi orqali o'rmalab chiqib, yangi pishgan olmani topib, uning po'stlog'ini kemirib, ichiga joylashadi va o'sha yerda yashay boshlaydi. Shuning uchun to'kilgan olmalarni tezda terib olish kerak, aks holda qurt yana daraxt ustiga o'rmalab chiqib yangi olmalarni zararlay boshlaydi.

Iyun oyining oxiri va iyul oyining boshlarida kapalaklarning ikkinchi avlodi paydo bo'ladi, ular uzum urug'lari bilan ovqatlanadilar.

Chiqqan qurt mevalarning ustida ochiq holda, mevaning bir yerini chuqurcha qilib olib yashayveradi. Keyinchalik mevaning yumshoq joyini yeb o'sha joyda yashaydi. Yosh qurtlar bir mevadan ikkinchisiga teztez o'tib turadilar va o'z uychalari atrofini yupqa iplar bilan o'raydilar. Qattiq zararlangan mevalar to'kiladi.Uzumlarning xomtok qilinishi ana shu zararkunandalarni yo'qotish imkonini beradi.

Iyun oyidan oktyabr oyigacha tut qurtlarini qirib tashlashga kirishish kerak. Buning uchun tut daraxtlarining tevarakatroflarini qazib, yumshatish lozim.

Iyun oyida bog'larda ertangi olma, shaftoli, olcha, gilos va o'riklarni yig'ish ishlari boshlanadi. Polizlarda ertangi pomidor, garmdori va baqlajonlarni yig'ishtirish boshlanadi. Bolalar bunday islilarda qatnashadilar.

Yozda havo issiq bo'lgan taqdirda kechki payt daraxtlarga, ko'kat devorlarga suv sepiladi. Shuningdek, daraxt tanalari yonlaridan o'sib chiqqan mayda shoxshabbalar qirqib tashlanadi, ko'kat devorlar kesib, tekislanadi. Bog'lar va polizlarda hosilni yig'ibterib olish ishlari boshlanadi.

Avgust oyi — sabzavot va mevalarning g'arq pishgan oyidir. Bu oyda, uzum, shaftoli, olxo'ri, olma va boshqa mevalar ko'plab pishib yetiladi. Polizlarda esa qovuntarvuzlar mo'lkoi bo'lib yetiladi,dalalardapomidor, baqlajonva bulg'or qalampiri pishadi. Avgust oyida paxta terimi va boshqa yig'imterim ishlari boshlanadi.

Dalalarda g'o'zalar, bedalar, kechki makkajo'xori va qish uchun tayyorlanadigan kartoshka hamda boshqa sabzavotlarni parvarish qilish ishlari davom etadi.

Avgust oyida gulzorlarda gullarning urug'larini yig'ish ishlari boshlanadi. Buishda bolalar ham qatnashadilar. Yaxshi rivojlangan, sog'lom o'simliklarning urug'lari yig'ib olinadi. Urug'lik uchun hamisha dastlab ochilgan gullarning urug'lari olib qo'yiladi. Ularni kesib qo'ymaslik maqsadida ilgariroq birorta aniq lenta bilan ajratib belgilab qo'yiladi. Bunday gullarni yorliqlar bilan ham belgilab qo'yadilar. Bu yorliqlarga o'simlikning nomi, navi, rangi yozib qo'yiladi.

O'simlikto'la pishibyetilgandankeyingina,uning urug'iyig'ibolinadi. Dekorativ o'simliklaming sarg'aya boshlashi yoki qo'ng'ir tusga kirishi mevasining pishganligidandalolatberadi. Gullamingyaxshi urugiaridan bebahra bo'lmaslik

uchun ularning pishib yetilishini diqqat bilan kuzatib borish kerak, chunki ular pishib yetilgach, yerga to'kilishi va shamol bilan uchib ketishi mumkin.

Ayniqsa kapalakgulni, xinani, xushbo'y no'xat, kartoshkagul, gladiolus, floks singari gullarni kuzatib borish kerak. Ushbu o'simliklaming yetilgan urug'lari har tomonga sochilib ketadi. Ko'pgina gullarning umg'lari uchuvchan bo'ladi.Gullarning urug'lari quyoshli kunlarda, tonggi shudring qurigachgina yig'ishtirib olinadi. Agar yig'ilgan urugiar nam bo'lsa, ularni quritish kerak.

Ko'k mevalar va urug'larni turlari va navlariga qarab dokadan tikilgan xaltachalarga solinadi. Urug'lar solingan xaltachalar ustigaurug'ning navi, yig'ib olingan yili ko'rsatilgan yorliqlar yopishtirilgan bo'ladi. Xaltachalar ichiga urug'larni zichlab joylashtirish yaramaydi, chunki havo harorati ko'tarilgan taqdirda urug'lar buzilishi va namligini yo'qotishi mumkin.

Urug'lar solingan xaltachalar kanop bilan bog'lanadi va qumq, shamol yaxshi kiradigan binoga osib qo'yiladi.

Avgust va sentyabr oylarida vaqtivaqti bilan o'simliklarni sug'orib turiladi. Ko'pincha bunday ishlarga katta yoshdagi bolalar ham jalb qilinadi. Qishloq xo'jalik zararkunandalariga va ko'k o'simliklaming kasalliklariga qarshi kurash ishlari olib boriladi .

. Maktabgacha ta’lim muassasalarida yer maydonchalarida bolalar mehnatini tashkilqilish

Mashg’ulot rejasi:

1. Yer maydonchasining ta’limiy tarbiyaviyaxamiyati.
2. Bolalar bogchasining ekinzor vagulzorlari.
3. Maydonchada xayvonlarnisaqlash

Mashg’ulotning maqsadi: Maktabgacha ta’lim muassasalarida yer maydonchasining ta’limiy tarbiyaviy axamiyatini talabalarga tushuntirish

Ma’ruza mazmuni:

1. Yer maydonchasiningda’limiy tarbiyaviyaxamiyati.

Bolalar bogchasida yer maydonchasi bo’lib, bolatar kup vaktlarini usha yerda kuzatadilar. Maydoncha — o’yinlar, sayrlar, mashg’ulotlar utkaziladigan butun yil davomida o’simlik va xayvonlarni kuzatadigan joydir. Maydonchada daxtlar, butalar, ekinzor, gulxona, mevali daraxtlarning bulishi katta ta’limiy va tarbiyaviy axamiyatiga ega. Bolalar tarbiyachi bilan birga o’simliklarni ustiradilar, ularni parvarish kiladilar, usishi va rivojlanishi xakida aniq tasavvurlarga ega buladilar. Bolalarga o’simliklarni pavarish qilish jarayonida, tuprokda ishlov berishda zarur bo’ladigan oddiy asboblardan foydalanish kunikmasi xosil buladi, xamda tabiatga unda yashovchilarga nisbatan extiyotkorona munosabatda bulishkabi

hislatlar tarbiyalanadi. Maydonchani chiroyli, nafosatli bezatilish bolalarda badiiy va guzallikni xis qilish, vatanparvarlik kabi nozik xislatlarni tarbiyalaydi. Bolatarda uzulkasinisevishi,uzulkasiningtabiatinibilishiknttaaxamiyatgaega.pnmaqsadda maydonchaga ekiladigan daraxtlar, usimliklar mana shu ulka tabiatiga, iklimga mos bulishi zarur. Ekinzorni tashkil etpshda dastur mazmunidan kelib chikkan xolda bir gurux uchun poliz ekmnlari tanlanadi. Kichik guru.x uchun urug'lari yirik xomligicha iste'mol knlish mumkin bulgan: sabzi, rediska tavsiya etiladi. Urta guruxda xam xuddi shular ekiladi. Birok imkoni boricha ikki xil navi ya'ni kizil va ok rediska ekiladi. Maqsad bolalar ularni solishtirib uxshash va farkli tomonlarini tanlashlari lozim. Katta guruxda bolalar uchun tavsiya etilgan barcha sabzavot usimliklari ekiladi. Gulzorni tashkil etishda, bogchaning tabiiy sharoitini xisobga olgap xolda, erta baxordan to kech kuzgacha gullaydigan usimliklartanlanadi

Masapan: lola, narsiss (chuchmoma), kapalakgul, kukongul kabi gullar ganlanib, ularni markazita baland buyli, chetlariga past buyli gullar ganlanadi.

Yer maydonchasida baxor. yoz oylarida jonli tabiat burchagi tashkil ^tiladi. Bogchaning tabiiy sharoitini xisobga olgan xolda, jonli tabiat burchagida kuyonlarni, govuklarni, urdaklarni bokib parvarish qilish mumkin. > bolalar jonivorlarni parvarish qilish, kunikma masalalarini tarbiyalash. ularga nisbatan xamgurlik munosabatlarini chukurrok tarbiyalashga yordam beradi. Yer maydonchasida har bir yosh gurux uchun o'yin va jismoniy tarbiya ^aydonchalari, gabniy material bilan uynash uchun kum solingan yashiklar kichikrok xovuz bulishi loznm. Jonivorlar kuyon va tovuklar bokish uchun joyiajratiladi.

Kichik gurux bolalari uchun ekinzor maydoni har bir bolaga 1 kv m xisobidan tashkil kilinadi. Urta gurux bolalari uchun norma 1,5 kv m gacha tayerlov gurux boalari uchun 1,5 — 2 kvm gacha oshirnladi. Ekinzor atrofi past buyli usimliklar bilak uraladi. Atrofi uralgan ekinzor oyli kurinishga ega bulnshi bilan birga guruxlarin bir — biridan tabiiy ajratib turadi. Ekinzor uchun tanlangan urug'lar yukori navli yaxshi ekish xususiyatiga ega bulishi kerak. Ekilgan urug'larning asosiy sifat k) rsatkichi uning unib chikishidir. Nixollar paydo bulishinitezlashtirish \ chun urug'lar namlanadi va undiriladi.

Gul usimliklarining ekishning eng kup tarkalgan shakli klumba, rabotka va gazonlardir. Gulzorni bezashda manzarali usimliklarni tugri tanlash muximdir. Usimliklarning yerug va namga bulgan talabini e'tiborga olish kerak. Usimliklarni tanlaganda klumbada erta baxordan to kech kuzgacha gul ochilib turishi nazarda tutilishi lozim. Erga baxorda ochilgan gulga ega bulish chunki kuzda yerga piyozli usimliklar — lola. chuchmoma ekiladi yoki iyul oyida kapalakgul, dastagullar ekilib, erga baxorda ular doimiy joylariga kuchirib utkaziladi. Gulzorni bezashda chiroyli gullarni butazor va utsimon manzarali usimliklardan foydalanish mumkin. Ochikyerdayashashdavomiyligigakuraqaraliusimliklarkupyillik,2yillik,1

yilliklarga bulinadi. Kup yillik usimliklar guruxiga yer ustidagi kismi kishda bilan usimliklar adi. Uning xayoti tuprok ostidagi organlarida; piyoz, tutunak ildizpoya, ildizida saklanadi. Kish usimliklar baxorda tez usadi. Erta baxorda va kuzda gullaydi. Kup yillik simliklarga aloxida e'tibor berish lozim. Ikki yillik gulli usimliklarga kupincha urug' sepilgandan sung 2 yiliga gullaydiganusimliklarkiritiladi. Bu usimliklar yozning birinchi yarmidaochiladi.

Gulxonada bir vegativ dazrda foydalaniladigan ngullarni bir yillik yoki yozgi usimlnklar deyilali. Yezgi usimliklar ekilgan yili ochiladi, urug' beriladi va xalok buladi. Ularning guli chiroyli bo'lib, yozning ikkinchi yarmida kiygos bo'lib ochiladi.

Maydoncha bogcha bolalari uchun yil mavsumi va fasllarning uzgarishini kuzatadigan esh kulay jollpr. Tarbiyachi bolalarni maydonchaga olib chikib. gabiatda buladngan uzgarishlar, uning sabablari, kishlab koluvchi va uchib keguvchi kushlarbnlantanishtiradi.Birsizbilanaytganda.bogchamaydonchasnbolatarning :.;: gomonlama rivojlanishida jonli va jonsiz gabiat bilan ganishishida. uz ona - Vatanini sevishda uni muxofaza qilish. usimlik va hayvonlarni va kupaytirishda ta'lim - - tarbiya oladigan ilk maskan xisoblanadi

Yer maydonchasining ta'limiy tarbiyaviy axamiyatini,bolalar bogchasining ekinzor va gulzorlari,maydonchada xayvonlarni saklash tartibi xaqida tushuncha beradi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH VA TAHLILQILISH.

Mashg'ulot rejasi:

1 .Tabiat bilan tanishtirish fanining axamiyati.

2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini o'tkazish va tahlilqilish**.**

Xozirgi kunda davlatimizning bosh ustivor vazifalaridan biri bu chuqur bilimli, yetuk, dunyo karashi keng, yukori saviyali kadrlarni tayyorlashdir. Bu vazifani amalga oshirish uchun Uzbekiston Prezidentining bevositaboshchiligida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yaratildi. Bu dasturda ta'limning boskichlari va asosiy 5 ta bugini, vazifalari aniq kursatib berilgan. Uzluksiz ta'lim tizimi — maktabgacha ta'lim, — umumurta'lim, — oliy ta'lim.— oliy ta'limdan keyingi ta'lim, — malaka oshirish va kadrlarni kayta tayyorlashdan iborat. Yukoridagi ta'lim tizimlardan biri uch yillik urta maxsus kasb xunar ta'limidir. Kasb — xunar kollejlari o'quvchilarning kasb - xunarga moyilligini, layokatlarini bilimva

kunikmalarini rivojlantiridi, ularga tanlagan yunalishlari buyicha bir yeki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Yaxshi kasb - xunar egasi bulish insonning eng katta ziynati bo'lib, uning butun xayoti davomida katta foyda keltiradi. U farog'atga, kamolatga yetadi va uz kasbi orkali izzat — ikromga ega buladi. Kasb — xunar kollejlarida o'qitiladigan «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uslubiyoti va tabiatshunoslikdan amaliyot» kursining vazifasi bulajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan «Bolalar bogchasida ta'lim - tarbiya dasturi»ga muvofiq ish olib borishga urgatishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ularga ta'lim - tarbiya berish vazifalari amalgaoshiriladi.

O'quvchilar bu kursni urganayotgan vaktlarida amaliy mashg'ulotlarning ish rejasi va dars reja taxririni tuzish bogchada bolalarni tabiat bilan tanishtirish buyicha kilinadigan ishlarni kuzatish va uni - uzlari olib borishlari zarurligini bilib boradilar. Mana shu kursni o'qitishning axamiyati shundaki, maktabgacha tarbiya muassasalari uchun kadrlar tayyorlashda uning uziga xos ya'ni xamda ximmati bor. Bu kurs fakat maktabgacha tarbiyachilarning bogchalarda tabiatga doir mashg'ulotlar utkazish bilan tanishtiribgina kolmay, ularni jonli va jonsiz tabiat, ularning biologik xususiyatlari, shuningdek ularni parvarishlashda bolalarda oddiy kunikmalarni xosil a qilish bilantanishtiriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uslubiyoti boshqa uslubiyatlar bilan uzviy boglikdir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishida ularning psixologik xolatiga, fikrlash kobiliyatiga sezgilarning tarakkiy etishiga katta ta'sir etishni yaxshi bilishlozim.

Kursning dasturi shunday tuzilganki, o'quvchilar ushbu uslubiyatni urganish bilan birga tabiatshunoslikdan amaliyot utkazish yullari bilan xam tenlik tanishadilar. Uning maqsadi o'quvchilarning jonajon ulkamiz tabiati, Vatanga muxabbat ruxida tarbiyalashib bolatar muassasalari koshida usimlik xayvonlarni parvarish qilish tabiat burchagi, ekinzor, gulzor, meva boglar barpo qilishga o'rgatishdan iborat. Bu kursning dasturi ilmiy asosda tuzilgan bo'lib, mavzular ketma - ketligi, pedagogik maqsadga va predmetning mazmunigaasoslangandir.

Mashg'ulotdan yakunida bolalarnirag'batlantirish.

MASHG'ULOTLAR MAVZULI-TAQVIM REJASI

Tabiat *bilan tanishtirish* mashg'ulotlarining taqsimlanishi

(2-3yosh)

Jonsiz tabiat	Jonli tabiat		Yil davomida
	O‘simliklar dunyosi	Hayvonot dunyosi	
4	**7**	**7**	**18**

T.r.	Mashg‘ulot mavzulari
	Jonsiz tabiat
1.	Qum va suv bilan turli o‘yinlar o‘ynaymiz.
2.	Quyosh va oy (*kun va tun*).
3.	Yomg‘ir yog‘di.
4.	Oppoq va sovuqqor.
	Jonli tabiat
	O‘simliklar dunyosi
5.	Boqqa sayr (*daraxt, gul va o‘t-o‘lanni farqlash bo‘yicha ilk tushuncha berish*).
6.	Qizil pomidor.
7.	Mazzali bodiring.
8.	Kuzgi daraxt (*olma*).
9.	O‘rik daraxti chiroyli gullabdi.
10.	Olma daraxti oppoqbo‘lib gulladi.
11.	Gilos pishdi**.**
	Hayvonot dunyosi
12**.**	Mushukcha bilan tanishamiz.
13.	Kuchukcha.
14.	Akvariumdagi baliqcha.
15.	Tovuq.
16.	Tovuqva jo‘jalar.

17.	Sigir va buzoqcha.
18.	Chiroyli kapalak.
Sayrda	
1.	Ob-havodagi ayrim o‘zgarishlar.
2.	Maydonchaga uchib keluvchi qushlar.
3.	Maydoncha bo‘ylab maqsadli sayr (*turli fasllarda*).

Tabiat *bilan tanishtirish*

(3-4 yosh)

Jonsiz tabiat	Jonli tabiat		Yil davomida
	O‘simliklar dunyosi	Hayvonot dunyosi	
2	**9**	**7**	**18**

T.r.	Mashg‘ulot mavzulari
Jonsiz tabiat	
1.	Qum va suv haqida nima bilamiz?
2.	Ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi.
Jonli tabiat	
O‘simliklar dunyosi	
3.	Sariqva qizil sabzilar.
4.	Mazali kartoshka va foydali sholg‘om.
5.	Anor pishdi.
6.	Mazali yong‘oq.
7.	Katta bargli fikus.
8.	Derazadagi ekinzor (*piyoz ekish*).
9.	Atirgul ochilibdi.
10.	Olcha daraxti gulladi.
11.	Anor daraxtining guli.

Hayvonot dunyosi	
12.	Qo‘y va qo‘zichoq(*surat orqali*).
13.	Asalari.
14.	Ayiq.
15.	Akvariumdagi baliqchalar.
16.	Xo‘roz, tovuqva jo‘jalar (*surat orqali).*
17.	Oppoqquyon.
18.	Qaldirg‘och.
Sayrda	
Jonsiz tabiat	
1.	Kun va tunning almashuvi.
2.	Ob-havodagi ayrim o‘zgarishlar (*turli fasllarda*).
Jonli tabiat	
3.	Maydoncha bo‘ylab maqsadli sayr (*turli fasllarda*).
4.	Olma, olcha, yong‘oqdaraxtlari.
5.	Maydonchamizga qushlar (*musicha, chumchuq*) uchib keldi.
6.	Xon qizi.
7.	CHiroyli sariqqoqio‘t.
8.	Qip-qizil lolaqizg‘aldoq.
9.	Mazzali olcha.

Tabiat *bilan tanishtirish* mashg‘ulotlarining taqsimlanishi

(4-5 yosh)

Jonsiz tabiat	**Jonli tabiat**		**Yil davomida**
	O‘simliklar dunyosi	**Hayvonot dunyosi**	

1	**8**	**9**	**18**

T.r.	**Mashg‘ulot mavzulari**
Jonsiz tabiat	
1.	Ertalab, kunduz, kechqurun, tun.
Jonli tabiat	
O‘simliklar dunyosi	
2.	Muassasa bog‘igasayr.
3.	Olxo‘ri mevasining foydasini bilasizmi?
4.	Sabzavotlar: lavlagi, rediska, turp.
5.	Kuzgi daraxt *(xurmo*).
6.	Xona o‘simliklari *(yorongul, navro‘zgul*).
7.	Derazadagi ekinzor (*sarimsoqekish*).
8.	SHaftoli daraxti gulladi.
9.	Poliz ekinlari (*qovun, tarvuz*).
Hayvonot dunyosi	
10.	Xushovoz bulbul.
11.	Yovvoyi hayvon: olmaxon.
12.	Yovvoyi hayvon: bo‘ri.
13.	Tabiat burchagidagi toshbaqa.
14.	Akvariumdagi baliqcha.
15.	O‘rdak jo‘jalari bilan (*surat orqali*).
16.	Echki va uloqcha (*surat orqali*).
17.	Hashoratlar: ninachi, tillaqo‘ng‘iz.
18.	Kurka jo‘jalari bilan.
Sayrda	
Jonsiz tabiat	

1.	Ob-havo holatini farqlash.
2.	Tosh-qattiq, qum-sochiluvchan.
Jonli tabiat	
3.	Maydoncha bo‘ylab maqsadli sayr (*turli fasllarda*).
4.	Maydonchaga uchib keluvchi qushlar (*kabutar, musicha, qaldirg‘och*).
5.	Bahor darakchilari boychechak, binafsha.
6.	Dorivor o‘simliklar (*moychechak, yalpiz*)
7.	Muassasa bog‘idagi daraxtlar (*turli fasllarda*).
8.	Gulzorimizdagi gullar.

Tabiat *bilan tanishtirish* mashg‘ulotlarining taqsimlanishi

(5-6 yosh)

Jonsiz tabiat	**Jonli tabiat**		**Yil davomida**
	O‘simliklar dunyosi	**Hayvonot dunyosi**	
3	**7**	**8**	**18**

Mashg‘ulot mavzulari	
Jonsiz tabiat	
1.	Tog‘, o‘rmon,daryo.
2.	Suvning bug‘ga va bug‘ni suvga aylanishi (*amaliy tajribalar*).
3.	Suvning muzga va muzning suvga aylanishi (*amaliy tajribalar*).
Jonli tabiat	
O‘simliklar dunyosi	
4.	Mevalar: qulupnay, behi, nok, yong‘oq.
5.	Sabzavotlar: karam, baqlajon, balg‘or qalampiri, gulkaram.
6.	Xona gullari: koleus, aloe.

7.	O‘simliklarni qalamchasidan, butasidan ko‘paytirish.
8.	Poliz ekinlari: qovun, tarvuz va qovoq.
9.	Butasimon o‘simliklar: nahmatak va malina.
10.	Derazadagi ekinzor *(rayxon*).
Hayvonot dunyosi	
11.	Ot (*surat orqali*).
12.	Yo‘lbars va sher (*surat orqali*).
13.	Tuya bo‘talog‘i bilan (*surat orqali*).
14.	Qushlar (laylak, turna, qizilishton).
15.	Akvariumdagi baliqcha.
16.	Tovus (*surat orqali*).
17.	Tipratikan (*surat orqali*).
18.	CHumoli va chigirtka.
Sayrda	
Jonsiz tabiat	
1.	Ob-havo holati (*qor yog‘ishi, momaqaldiroq, do‘l yog‘ishi, tuman tushishi*).
2.	Muassasa bog‘iga sayr (*fasllarga xos belgilarini farqlash*).
Jonlitabiat	
3.	Dorivor o‘simliklar (*sachratqi, bargizub, otquloq*).
4.	Madaniy va dorivor o‘simlik: rayxon.
5.	Qarg‘a
6.	Gulzorimizdagi gullar.
7.	Muassasa bog‘idagi mevali va manzarali daraxtlar (turli fasllarda).

Tabiat *bilan tanishtirish* mashg‘ulotlarining taqsimlanishi

(6-7 yosh)

Jonsiz tabiat	Jonli tabiat		Yil davomida
	O‘simliklar dunyosi	Hayvonot dunyosi	
4	**6**	**8**	**18**

Mashg‘ulot mavzulari	
	Jonsiz tabiat
1.	Havo borligini qanday bilamiz? (*amaliy tajribalar*).
2.	Magnitning xususiyatlari (*amaliy tajribalar*).
3.	Tog‘, o‘rmon, daryo (*video va suratlar orqali suhbat*).
4.	Suvning xususiyatlari (*amaliy tajribalar*).
Jonli tabiat	
O‘simliklar dunyosi	
5.	Mevalar: anjir, uzum, tut.
6.	TSitrus o‘simliklar: limon, apelg’sin, mandarin, banan, kivi, anonas.
7.	Sabzavotlar: baqlajon, sholg‘om, turp, lavlagi, karam, gulkaram, balg‘or qalampiri.
8.	G‘o‘za o‘simligi.
9.	Xona o‘simliklari: uzambar binafshasi, tsiklomen, kalonxoe.
10.	Poliz ekinlari: qovun, tarvuz, handalak, qovoq.
Hayvonot dunyosi	
11.	Ot (*surat orqali*).
12.	Jirafa, fil, maymun, zebra, begemot (*surat orqali*).
13.	Sudralib yuruvchi hayvonlar: tumsoh, ilon.
14.	SHimol bug‘usi va pingvin (*surat orqali).*
15.	Dengiz hayvonlari: kit, akula, delfinlar (*surat orqali*).
16.	Qushlar: kaklik, bedana, boyqush (*surat orqali*).

17.	Ipakqurti (*surat orqali*).
18.	Parrandalar: g‘oz jo‘jalari bilan (*surat orqali*).
Sayrda	
Jonsiz tabiat	
1.	Quyosh harakati.
2.	Oqva qora bulutlar.
3.	Ob-havo holati (*qor yog‘ishi, momaqaldiroq, do‘l yog‘ishi, tuman tushishi*).
4.	Suvning muzga va muzning suvga aylanishi (*amaliy tajribalar*).
5.	SHamol (*amaliy tajribalar*).
6.	Qumning xususiyatlari.
Jonli tabiat	
5.	Muassasa bog‘iga sayr (*fasllarga xos belgilarini farqlash*).
6.	Muassasa bog‘idagi mevali daraxtlar (*turli fasllarda).*
7.	Manzarali daraxtlar (*qayrag‘och, tol*).
8.	Tut (*yong‘oq*) daraxti gulladi.
9.	Gullaydigan madaniy o‘simliklar (*gultojixo‘roz, xrezantema, namozshomgul, gulsapsar*).
10.	Dorivor o‘simliklar (*yalpiz, sachratqi, bargizub, otquloq*).
11.	Qushlar.
12.	Beshiktebratar.
13.	O‘simliklarni qalamchasidan, butasidan, urug‘idan ko‘paytirish.

“Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi
2 kurs talabalari uchun
Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi va nazariyasi
fanidan

amaliy mashg’ulotlar

1-mavzu;Sharq va G‘arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o‘rni haqidagi qarashlari.

Darsning maqsadi: Talabalarni Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi va nazariyasini rivojlanish jarayonlari hamda bu jarayonga hissa qo’shgan fan fidoiylari bilan tanishtirish.

Darsning jihozi: Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasiga doir adabiyotlar, fan fidoiylarining suratlari, yaratgan asarlarining namunalari va ular hakida internetma’lumotlari.

Bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda tabiatshunoslikning roli katta.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishni bog’cha yoshidan boshlamoq kerak.

SHunga ko’ra bolalar boG’chalarida murG’ak qalblarga talim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida Eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go’zalliklarini ko’ra bilishi, ini sevishi, tabiatda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida to’g’ri tushunchaga yega bo’lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo’lmog’i lozim.

Yosh avlodni yetuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o’z Vatanini sevuvchi, uni ezozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning urni beqiyos. Bola shaxsining muqammal shakllanishida tabiat, unda bo’ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonuniyatlari muhim rol uynaydi. Bolalar manna shular bilan tanishar ekanlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyo qarashlari mujassamlanib shakllanib boradi va ular tabiatini asrash, ehtiyot qilish va muhofaza qilish ruhidatarbiyalanadilar.

Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan kamolga yetkazgan. SHunday ekan, biz tabiatni ezozlashimiz, unga to’gri munosabatda bo’lib, tabiatni yana ham qo’rkamligiga, obodanlashtirish ishiga o’z hissamizni qo’shishimiz zarur. Yosh bolalarni har tomonlama kamol topshitirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning Eng samaralisi maktabagacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go’dakligidanoq tabiat qo’ynida o’sadi,ulgayib

kamol topadi. Bolani go’dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to’gri munosabatda bo’lishga o’rgatib borishimizzarur.

O’rta Osiyo xalqlari, jumladan o’zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega.

Eng mo’tabar, qadimgi qo’lyozmamiz «Avesto» xalqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o’ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodarga qoldirgan manaviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o’lkada buyuk davlat, yuksak manaviyat va madaniyat bo’lganligidan guvohlik beruvchi tarixiyhujjatdir.

«Avesto»da Yer, suv, xona, inson tana azolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko’chalarni, butazorlaru o’tloqlarni, Yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. SHuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko’mib tashlash buyurilgan.

Buyuk alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy risolalaridan birida bunday deb yozadi:

«Bilingki, daryoning ko’zlari yoshlansa, uning boshiga G’am, kilfat tushgan bo’ladi. Odamlar, daryodan mehringizni dariG’ tutmanglar!» Daryoning «yoshli ko’zlari» deganda Al-Xorazmiy nimalarni ko’zda tutgan yekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo’lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz Eng avvalo daryo bilan odamlarning «bir-birlarini tushunishlari», o’zaro mehr-muhabbat qoyishlarini nazardatutgan.

847- yilda Muhammad al-Xorazmiy «Kitob surat al-arz» nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qitalar,qutblar, ekvatorlar, cho’llar, toG’lar, daryo va dEngizlar, ko’llar va o’rmonlar, ulardagi o’simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek,Erning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar haqida malumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, yetnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko’nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Abu Nasr Forobiy. O’rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarining Eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to’liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro’yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 asarining nomi keltirilgan.

Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shuG’ullangan bo’lib, uning «Kitob al-hajm va al-miqdor», «Kitob al-mabodi al-insonia» («Insoniyatning boshlanishi haqida kitob»). «Kitob al-azo al-hayvon» («Nayvon azolari to’G’risida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo’la oladi.

Tabiatshunoslikka oid «Odam azolarining tuzilishi», «Hayvon azolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim azolarning tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtab o'tilgan.

Abu Rayhon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro tasiri bilan tushuntirishga urinadi. Olim Yerdagi bazi hodisalarni quyoshning tasiri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, Yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo ko'rayishga intiladi vash u maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan:

« Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu Yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. SHu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulibtashlaydilar».

Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, «Saydana», «Minerologiya», «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan.

Beruniy o'zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar malum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan tasir yetuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga yega yemas, degan xulosaga keladi.

Abu Ali ibn Sino yirik qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning 450 ta asari mavjud bo'lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» shox asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishini ng oliy choqqisi bo'lib hisoblanadi.

Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur «Kitob-ash-shifo», yani «Davolash kitobi» asarida bayon yetilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayonyetilgan.

Ibn Sinoning tog'larning vujudga kelishi, Yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qoshdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobur nafaqat shoir balki podsho, ovchi, tarixchi, bog'bon va tabiatshunos bo'lgan. «Boburnoma» asarida Bobur o'zi ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylari tabiati, boyligi, urf-odati, hayvonoti, o'simliklarini tasvirlagan. Asarda Yer, suv, havoga tegishli xalq so'zlari ko'plab uchraydi.

Bobur o'z asarida joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, o'simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug'doy, o'rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida takidlagan.

Asarda Bobur borgan joylarining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan, hamda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batafsil bayon yetib bergan.

CHexiyalik mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag'ishlagan.

Uning fikricha, inson tabiatning Eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga yergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O'zining «Buyuk didaktika», «Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan.

Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan.

«Onalar maktabi» xushbo'y o'simliklar, G'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorini yeslatadi.

«Ona tili» maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o'xshaydi.

«Gimnaziya» da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni «aql xazinasi»ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.

Va nihoyat, «Akademiya» yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishigao'xshatiladi.

Ya.A.Komenskiy «Onalar maktabi»da 18 ta fandan malumot olishni tavsiya yetgan. Uning fikricha olti yashar bola:

- suv, Yer, havo, olov, yomgir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq kabilarni;

- yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagitasavvurlarni;

- o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodiy, dala, daryo, qishloq, shahar nima yekanligini bilishikerak.

Ya.A.Komenskiy hamma narsani tabiatga bog'lab tushuntirgan. U tarbiyachilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarlinomlab,

mazmunini to’liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan Eng chiroylisi bog’ning turli manzaralaridan namuna olishdir.

I.G.Pestalosti 1746-yilda shveyttsariyalik shifokor oilasida tuG’ilgan. U o’z zamonasining mashhur pedagogi bo’lgan. Uning fikrlari haligacha pedagogika sohasida qo’llanib kelinadi. U «Gertruda o’z bolalarini qanday qilib o’qitadi», «Kuzatish alifbosi», «Son to’G’risida ko’rsatmali talim», «Oqqush qo’shigi» kabi asarlarni yaratdi. I.G.Pestalosstining fikricha, bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uyG’un bo’lishi kerak. U Ya.A.Komenskiy , Jan Jak Russolarning ushbu G’oyasiga amalqildi:

«Insoniy kuchlarning o’sishi uchun tabiat qilayotgan harakatga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni hayvoniy-hissiy xususiyatlardan sekinlik bilan qutqaradi. To’g’ri tarbiya yesa ularni, yani barcha insoniy kuchlarni o’stirishga yordam beradi».

I.G.Pestalosti bolalarning aqliy kamolotini o’stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg’a suradi:

1. Talimning tabiat bilanuyg’unligi.
2. Oddiydan murakkabga yo’naltirish.
3. Bolaning kuch va qobiliyatigamoslashtirish.
4. Ko’rsatmalilik.

I.G.Pestalosti boshlang’ich talim xususiy metodikasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, hisob, geografiya, o’lkashunoslik fanlaridan yelementar talim berish mazmunini asoslab berdi va bola tilini boyitish uchun geografiya, tibbiyot fanlarining ham uzviy ravishda olib borilishini tavsiya yetganyedi.

I.G.Pestalosti dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa qo’shib, o’z asarlari bilan o’ziga haykal yaratgan olimdir.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi K.D.Ushinskiy 1824 - yili Rossiyaning Tula shaxrida tug’ilgan. U «Bolalar dunyosi», «Ona tili», «Muallimlar uchun qo’llanma» asarlarini yozgan.

K.D.Ushinskiy chet yel maktablarida olib borilayotgan talim-tarbiyani o’rganib, o’zining «Pedagogik adabiyotning foydasi», «Boshlang’ich talim metodikasi», «Inson tarbiya predmeti sifatida» hamda «Ona so’zi» asarlariniyozdi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalalari bilan juda ko’p pedagog-olimlar shug’ullanganlar:

S.A.Veretenikova «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi» kitobida, har bir yosh guruhidagi bolalarni yil fasllariga qarab tabiat bilan tanishtirish metodini asoslab bergan.

P.G.Samorukova tahriri ostidaga «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish» o’quv qo’llanmasida tabiat bilan tanishtirish metodlari,

vositalari va usullari, ish shakllari, bolalar boG'chasi hovlisidagi tabiat burchagini tashkil yetish masalalari keng yoritilib berilgan.

M.M.Markovskaya «Bolalar bog'chasida tabiat burchagi» kitobida, tabiat burchagini tashkil etishning shart-sharoitlari, undagi xona o'simliklari, hayvonlar, tabiat burchagidagi mavsumiy ishlar, bolalarni tabiat burchagidagi hayvonlar bilan tanishtirish yollarini ko'rsatib bergan.

A.G.Grigoryans, U.B.Gafurovalarning «Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya» nomli qo'llanmalarida yekologik tarbiya berish metodlari, yollarini misollar orqali yoritib, shuningdek bolalarda oddiy izlanuvchanlik faoliyatini tarbiyalashning yo'llari haqida qimmatli maslahatlar berishgan.

Tayanch tushunchalar

Avesto, Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Beruniy, Bobur, Ya.A.Komenskiy, Pestaloststi, K.D.Ushinskiy, P.G.Samorukova, M.M.Markovskaya.

MAVZU BUYICHA SAVOLLAR :

1. Garbpedagolariningbolatarbiyasidatabiatningtutkano'rni haqidagi qanday ilmiy asarlari va fikrlarinibilasiz?
2. «Inson tarbiya predmeti sifatida» asarining muallifikim?
3. Enstiklopedik olimlarimizdan Abu Ali ibn Sino, Al-Forobiylarning tabiatga xos qanday asarlarinibilasiz?
4. Xadisi sharifda tabiatni asrash, hurmat kilishga tegishli katorlardan misol keltiring.

2-mavzu: Ko‘rgazmali metod.

MTMda bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli melodlardan foydalaniladi. Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo‘linadi: Ko‘rgazmali uslub — kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar; Amaliy uslub — o‘yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar; Og‘zaki uslub — tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish, subbat. Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. YUqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Bolalarga bilim berishda bilimlar mazmuniga ko‘ra metod va usullar tanlanadi. Masalan:Biror bir qush bilan tanishtirishda etakchi metod kuzatish hisoblanadi.Tabiat hodisalari bilan tanishtirishda esa etakchi metod og‘zaki metod hisoblanadi. Kuzatish uslubi. Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko‘rgazmali metod - kuzatishdan keng foydalanadi. Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga

yo‘nalgan va bevosita hodisalarni borishga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo‘lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib boorish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o‘stirishda g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Bu haqda K.D.Ushinskiyshunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, to‘g‘ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to‘g‘ri mantiqiy fikr
yuritish esa, biz ko‘rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi». Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma’lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.
Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo‘yicha qisqa muddatli vauzoqmuddatlibo‘lishi mumkin. O‘simlik va xayvonlarni o‘sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg‘arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi — *uzoq muddatlikuzatishlardan*
foydalaniladi. Bunda bolalarning ob’ektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashlariga to‘g‘ri keladi. Kuzatish narsalaring ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug‘orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda tabiat hodisalarini analiz qilish, ayrim ma’lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini hosil bo‘lishiga yordam beradi. *Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar* mazmuniga ko‘ra murakkab bo‘lganligi sababli, maktabgacha ta’lim, o‘rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra o‘simlik va xayvonlar, ob-havo hamda kattalarning tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek tabiat burchagidagi mashg‘ulotlarda tashkil etiladi. *Qisqa muddatli* kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, xarakterini farqlashni, xayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o‘rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg‘ir yog‘ishi, kamalakning hosil bo‘lishi kabi holatlar kiradi. Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalashi lozim.
Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish. Bu kuzatishlar o‘rtayosh

guruhlardan boshlab o‘tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina ob’ektni kuzatishdan ko‘ra ancha murakkabrokdir. Bu o‘rinda tarbiyachi o‘zdiqqat-e’tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtira olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha ko‘rsatmalariga aniq rioya qilishlari, bir-birlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o‘zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo‘ladi. Kuzatishning
bu usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib, o‘quv ko‘nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ularda aniqroq tasavuurlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarqatma material sifatida o‘simliklar hamda ularning bargi, mevasi,
urug‘i, shoxchalari, shuningdek, sabzavot va mevalardan keng foydalaniladi.
Rasmlarni ko‘rish, kinofilmlar va diafilmlarni namoyish qilish.
Ko‘rgazmali metodlar guruhiga b'olalar bilan birga rasmlarni ko‘rish, diapozitiv va kinofilmlarni namoyish qilish xam kiradi. Bu metodlardan foydalanish xilma-xil vazifalarni xal qilishga: tasavvurlarni aniqlash va konkretlashtirish, bilimlarni sistemalashtirish va umumlashtirish, estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi.
Rasmlarni ko‘rish. Rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq ko‘rish, diqqatni uzok, muddat shularga qaratish imkonini beradi, buni esa ko‘pincha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi hamda o‘zgaruvchanligi tufayli amalga oshirishning imkoni bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ko‘pgina hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas; masalan, yovvoyi xayvonlar, janubiy va shimoliy o‘lkalarning hayvonlari bilan bolalarni asosan rasmlar orqali tanishtirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘quv kinosining eng samarali turi syujetli kinolentalar **(«Stol qaerdan paydo bo‘ldi?», «Fillar haqida»)** va ocherkli kinolentalardir **(«Bir piyola sut», «Baliqchi hikoyasi»).** Diapozitivlar va diafilmlar («Yilning turli fasllarida o‘simliklar», «Tabiatni qo‘riqlash», «O‘rmon va unda yashovchilar», «Uy hayvonlari yilning turli fasllarida», «Quruqlikda va suv havzalarida
yashaydigan hayvonlar» va boshqalar) tasvirning statikligiga ko‘ra didaktik rasmlarga yaqin turadi. Ular xuddi rasmlar singari hodisalarni yirikroq ko‘rsatish imkonini beradi. Bu bolalarning diqqatini tasvirda uzok, muddat ushlab turishga yordam beradi. Kadrlar seriyasi hodisalarning o‘zgarishi va rivojlanishini ko‘rsatish imkonini yaratadi. Ulardan barcha yosh guruxlarida tabiatning u yoki bu hodisalari haqida boshlang‘ich tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek bu tasavvurlarni konkretlashtirish, kengaytirish va umumlashtirishda foydalaniladi. Syujetli diafilmlar, kinofilmlar va telefilmlar syujetining qiziqarliligi bilan bolalarda alohida qiziqish uygotadi.

3-mavzu: Og‘zaki metod.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o‘qishdan, suhbatdan foydalaniladi. Og‘zaki metodlardan foydalanish bir qator vazifalarni hal etadi. So‘z yordamida kuzatishlar va tabiatdagi mehnat jarayonida egallangan, bolalarga ma’lum bo‘lgan tabiat hodisalari va hayvonlar hamda o‘simliklar hayotiga tegishli faktlar haqidagi bilimlar konkretlashadi, to‘ldiriladi, aniqlanadi. Og‘zaki metodlar yo‘li bilan bolalar yangi hodisalar va tabiat predmetlari haqidagi bilimlarni egallaydilar (masalan, bahorgi suv toshqini, yovvoyi hayvonlarning o‘rmondagi hayot tarzi va shu kabilar). Bunday hollarda og‘zaki metodni ko‘rgazmali metod bilan qo‘shish, rasmlardan, diafilm va kinofilmlardan foydalanish zarur. So‘z tabiatda mavjud bo‘lgan aloqa va bog‘liqliklarni chuqurroq tushunishga, anglashga
yordam beradi.Tarbiyachininghikoyalari va ulargaqo‘yilgan talablar Suhbat uningturlari Badiiy adabiyot va unga qo‘yilgan talablar Ilmiyligi,bolalar yoshiga mos tabiatshunoslikka oid,jonliligi Kirish Yakuniy Tarbiyaviyligi, Hissiyotliligi,Jonli-obrazliSHunday qilib, og‘zaki metodlar bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Og‘zaki metodlar yordamida bolalarning tabiat haqidagi bilimlari sistemalashtiriladi va umumlashtiriladi, tabiatshunoslikka oid tushunchalari shakllantiriladi. Og‘zaki metodlardan foydalanishda tarbiyachi bolalarning nutqni tushunishga bo‘lgan qobiliyatlarini, uzoq muddatli xtiyoriy diqqatlarini va so‘z orqali berilayotgan mazmunga diqqatni qarata olishlarini,
shuningdek bolalarda muhokama, aniqlash, sistemalashtirish predmeti bo‘luvchi u yoki bu hodisa yoki fakt haqida yorqin tasavvurlarning bor- yo‘qligini e’tiborga oladi. Bu o‘rinda ham bolalarga bilimlarni anglash- larida yoki aniqlashlarida ko‘mak beruvchi ko‘rgazmalilikdan foydalanish mumkin va maqsadga muvofiqdir Tarbiyachining hikoyasi.Hikoyaning qimmati shu bilan aniqlanadi-ki
u ma’lum ta’limiy vazifani hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi hamda ma’lum yoshdagi gurux bolalariga mo‘ljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o‘qishga nisbatan afzalligi mana shundadir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutqini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi, og‘zaki tasvir asosida etarlicha jonli obrazlarni aktiv tasavvur qilishi, tarbiyachi hikoyasidagi voqea-hodisalarning bir-biriga bog‘liqligi hamda munosabatlarni aniqlash
hamda tushunishi, hikoya mazmunidagi yangilikni o‘zining avvalgi bilimi bilan qiyoslab ko‘rishi lozim. Bularning barchasi tarbiyachining tabiat haqidagi

hikoyasiga bo‘lgan talablarni belgilaydi. Hikoyada ma’lum qilinayotgan bilimlar ishonchlilik, ilmiylik talablariga javob berishi lozim. Tarbiyachi biror narsani bolalarga aytishdan oldin faktlarning to‘g‘riligini tekshiradi. Hikoya qiziqarli, yorqin dinamik syujetli, emotsional bo‘lishi lozim. Syujetsiz hikoyalar ortiqcha tasvirlashlar bolalarning e’tiborini jalb qilmaydi, esda qolmaydi Tilning jonliligi, obrazliligi va konkretliligi —
tarbiyachining hikoyasiga qo‘yiladigan mutlaq talabdir. Bunday hikoya faqat bola ongigagina emas, balki hissiyotiga ham ta’sir etadi, uni uzoq vaqt eslab qoladi. Biroq, jonlilik va obrazlilik quruq maqsad bo‘lib qolmay, balki hikoya mazmuniga bo‘ysunishi kerak. Qahramon nomidan aytiladigan hikoyalarni bolalar yaxshi idrok etadilar. Bolalarga turli maqsadlarda: ularga tanish bo‘lgan hodisalar, hayvonlar, o‘simliklar haqidagi bilimlarni kengaytirish maqsadida; yangi hodisalar, faktlar (kattalarning tabiatdagi mehnati; qushlarni qo‘riqlash va o‘rgatish, yovvoyi o‘simliklarni himoya qilish va shu kabilar) bilan tanishtirish maqsadida hikoya qilib berish mumkin. Bunday holdahikoya albatta illyustratsiya materiallari — foto suratlar, rasmlar, diafilmlar ko‘rsatish bilan qo‘shib olib boriladi. Ko‘rgazmaliliksiz hikoyaga bolalarning qiziqishi susayadi hamda u bolalar tomonidan yaxshiidrok etilmaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun hikoyaning davomiyligi 10—15 minutdan oshmasligi kerak. Hikoya uchun tarbiyachi xilmaxil material: tabiatga oid shaxsiy kuzatishlari, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi
ocherklar, naturalistlarning yozuvlari va hikoyalari, ilmiy materiallardan foydalanadi. Suhbat.Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga — oldindan o‘tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlargabo‘linadi. Oldindan o‘tkaziladigan suhbatlarni tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyalardan oldin qo‘llaydi. Bunday suhbatning maqsadi — bo‘lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish maqsadida bolalarning bilimini aniqlashdir.

Amaliy topshiriq !

O‘zbek hamda chet el yozuvchi adabiyotshunoslarini tabiatga oid ertak,hikoya,she’rlarini to‘plash.

Nazoratsavollari.

1.Metodnima?
2.Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qanday metod vausullar qo‘llaniladi?
3.Ko‘rgazmali uslubga tasnif bering?
4.Og‘zaki metodning qanday usullaribor?
5.Tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning roli?
6.Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qaysi prinsipga tayaniladi?

4-bosqich
Darsni
mustaxkamlash.

Mavzuni “Issiq kartoshka” metodi asosida mustahkamlash.



5-mavzu: Ekskursiya, sayr va ularning turlari.

Darsning maqsadi: Talabalarni Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi va nazariyasini rivojlanish jarayoelari hada bu jaarayonga hissa qo’shgan fan fidioiylari bilan tanishtirish.

Darsning jihozi: Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasiga doir adabiyotlar, fan fidoiylarining suratlari, yaratgan asarlarining namunalari va ular hakida internetma’lumotlari.

Mashg’ulot rejasi:

1. O’zbekistonda ta’lim to’g’risidagi qabul qilingan qonun vadasturlar.
2. Tabiatshunoslik nazariyasiga asos solgan O’rta Osiyolikallomalar.
3. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining rivojlanishtizimi

Ekskursiya darsi. Bu o’qitishning eng yuqori ko’rgazmalilikka va tarbiyachilarning ijodiy mustaqilligiga asoslangan maxsus shaklidir. Dasturning deyarli har bir mavzusi bo’yicha ekskursiyalar mo’ljallangan. Ammo O’zbekistonning tabiiy sharoiti ular sonini ancha ko’paytirishga imkon beradi.

Ekskursiya o’quv-tarbiya ishlarining juda murakkab va qiyin shakli hamda bilimlarni bayon qilishning xilma-xil metodlarini nazarda tutuvchi eng samarali o’qitish shakllaridan biridir. Ekskursiyalarning kalendar rejasi o’quv yilining boshida bir yil uchun choraklar bo’yicha mahalliy sharoitni hisobga olgan holda tuziladi, har bir ekskursiya puxta tayyorgarlikni talab qiladi va odatda quyidagi bosqichlardan tashkiltopadi:

Ekskursiyalarning kalendar rejasini tuzish;

aniq o’quv-tarbiya vazifalarini belgilash;

ob‘ekt tanlash va u bilan taxminiy tanishish;

kengaytirilgan ish rejasini tuzish;

Ekskursovodni yoki korxona xodimlarini tarbiyachilar bilan suhbat o’tkazishga tayyorlash, ularni ekskursiyaning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;

tarbiyachilarni oldindan tayyorlash (Ekskursiyaning umumiy vazifalarini qo’yish, topshiriq va vazifalarni taqsimlash, ekskursiyadagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirish, anjom-aslaha va jihozlarni tayyorlash);

kuzatish imkoniyatlarini hisobga olib, eng maqsadga muvofiq yunalish tanlash;

Ekskursiya o’tkazish uchun yordamchilarni tayyorlash.

Ekskursiya vaqtida tarbiyachilar ekskursiya joyigacha quyidagi ishlarni bajaradilar:

Ekskursiyavaqtida tarbiyachilar ekskursiya joyigacha yul-yulakay kuzatishlar o’tkazib boradilar.

Butun ekskursiya davomida o’qituvchi tushuntirib boradi.

Ekskursiyajoyida tarbiyachilar odamlar va mashinalarning ishini yoki tabiat ob‘ektlari va hodisalarinikuzatadilar.

Ishchi va muhandislar bilan suhbatlashadilar.

Tabiiy material yig’adilar va oldindan tayyorlab qo’yilgan papka, quticha, bankalarga soladilar.

O’lchov ishlarini (daryoda, tuproq kesmasida, tepalikda) olib boradilar;

Kompas bo’yicha yo’nalishlarni aniqlaydilar.

Rasm chizadilar, xulosalar chiqaradilar va umumlashtiradilar.

Kuzatayotgan ob‘ektda baholi-qudrat ijtimoiy foydali mehnat qiladilar.

Ekskursiya vaqtida to’plangan material darsda, uyda yoki darsdan tashqari vaqtda maktabda ishlanadi (tartibga keltiriladi). Ulardan gerbariy va kollektsiyalar tayyorlanadi, ular tarqatma material bo’lib xizmat qiladi yoki ko’rgazmali qurol sifatida foydalaniladi. SHu maqsadda, shuningdek rasmlar, albomlar, har xil yasalgan narsalardan hamfoydalaniladi.

Ekskursiyada to’plangan materialdan faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika, ona tili, mehnat va rasm darslarida ham foydalanish kerak. CHunonchi, 1 guruhda savodga o’qitishning alifbe davrida tarbiyachilar bilan «Kuz» mavzusi bo’yicha ikkita ekskursiya o’tkaziladi, ekskursiyalar vaqtida tarbiyachilar o’rmonda yoki parkda erta va kech kuz davrida o’simliklar hayotidagi o’zgarishlar bilan tanishadilar. Bolalar qushlarning uchib ketishini kuzatadilar, mehnat darslari uchun tabiiy material yig’adilar. Qish va bahorda tarbiyachilarning o’simliklar hayotidagi yil fasllariga qarab farqlarni ko’rishlari uchun kelgusi ekskursiyalar o’sha ob‘ektlarda o’tkaziladi. 2 guruhda «Tabiatdagi mavsumiy o’zgarishlar» mavzusi bilan bog’liq holda ekskursiyalar o’tkaziladi, ularda o’qituvchi bolalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, tabiat to’g’risida aniq tushunchalarnishakllantiradi.

Tabiatshunoslik sohasidagi bilim doiralarini doimo kengaytirib borish lozim. CHunonchi, 1 guruhda bolalar ekskursiyalarda 3—4 o’simlik bilan tanishadilar va ularni yil davomida kuzatib boradilar. 2 guruhda yana 3—4 o’simlik turi qo’shiladi, 3 guruhda bahorning oxiriga kelib, ular 6—8 o’simlik (daraxt, buta va o’t o’simliklari) turlarini taniy va ta‘riflay olishlari, 4-sinfda esa 8—10 turni yaxshi bilib olishlarikerak.

Ekskursiya — tarbiyachilarni tabiat hodisalarining yoki tabiat va mehnat aloqalarini aks ettiruvchi faktlar bilan tanishtirish uchun zarur bo’lgan noyob bilim manbaidir. Misol sifatida eng ko’p tarqalgan suv o’simliklari va hayvonlari bilan tanishish maqsadida suv havzasiga o’tkaziladigan ekskursiya rejasini keltiramiz (3 guruh):

ilgari tabiatga (parkka, xiyobonga) o’tkazilgan ekskursiya mazmuni bo’yicha suhbat;

yangi mavzu bo’yicha (suv havzasining mavjudotlari to’g’risida) kirish suhbati;

o’simliklarni kuzatish;

hayvonlarni kuzatish;

yaqinda joylashgan suv havzasidagi o’simlik va hayvonlarning tashqi tuzilishini qarab chiqish;

Ekskursiya materialini yig’ish;

umumlashtiruvchi suhbat;

uyga vazifa berish (jadval).

Ekskursiya jarayonida o'qituvchi tarbiyachilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi, bunda og'zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish), ko'rgazmali (suhbat jarayonida kuzatish) va amaliy (tarbiyachilarning amaliy ishlariga rahbarlik qilish) metodlardan foydalanadi. Ekskursiya jarayonida tarbiyachilar faqat kuzatibgina qolmasdan, balki o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida yangi ma'lumotlar olishlari va ularni amalda foydalana bilishlari kerak. Olgan bilimlarning natijalarini tarbiyachilar so'zlab bera olishlarilozim.

7-mavzu: Turli yosh guruh bolalarida ekologik tarbiyaberishga oid mashg'ulotlarishlanmasi.

Darsning maqsadlari:

a)**Ta'limiy:** Tinglovchilarga umumiy ekologiya haqidatushuncha berish. Ekologiya fanining asoschilari va ta'lim-tarbiyada tutgan o'rni, umumiy ekologiyaning vazifalari, hozirgi zamon ekologiyasining sohalari hamda MTMda va oilada bolalarga ekologik tarbiya berish. Ekologiyani muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlar haqidama'lumot.

b)**Tarbiyaviy:** Tinglovchilarda tevarak-atrofni ozoda saqlash hamda muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini kengaytirish.Ekologik muammolarga topg'ri munosabatda bo'lish malakalarini tarbiyalash va dars davomida o'zaro hurmatni tarbiyalash.

c)Rivojlantiruvchi: Tinglovchilarni olgan bilimlari asosida amaliyotda qo'llay bilishni, qo'shimcha ekologiyaga oid bo'lgan ma'lumotlarni top'lay olish malakalarini rivojlantirish**.**

Darsdan kutilayotgan natijalar:

Tinglovchi**lar:** Tinglovchilar umumiy ekologiya haqida tushuncha oladilar. Ekologiyani turli sohalarda ham uchratishmiz mumkinligi va har bir sohaning o'z vazifasi borligi topg'risida umumiy ma'lumotga ega bo`ladilar. Tinglovchilar MTMda bolalarga ekologik tarbiyani berish yo'llarini tushunib oladilar.

Ta'lim metodlari: Og'zaki, savol-javob,suhbat, "O'rgimchak topri" metodi, "BBB metodi",bahs- munoza. "Aqliy hujum" metodi.

Baholash metodlari:O`qituvchi bajarilgan ishlarni baholaydi va umumlashtiradi. Faol tinglovchilarni rag'batlan tiradi. Dars bo`yicha tinglovchi larni fikr va mulohazalarini tinglaydi. **Axborot manbaalari va texnik vositalari:** Jamoa, guruh va juftlikda ishlash, 'roektor, kom'yuter bilan jihozlanganauditoriy.

Dars turi: 2 saot amaliy

Darsga ajratiljan vaqt miqdori:80 minut.

Uyga vazifa:

O.Hasanboyeva,H.Jabborova,
Z.Nodirova"Tabiat bilan tanishtirish metodikasi"T-2006,5-7-bet-lar.

I.Xolliyev,A.Ikromov”Ekologiya” T-2001.20-30-betlar. Ma`ruzani kengroq yoritib kelish. Ekologiya sohalarini bir-biridan farqlashga o’rganib kelish.Ekologiyaga oid rasmlardan na’munalar keltirish.

Yangi mavzuni “O`rgimchak to`ri” metodi asosida mustaxkamlash

Ko’rgazmalardan va metodlardan foydalanib bilim ko’nikma malakalarni shakllantirish. Tinglovchilarni javoblarini tinglash va tahlil qilish.

1. Ekologiya so`zi qaysi so`zdanolingan?
2. Ekologiya faniga birinchi bo`lib kim asossolgan?
3. Ekologiya fani nechanchi yilda fan sifatidatanildi?
4. Nechanchi asrda ekologiya mustaqil fan sifatidashakllandi?
5. Ekologiya fanining vazifalari va sohalari haqida ma`lumotbering?

Mavzuni“O`rgimchakto`ri”metodiasosidamustahkamlash.



8-mavzu: Turli yosh guruhlarda tabiat bilan tanishtirishmashg‘ulotlarini kuzatish va tahlilqilish.

Kichik guruh

Qong`iz va kapalaklarni kuzatish

Mashg’ulotning maqsadi: Bolalarga ka’alaklarni qo`ng`izlardan farqlash, hasharotlarning o`ziga xos xususiyatlarini ko`ra bilishnio`rgatish, ka’alaklarning

qanotlari chiroyli, katta mo`ylovli, xartumchasi bor, ka'alak o`rmalaydi, uchadi. Qo`ng`izning qanotlari qattiq, qo`ng`izlar uchadi, g`o`ng`illaydi, xartumchasi chiroyli, nozik uchadi so`zlarini qo`llanishini faollashtirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni, kuzatishga qiziqishni tarbiyalash.

**Mashg`ulotni tayyorgarlik**: Stollar surib qo`yiladi va ustiga rangli qog`oz solinib, atrofiga bolalar o`tqaziladi. Qo`ng`iz va ka'alaklar (2-3 tadan) daraxt shoxchalari, gulli o`simliklari bo`lgan 2 ta bankaga solinadi.

**Mashg`ulotning borishi.** Tarbiyachi dastlab bankadan qo`ng`izli shoxchani olib stolga qo`yadi, "Bu nima?" – deb so`raydi. Hasharotni bundan keyingi kuzatish uning harakat qilishi bilan bog`lanadi. Qo`ng`iz o`rmalaganda tarbiyachi "Qo`ng`iz nima qilaya'ti?", "Kim tomonga o`rmalaya'ti?" – deb so`raydi. U quyi qanotini chiqarganda bolalarga ko`rsatib: "Bu nima?" – deb so`raydi. Qanday uchayotganiga quloq solishni taklif qiladi. Shundan so`ng, yana bir qo`ng`izni bankadan chiqarish lozim. Bunda "Qo`ng`iz qanaqa?", "Bunday qo`ng`izni qayerda ko`rgansizlar" – deb so`raydi.

Bankadan ka'alak olinadi. Tarbiyachi bolalarga ka'alakni ushlab bo`lmasligini, uning qanoti nozikligini, yirtilib ketishi mumkinligini tushuntiradi. Gulni ka'alagi bilan stolga qo`yadi. So`ngra, "Bu nima?", "U nima qilaya'ti?", "Qanotining rangi qanaqa?", "Ular qanday?" – deb so`raydi. Ka'alak yurganda "U nima qilaya'ti?" – deb yana so`raladi. U uchganda "U qanday uchya'ti?" – deb so`raladi. Qanotini qanday qoqishi ko`rsatiladi.

Yana qo`ng`iz olinadi va "Bu nima?", "Qo`ng`izmi yoki ka'alakmi?" – deb so`raladi**. Mashg`ulotni yakunlash:** o`yin orqali – bolalarga qo`ng`iz yoki ka'alak bo`lib uchishni taklif etish bilan tugatish mumkin.

"Bu qanday hayvon" didaktik o`yini

O'yinning mazmuni. Uy hayvonlarini tovushiga qarab tanishga o`rgatish.

Kerakli jihozlar. Uy hayvonlari tasvirlangan rasmlar.

**O`yinning borishi**. Tarbiyachi bolalarga tanish bo`lgan uy hayvonlari tasvirlangan (mushuk, kuchuk, echki, qo`y, tovuq, ot, sigir) rasmlarini tarqatib chiqadi. Shundan keyin, u bironta hayvonning ovoziga taqlid qilib ovoz chiqaradi, bolalar o`sha rasmni ko`rsatadi.

**O`yinning ikkinchi** variantida tarbiyachi qaysi rasmni ko`rsatsa, bolalar o`sha hayvonning nomini aytadilar va tovushuga taqlid qiladilar.

"Bu qachon bo`ladi" didaktik o`yini

O'yinning mazmuni. Yil fasllarining o`ziga xos belgilari to`grisidagi tasavvurlarini mustahkamlash.

Kerakli jihozlar. Qog`ozdan qirqilgan dumaloq shakl to`rtga bo`linadi, har bir qismida yilning bitta fasli aks ettirilgan bo`ladi.

**O`yinning borishi**. Chaqirilgan bola tarbiyachining iltimosiga ko`rarasmga

qarab faslning tartibini, o`ziga hos xususiyatlarini so`zlab beradi. Shu tariqa o`yin to`rtta fasl asosida davom ettiriladi.

O`rta guruh

BOQQA MAQSADLI EKSKURSIYA

Bu sayr oltin kuzda bog'ning mevali va manzarali daraxtlar o'sadigan, ochiq, quyoshli kuz belgilari sezilib turadigan kunda o'tkaziladi.

Ekskursiyadan maqsad. Bolalarni kuzning xarakterli belgilari bilan tanishtirish. Bolalarga mevali va manzarali daraxtlar topg'risida tushuncha berish. Bolalarga mevali va manzarali daraxtlarning nomini aytish, mevali daraxtlarni manzarali ***daraxt***dan farq qilishga o'rgatish hasharotlar va qushlar hayoti haqidagi bilimlarini aniqlash bolalarga kuz'nng bslgilarini bildiruvchi so'zlardan foydalanishni o'rgatish kuzatishlarga qiziqsh'ni, tabiat go'zalligidan zavklanish qobiliyatiii tarbmyalat.

Ekskursiyaga tayyorlanish. Bolalarga bugun ular kuzda bog' qanday bo'lgani, ***u erda qantan*** daraxtlar o'sishini bilib olishlari, daraxtlarshshg mevalari va barglarini terishlari ***aytiladi. Barg u***rug'larni solish uchun qog'oz xaltachalar tayerlab ko'yiladi.

Ekskursiyaning borishi. Boqqa kirish bilan tarbiyachi ***A.*** Bartoning quyidagi she'rinio'qiydi:

Barg topkilib, topkilib,
Tushar g'amgin, shitirlab
Erni bezab qo'lagan,
Sariq, yashil, qizil rang.

Bolalar diqqatini mevali va manzarali daraxtlarning kuzgi go'zal bezagiga jalb qilinadi, ulardan zavqlanish lozim. Tarbiyachi bolalarga o'zlariga tanish mevali daraxtlar — olma, nok, behi, olcha, gilos, olxo'ri, anjir, o'rik va manzaralidaraxtlar — chinor, archa, terak, tolni topishni taklif etadi. Bolalar barglarni teradilar, ularni sinchiklab ko'radilar, uning rangi, shakli, katta-kichikligini aytadilar. So'ngra hammalari nok daraxtlariiing oldiga keladilar. Tarbiyachi bolalarni daraxtni tanish, nok daraxtining o'ziga xos belgilarini aytadi. Bolalar olma barglarini topib, uni shaftoli bargi bilan solishtiradilar, ularning shakli va ranginianiqlaydilar.

Tarbiyachi bolalardan bog'da yana qanday mevali va manzarali daraxtlar borligini so'raydi.

Bolalar biroz tinch turib, bog'dagi tovushlarga quloq solishlarini taklif etadi: «Nima eshitilaya'ti?», «Qushlar sayraya'timi?». Uchib o'tayotgan qushlarning nomi aytiladi. Barglar tagidan yashirinib olgan qo'ng'izlarni, ka'alaklarni axtarish mumkin.

Ekskursiya oxirida bog' go'zalligidan yana bir zavqlanib, kuz haqidagi quyidagi she'rdan 'archa o'qsh' mum*kin.*

KUZ

Kirib keldi oltin kuz, Gullar jilosi so'ndi.

Yap-yalang'och butalar, Gamgin boqadi endi.

Bolalarning o'simliklar topg'risidagi tasavvur va tungi didaktik o'yinlar orqali mustahkaullit mumkin:

«SHUNDAY DARAXTNI TOP» DIDAKTIK O'YINI

O` y i n n i n g m a q s a d i . Daraxtlarning barglarini farqlashga o'rgatish.

K e r a k l i m a t e r i a l l a r . Bolalarga tash'i bulgan uchta mevali, uchta manzarali daraxtn'ng bargi beriladn.

O` y i n n i n g b o r i sh i. Tarbiyachi bolalarga ta'it bo'lgai daraxtniig bargini ko'rsatib so'raydi, bu barg qaysi daraxtdan uzilgan. Bolalar o'sha daraxtning oldiga borib ko'rsatishlari kerak. Uyin shu tariqa bolalar hamma tanish daraxtlarni ko'rsatib bo'lgunlaricha davom etadi, keyin tarbiyachi bargni ko'rsatmay biron daraxtning nomini og'zaki aytadi, bolalar o'sha daraxtning oldiga cho'ib borishlari kerak.

Xuddi shu o'yinni xonada quyidagicha variantda o'tkazish mumkin. Tarbiyachi hamma bolalarga tanish daraxtlarning rasmi, o'sha daraxtlarning mevasi tasvirlangan kartochkalarni tarqatadi. Tarbiyachi qaysi mevani ko'rsatsa, bolalar oldilaridagi meva tasviri tushirilgan kartochkani o'sha daraxt shoxiga ilib qo'nishlarikerak.

Bunday didaktik o'yinning topishmoqli varianti bolalarda yaxshi qiziqish uyg'otadi.

Masalan, tarbiyachi quyidagi topishmoqni aytadi:

Bodom kabi ya'rog'i, Sollonadi butog'i,

Uzi shirin, tukligina, Mazasi totligina.

(Shaftoli)

Malla topni sa'-sariq, Murobbosi mazali.

'alovga bossa bo'lar, 'odvolga ossa bo'lar.

(Behi)

Mayda, yoqutday qizil, Shirii, nordon, xilma-xil.

Qalin, taxir 'o'sti bor, Hamma erda do'sti bor.

(Anor)

Bolalar mana shu o'simliklarning tasvirini yoki bargini ko'rsatishlari kerak va h. k. Xuddi shu o'yinni sabzavotlar bilan ham o'tkazish mumkin. Masalan:

'ak-'akana bo'yi bor, Qavat-qavat topni bor.

(piyoz)

Qat-qat topnli, Qarich bo'yli.

(Karam)

Er tagida oltin qoziq,U hammaga bo'lar oziq.

(Sabzi)

Bir barmoqcha bo'yi bor,Qizil baxmal topni bor

(Garmdori)

Bolalarning mevalar topg'risidagi tasavvur va tushunchalarini mustahkamlash uchun sabzavot magaziniga ekskursiya uyushtirish mumkin. Ikkinchi galda ekskursiya yaqinroqda joylashgan bozorga uyushtiriladi.

K o ' z l a n g a n m a q s a d . Bolalarni kuz faslida o'lkamizda'ishadigan mevalar, sabzavotlar bilan tanishtirish. Saxovatli ona o'lkamizda turli-tuman mevalar etilishi, ularning o'sib rivojlanib, mo'l hosil berishida mehnatkash dehqon, bobolarimizning xizmati kattaligi haqida bilim berish. Bolalarda oia o'lka tabiatidan g'ururlanish hissini uyg'otish, uni o'stirgan bog'bon va dehqonlarga nisbatan hurmat va muhabbatni tarbiyalash. Mashg'ulotlardan birida sabzavotlarni, ikkinchisida, mevalarni ko'rib chiqish maqsadgamuvofiqdir.

M a s h g ' u l o t d a n maqsad. Mevalarning tashqn ko'rinishi haqidagi tasavvurlarini aniqlash, meva tushunchasini aniqlashtirish ular bog'larda o'stirilishini, bog'bonlar o'stirishini aytish. Bolalarni tekshirib ko'rishga mashq qildirish solishtirish ko'nikmasini takomillashtirish mevalarning nomini, aniq belgilarini bolalar lug'atiga kiritish. Ona tabiatimizdan g'ururlanish hissini uyg'otish. Ustirgan dehqonlarga nisbatan hurmat, muhabbatnitarbiyalash.

M a s h g ' u l o t n i t a s h k i l e t i s h . Bolalar stollar atrofida o'tiradilar. Mevalardan behi, olma, anor, nok katta lagan yoki savatchaga solingan, ta'mini bilish uchun alohida tarelkada bo'laklarga bo'lib qo'- yilgan mevalar tayyorlab qo'yiladi.

M a s h g ' u l o t n i t a s h k i l e t i s h . Bolalar bilan birgalikda kolxoz bog'ida, bozorda qanday mevalar ko'rilgani, ularni kimlar etishtirgani eslatiladi. Tarbiyachi bolalarga navbati bilan stol ustidagi **idish**da turgan **mevalar** nomini aytishni taklif etadi. «Nokni qo'lingizga olib ko'rsating», «Uni nima uchun nok deb atadingiz?» Qaerda o'sadi? Boshqa mevalarni ko'rishda ham **xuddii** shu topshiriq takrorlanadi. So'ngra, ikkita mevany bir-biridan farqi, shakli, rangi, katta-kichikligi, ustky ko'rinishi aniqlanadi. Bu farqlarni **aniqlashda** bolalar mevalarni ushlab, silab, hidlab, **dumalatib,** bir-birini oldiga yaqinlashtirib ko'rish kabi usullardan foydalanadilar. Shundan so'ng, mevalarning farqlanishi haqidagi xulosa chiqariladi, tarbiyachi bolalardan ular bozorda yoki boshqa joyda yana qanday mevalarni ko'rganlarini, ularning nomini so'raydi. **Ularni** nima uchun meva deb atalishini so'raydi. Mashg'ulot oxirida bolalar mevalar bilan mehmon qilinadi. **Xuddi** shunday mashg'ulot boshqa mevalar hamda sabzavotlar bilan ham o'tkazilishi mumkin.

9-mavzu: “Ilk qadam”dasturida turli yosh guruh bolalarini tabiat bilantanishtirish.

Reja:

1. Dasturning mazmuni
2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda dasturningvazifalari
3. Bolalarni tabiat haqida sifatlarini rivojlantirishda “DASTUR”ningmaqsadi
4. Dasturga qarab mashg’ulaotlarni rejalashtirish

1) Dastur bolalarga ta’lim-tarbiya berish vazifalarini mazmunini shakllantirish uslublarini va ‘edagogika fani taraqqiyoti ustuvor yo’nalishlarini o’z ichiga oladi. Dastur maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasida quidagi dastur talablariga asoslanib tuzilgan bo’lib, unda bolaning rivojlanishi, ruhiyati, ta’lim-tarbiyasidagi davrlari, davrlariga monand o’zgarishlar, muommolar haqida hikoya qiladi. Ushbu dastur nafaqat tarbiyachi uchun balki oila va ota-onalar uchun ham eng yaqin maslahatchi bo’libhisoblanadi.

Dastur mazmun mohiyati bilan bolalar ‘sixalogik komol topish tamoyillariga kelib chiqib, ularning atrof olamdagi voqea hodisalar narsalarga munosabati hamda turli sohalar bilan aloqa qilishlarini nazarda tutadi.

Dasturning mazmuni quidagi tamoyillarga tayanadi:

- Maktabgacha ta’limning davlat va jamiyat talablarigamosligi;
- Bolalar shaxsigayo’naltirilganligi;
- Bolalarni sog’lomlashtirishga qaratilganligi;
- Maktabgacha ta’limda o’yin faoliyatiningyetakchiligi;
- Maktabgacha ta’limning inson’arvarligi;
- Maktabgacha ta’lim ijtimoiy ta’lim bilanmosligi;
- Maktabgacha ta’limning oila va boshlang’ich ta’lim bilanuzviyligi.

Bu meyoriy hujjatlar:

“Ta’lim topg’risidagi qonuni”, “kadrlar tayyorlash milliy dastur”ining hamda “Sog’lom avlod” uchun dasturini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Hujjatlar Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga jismoniy, ijtimoiy, hissiy, nutq, o’qish va savodga tayyorgarligi hamda bilish jarayoni, atrof olam topg’risidagi bilimlariga ega bo’lishlariga, anglashlariga va maktabga tayyorlashlari uchun asosiy qo’llanma hisoblanadi.

2) Hozirgi vaqtda bizni o’rab turgan tabiat insonning turli-tuman munosabatlaridankelibchiqadi.Ko’’yilliktajribalarshuniko’rsatadiki,tabiat

haqidagi bilimlarini yo'qligi inson va tabiat munosabatlariga e'tiborsizlik oqibatida davlatimiz moddiy zarar ko'rgan. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda dasturning eng asosiy vazifalaridan biri tabiatni sevish, e'zozlash va avaylab asrashdan iborat.

Dasturning vazifalari. Jismoniy, aqliy, hamda ijtimoiy, hissiy jihatdan kamol topdirish va ularning sog'lig'ini muhofaza qilish, bolalarning erkin fikrlash ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish, ahloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlarini yaratishdan iboratdir. Shundan kelib chiqqan holda atrof-muhitni va muomala madaniyatini shakllantirish tushunchalari quidagilarni o'z ichigaoladi.

- Tabiatni muhofaza qilishni, amaliyotga tatbiq qilishnio'rganish;
- Tabiatga shikast yetkazmaslik;
- Atrof-muhitni muhofaza qilishda tashabbuskorlikniuyg'otish.

3) **"Bolajon" tayanch dasturining maqsadi.** "Maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ning bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan yetuk, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadryatlarimizni qadrlaydigan, shuningdek, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tarbiyalashdaniboratdir.

MTMda dasturni amalga oshirishda har bir bolalarga quidagi sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yish lozim:

- ijodkorlik, tasavvur,zukkolik;
- mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish;
- muommolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarinitop'ish;
- jamiyat, mamlakatlar, atrof-muhit muommolariga befarqqaramaslik.

Gul o’simliklarining ekishning eng ko’p tarqalgan shakli klumba, rabotka va gazonlardir. Gulzorni bezashda manzarali o’simliklarni to’gri tanlash muximdir. O’simliklarning yorug’ va namga bo’lgan talabini e’tiborga olish kerak. O’simliklarni tanlaganda erta baxordan to kech kuzgacha gul ochilib turishi nazarda tutilishi lozim. Erga baxorda ochilgan gulga ega bo’lish chunki ko’zda yerga piyozli o’simliklar — lola. chuchmoma ekiladi yoki iyul oyida kapalakgul, dastagullar ekilib, erga baxorda ular doimiy joylariga kuchirib o’tkaziladi. Gulzorni bezashda chiroyli gullarni butazor va o’tsimon manzarali o’simliklardan foydalanish mumkin. Ochiq yerda yashash davomiyligiga ko’ra o’simliklar ko’p yillik, 2 yillik, 1 yilliklarga bo’linadi. Uning xayoti tuproq ostidagi organlarida; piyoz, tutunak ildizpoya,ildizidasaqlanadi.qisho’simliklarbaxordatezo’sadi.Ertabaxordava

kuzda gullaydi. Ko’p yillik simliklarga aloxida e’tibor berish lozim. Ikki yillik gulli usimliklarga ko’pincha urug’ sepilgandan so’ng 2 yiliga gullaydigan o’simliklar kiritiladi. Bu o’simliklar yozning birinchi yarmida ochiladi.

Gulxonada bir vegativ dazrda foydalaniladigan ngullarni bir yillik yoki yozgi usimlnklar deyilali. Yezgi usimliklar ekilgan yili ochiladi, urug’ beriladi va xalok buladi. Ularning guli chiroyli bo’lib, yozning ikkinchi yarmida kiygos bo’lib ochiladi.

Maydoncha MTM bolalari uchun yil mavsumi va fasllarning o’zgarishini kuzatadigan qulay jolar. Tarbiyachi bolalarni maydonchaga olib chiqib. tabiatda bo’ladigan o’zgarishlar, uning sabablari, qishlab qoluvchi va uchib keluvchi qushlar bilan tanishtiradi. Bir siz bilan aytganda. MTM maydonchasi bolalarning har tomonlama rivojlanishida jonli va jonsiz gabiat bilan tanishishida. uz ona - Vatanini sevishda uni muxofaza qilish. O’simlik va hayvonlarni va Ko’paytirishda ta’lim - tarbiya oladigan ilk maskan xisoblanadi.

23- mavzu: Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini o‘tkazishgaoid ish xujjatlarini tahlilqilish.

Darsning maqsadlari:

a) **Ta’limiy:** Tinglovchilarda “Dastur” haqidagi umumiy tushunchalarini mustahkamlash va hozirgi zamon talabi asosida “Bolajon” dasturida ko`rsatilgan mashg`ulotlarning ta’lim tarbiyaviy ahamiyati topg’risida bilimlarini kengaytirish. Dastur asosida har-bir yosh guruhda mashg`ulotlarning mavzularini reja asosida tashkil eta olishni o`rgatish. Rejalashtirilgan mashg`ulotlar uchun ko`rgazmali qurollarni to`g`ri tanlay bilishgao`rgatish.

b) **Tarbiyaviy:** O’quvchilarda fanga bo`lgan qiziqishlarini oshirish, fan asosida yangiliklar bilan tanishtirib borishni hamda bolalarda fanga bo`lgan qiziqishlarini uyg`ata olish malakalarini tarbiyalash. “Bolajon” tayanch dasturdagi mavzular asosida rejalashtirilgan mashg`ulotlarda bolalarda o`zaro hurmat hamda mashg`ulot vaqtida bir birlariga halaqit qilmaslik malakalarinitarbiyalash.

c) Rivojlantiruvchi: O’quvchilarni olgan bilimlari asosida amaliyotda qo’llay bilishni, tashkil etilgan mashg`ulotlarda “Mavzular asosida” bolalarga kengroq ma’lumotlarlar bera olishni, hamda dastur asosida har bir yosh guruhda mashg’ulotlarning mavzularini topg’ri tashkil eta olish malakalarinirivojlantirish**.**

Darsdan kutilayotgan natijalar:

O'quvchilar: Tinglovchilarda "Dastur" haqidagi umumiy tushunchalari mustahkamlanadi va hozirgi zamon talabi asosida "Bolajon" dasturida ko`rsatilgan mashg`ulotlarning ta'lim tarbiyaviy ahamiyati topg'risidagi bilimlari kengayadi. Dastur asosida har-bir yosh guruhda mashg`ulotlarning mavzularini reja asosida tashkil eta olishni o`rganadilar. Rejalashtirilgan mashg`ulotlar uchun ko`rgazmali qurollarni to`g`ri tanlay bilishga o`rganadilar.

Ta'lim metodlari: Og'zaki, savol-javob, suhbat, "O'rgimchak topri" metodi,amaliy ko'rgazmali qurollar, bahs- munoza.

Baholash metodlari:O`qituvchi bajarilgan ishlarni baholaydi va umumlashtiradi. Faol tinglovchilarni rag'batlan tiradi. Dars bo`yicha tinglovchi larni fikr va mulohazalarinitinglaydi. **Axborot manbaalari va texnik vositalari:** Jamoa, guruh va juftlikda ishlash, 'roektor, kom'yuter bilan jihozlanganauditoriy.

Dars turi:2 saot: 2-amaliy

Darsga ajratiljan vaqt miqdori:80minut.

Uyga vazifa:

"Bolajon" tayanch dasturi Toshkent 2016 yil. Maruzani kengroq yoritib kelish. 152-227 betlardan guruhlar bo`yicha mashg`ulotlarga oid mavzularning nomlarini yozib kelish.

Mashg'ulot nomi: Ekologik tarbiya

Mavzu: Biz kuchat ekamiz

Maqsad: Bolalarga ekologik tarbiya asoslarini singdirish, tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga urgatish xamda usimlik va xayvonot dunyosiga nisbatane mexr uygotish. Jonli va jonsiz tabiat inson uchun zarurligi xakida kunikma xosil kilish. Uni muxofoza kilish mexnat kunikmasinitarbiyalash.

Kerakli materiallar: Rasmlar, ok qog'oz, ko'chatlar, qalamlar. Mashg'ulot borishi Tarbiyachi: Bolalar bugungi mashgulotimizda tabiat va uni asrab-avaylash xak;ida suxbatlashamiz.

Tabiat bu nima? Tabiat bu atrofimizni urab turgan yam-yashil usimliklar, daraxtlar, kushlardir. Bu demakki, tabiatni asrab-avaylash xar bir insonning kolaversa biz bolajaonlarning xam burchimizdir. Uning kichkina chumolisidan tortib (kattalarini xam extiyot kilish) kichkina giyoxini xam asrashimiz lozim.

Mashg'ulotimizda daraxtlarni parvarish kilish va ularni asrab avaylash xakida suxbatlashamiz. Suxbatimizni boshlashda men sizlarga bir bola xavdsa xikoya suzlab beraman.

Baxor kunlarining birida Anvar degan bola oyisi olib bergan yangi kuylak, shimni kiyib olib kuchaga uynagani chщibdi. Anvar uz urtoklari oldiga kelayotgan

ekan. Eshik oldidagi urik daraxtida bir chumchuk chirk;illab sayyorayotganini eshitib kolibdi. Karasa ona chumchuk bolasiga ovkat berayotgan ekan.

Anvar uylab utirmay daraxtga osilib, unga chika boshlabdi. U chumchuk bolasini olib urtoklariga kursatmokchi bulibdi.

Anvar urik daraxtining shoxlarini egib, unga ozor berayotganida birdaniga urik daraxti tilga kiribdi. Daraxt Anvarga yalinib- yolvoribdi: Anvar, Anvar shoxlarimni egib ozor berib kiynama, axir men senga va urtoklaringa shirindan-shakar meva solib beraman.

Menga ozor bersang, shoxlarimni kiynasang, shoxlarim usmaydi, gullamaydi, meva tugmaydi.

Odobli bolalar meni asrab parvarish k;iladilar. Sen xam meni avayla, lekin Anvar daraxtning gaplariga kulok; solmay chikaveribdi.

Shu payt urik daraxtining katta shoxi sinib, ona chumchukningn bolasi yerga yitsilib tushibdi. Ona chumchukning oyogi sinibdi.

Buni kurgan Anvarning urtoklari undan xafa bulib, chumchukning bolasi bilan parvarish kilgani uylariga olib ketishibdi. Anvar yolgiz kolibdi va kilgan ishidan pushaymonbulibdi.

Anvar nima uchun daraxtga chikidi?

Bolalar, Anvar kilgan ish tugrimi?

Nima uchun biz kush va daraxtlarni sevamiz.

II qism.

Eshik takillab bir bola kiradi (kupgina kuchatlar bilan). Bolalar men kilgan ishimdan pushaymonman, meni kechiringlar. Men bopща kush va daraxtlarga ozor bermayman. Men doimo kush va daraxtlarni parvarish kilib, ularni asrab-avaylayman. Mana, xdmmamiz kuchatlarni ekib, bogchamizni bot kilamiz.

Anvar: Raxmat bolalar, endi xammamiz kuchat ekamiz. Daraxtlar katta bulgach, sizlarga shirin mevalar solib beradi.

Tarbiyachi: Anvarjon, bizga o’rik, olma, bodom, nok, olcha, xurmo kuchatlari olib kelibdi.

III. Kuchatlarni ekishdan oldin rasmini chizamiz. Bolalar rayem chizib bulgach, chizgan daraxtdaringiz sizlar raxmat aytmokda deb tarbiyachi bolalarni ragbatlantiradi.

IV. Tarbiyachi: Endi xammamiz bogimizga chщib, mevali daraxt kuchatlarini ekamiz. Bolalarni kuchat ekishga olib chik;ib, kuchat ekishda faol katnashayotgan bolalarni ragbatlantirish. Kuchatni ekishdan avval yerni chukur-chukur kovlab, kuchatni ushlab turib, suv kuyib sungra tuprok bilan yopiladi. Bolalar buni uzlari bajarishga xarakatkiladilar.

Mashg’ulot sunggida Anvarjon xayrlashib ketadi.

Mashg’ulotda yaxshi qatnashgan bolalar ragbatlantirib, “Mazasidan top” o’yinini o’ynab yakunlanadi.

6 yoshli bolalar uchun

Yil fasillari

Mavzu: Yil fasillari :<<Bu qochon sodir bo’ladi?>> o’yini orqali bilimlarni mustahkamlash.

.Bolalarning yil fasllari haqidagi bilimlarni mustahkamlash

Kutilyotgan natija :

.<<Bu qachon sodir bo’ladi? >> o’yini orqali, bolalarning yil fasllari to’risidagi bilimlarini mustahkamlash

.Bolalar yil fasillarida sodir bo’ladigan hodisalarni bilib oladilar .

Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo’naltirilgan , ishtirok etishga muljallangan interfoal usullar :

.Qissqa hikoya

.Tushuntirish

.Savol-javob

.Amaliy ish

.Tetiklashtiruvchi mashq .

Kirakli jihozlar.

.Fasillar rasmi

.mazayka

.Rag’batlar

Mashg’ulotningborishi

Tarbiyachi:Bolajonlar, men sizlarga bir hikoya aytib beraman << Aqilliy , dono va ahil inoq bo’lgan 4 og’a-ini yashar ekan . Har bir og’a-ini bir yilda uch oy o’ziga yarasha ishlarni qilar va yana bulutlar orasidagi guzal gushaga << Bulutlar qasriga>> qaytar ekan .Ular navbati bilan to’qqiz oy dam olar ekan >> .
Bolalar, hikoya nima haqida ekanligini bilib oldinglar deb o’ylayman. Bilib olmaganlar hikoyamning davomini eshitamiz .

<<Bu aka-ukalar,albatta fasillardir.Ulardan birinchi bo’lib qish fasli kirib kelar ekan. Kunlar sovib qor yomg’ir yog’ar ekan Quyosh ham ko’p ko’rinavirmas,odamlar esa qalin kiyimlar kiyishadilar.Bolalar mazza qilib qor o’ynashar va Yangi yilni orziqib kutisharekan.

Kunlar ketidan kunlar o’tib Qishning vaqti o’tib o’z o’rnini Bahor fasliga bo’shatib beradi. Qish esa yana o’znavati kelguncha << Bulutlar qasriga >> yo’l olar ekan. Bahor o’zi bilan do’slari Boychichakvaolis yurtlardagi qushlar hamuchub keladilar katta va kichiklar birdik xursandbo’ladilar . Daraxitlar barg qiyg’os gullay bayramlar soni ortib boradi >>.

Tarbiyachi: Bolalar Bahor faslidagi bayramlarni bilamiza eslab olqaylikchi qani unda boshladik.

Bolalarfaoliyat:_____

Bahor fasli mamnuniyat bilan <<Bulutlar qasri>> ga qaytib ketar ekan. Bahordan keyin navbat qaysi fasilga.To’g’ri Yoz fasliga kelar ekan .Yoz fasli juda issiq bo’lar ekan .SHu sababli ko’plab mevalar pishib yetiladi . Yozda bolalar mazza qilib oromgohlarda dam olishar , cho’milishar , turli o’yinlar o’ynab, sport bilan shug’ullanib kuch to’plashar ekan .

Yoz fasli yakunlangach Kuz kelar ekan . Kuzda xavo bir oz salqinlashib bazida yomg’irlar yog’ar ekan .Kuzda o’lkamizdagi qushlar issiq o’lkalarga uchub ketadi.Daraxitlarning ranglari sariq qizg’ish ranga kiradi va to’kiladi.Barcha ekinlar va mevalar pishib yitiladi.

Jilvokor Kuz fasli ham o’z shuhliklarini qilib o’z qasriga qaytar va Qish bobo yana fasillarni davom ettirar ekan >>.

Tarbiyachi:

qaysi faslda qanday voqiya sodir bo’lishini bilib oldik bilganlarimizni o’yin savol javoblar orqali mashg’ulot davomida takrorlab boramiz .

Bilimlarni mustahkamlash uchun o’yin :<<Mening faslim >>

Bolalarni 4 ta kichik jamoaga bo’lib chiqamiz va jamoa sardori aniqlanadi .Jamoa kelishgan holda jamoaga nom quyadilar. Guruh ishtirokchilari o’yinda faol bo’lish talab etiladi. Har bir guruhdan 1 dan bola chiqib qaysi fasilda tug’ilganini aytadi qaysi jamoada qaysi fasl ko’roq uchrasa demak unga achko beriladi .2 shart fasllar haqida sher, qushiq aytish talab etiladi. Navbatdagi sharti esa 4 faslga oid bo’lgan mazaykalarni guruh birgalikda tuzish hamjihatlikda ishlashni tarbiyachi kuzatib

borish o’yn oxrida barcha bolalarga yahshi ishtiroki uchun rahmat aytib undan xursand ekaligini bildirish.

Bolalar bilimini tekshirish va mustaxkamlash uchun savollar.

.Bir yilda nechta fasl bor ?
.Qaysi fasilda havo issiq bo’ladi ?
.qaysi fasilda qor yog’adi?
.Siz qaysi faslni yahshi ko’rasiz ?
.Kuz faslida qanday voqialar sodir bo’ladi.
.Yangi yil ,Navro’z bayramlariqaysifasllarda uchraydi?

24- mavzu: Turli yosh guruhlarda tabiat burchagida navbatchilik ish xujjatlarni ishlanmasini tayyorlash (plan-konspekttuzish)

Darsning maqsadi: Talabalarni Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi va nazariyasini rivojlanish jarayoelari hamda bu jaarayonga hissa qo’shgan fan fidioiylari bilan tanishtirish.

Darsning jihozi: Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasiga doir adabiyotlar, fan fidoiylarining suratlari, yaratgan asarlarining namunalari va ular hakida internetma’lumotlari.

Mashg’ulot rejasi:

1. **Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkiletish.**
2. Jonli tabiat burchagi

Tabiatda davomli (uzoq vaqt davom etadigan) kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak. U yerda hayvon va o’simliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni o’rganishda foydalanish mumkin. Burchak shuningdek tarbiyachilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun baza hisoblanadi. Bu yerda ular yilning itsagan vaqtida ish olib borishlari mumkin.

K.D.Ushinskiy quyi sinflarda tabiatni o’rganishni bolani doimo o’rab to’rgan va ularga tanish bo’lgan o’simlik va hayvonlardan boshlash kerak deb tavsiya qilgan. Bu printsipga darslarda ham, sinfdan tashqari mashg’ulotlarda ham amal qilish kerak. Bu printsipni amalga oshirishga jonli tabiat burchagidagi ishlar imkon beradi. SHu vaqtning o’zida u tarbiyachilarda jonajon o’lkaga muhabbatni tarbiyalaydi, tabiat to’g’risidagi ularning bilimlarini kengaytiradi.

Tabiatga o’tkaziladigan ekskursiyalar jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanishi bo’lishi mumkin. Suv havzasidagi hayot bilan tanisha turib, tarbiyachilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qo’ng’izlar, gambuziya, peskar (tanga baliq), shuningdek suv o’simliklarining barchasi akvarium, shisha bankalar yoki boshqa yaroqli idishlarga joylashtiriladi. Bog’ va polizlarda ko’pincha meva, rezavor meva hamda sabzavot o’simliklari zararkunandalarining g’umbak va qurtlari uchraydi. Ekskursiya vaqtida ularni yig’ib, jonli tabiat burchagida ular utsida hasharotlar taraqqiyotining butun tsiklini tekshirib borish va yeb to’ymas qurtning harakatsiz g’umbakka aylanishini, g’umbakdan yetuk kapalak chiqishini ko’rish uchun kuzatishlar tashkil qilish mumkin. Jonli tabiat burchagiga keltiriladigan tirik ob‘ektlar alohida daftarda hayvon yoki o’simlikni keltirish vaqti (kuni), kimdan qabul qilinganligi, hayvonning nomi va uning holatini ko’rsatib qayd qilib borilishikerak.

Jonli tabiat burchagi uchun xona. Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan ma‘qul. Bunday imkoniyat bo’lmaganda o’simlik va hayvonlarni tabiatshunoslik kabineti yoki sinfda joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug’ bo’lishi, deraza ro’parasiga qo’yilgan har xil tagliklarga suv hayvonlari hamda o’simliklari bo’lgan akvariumlarni qo’yish qulay bo’ladi.

Agar jonli burchak alohida xonada bo’lsa, unda qushlarni ham saqlash mumkin. Barcha qush qafaslariga tozalash oson bo’lsin uchun harakatchan taglik va oziq uchun harakatchan yashik o’rnatiladi. Maktab tabiat burchagida sa‘va, to’ti, chittak, chechetka kabilarni saqlagan yaxshi. +afaslar devor yoki derazalarga ilib qo’yiladi, ammo shamol g’urillab o’tadigan joyga qo’ymaslik kerak, bunday joy qushlar uchun halokatlidir. Terrariumlar xona o’rtasiga yoki devor bo’ylab qo’yilgan tsolchalarga o’rnatiladi. Sut emizuvchilarning (olmaxon, dEngiz cho’chqasi) katakchalari xonaning qorong’iroq qismida polga qo’yiladi. Agar tabiatshunoslik kabineti katta bo’lmasa, o’simlik va hayvonlarning bir qismini sinflarda joylashtiriladi va ular kerak bo’lganda foydalaniladi.

Jonli tabiat burchagini jihozlash. Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq bo’lishi kerak. Akvariumni zoomagazindan olish ma‘qul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanish mumkin, lekin shuni hisobga olish kerakki, baliqlar to’rtburchak idishda yaxshi ko’rinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning katta-kichikligiga (o’lchamiga)

va undagi o’simliklarning soniga muvofiq bo’lishi kerak, bunda yutiladigan va chiqariladigan kislorodning balansi ta‘minlansin.

Akvariumda yashovchilarga doimiy parvarish zarur. Oziqni zoomagazindan sotib olish mumkin. Baliqlarni ular shartli refleks hosil qilishi uchun muayyan vaqtda oziqlantirilishi kerak. Bolalar termometr bilan o’lchab, suv haroratini tekshirib borishga o’rganishlari lozim.

Sudralib yuruvchilar va suvda ham quruqda yashovchilar uchun xilma-xil ko’rinish va katta-kichiklikdagi terrariumlar quriladi. Odatdagi terrarium metaldan yoki yog’ochdan tayyorlangan yashik bo’lib, yon va tepa devorlari shisha va to’rdan iboratdir. SHisha devor terrariumda yashovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to’rdan bo’lishi toza havo bilan ta‘minlash imkoniyatini beradi. Terrariumning metall tagiga tuproq sepiladi, unga o’simliklar o’tqaziladi va suvli idish joylashtiriladi. Terrariumga unda yashovchilarning yashirinib olishi uchun toshlar qo’yiladi. Suvga va quruqqa ehtiyojmand suv baqalari va tritonlar uchun akvaterrarium, ya‘ni quruqlik oroli bo’lgan akvarium quriladi, uni akvarium tagiga tuproq solingan va suv sathidan biroz ko’tarilib turadigan shisha banka qo’yib tayyorlash qiyin emas. +uruqlik uchatskasini suv otsiga o’rnatish yoki suzuvchi qilish mumkin.

O’simlik va hayvonlar namunalarini yig’ish, kuzatishlar tashkil qilish. Jonli tabiat burchagining aholisi (yangi o’simlik va hayvonlari) uning asosini tashkil qiladi, unga qarab jihozlar tanlanadi. O’simlik va hayvonlar to’plami tabiatshunoslik datsuriga qarab, o’lkashunoslik xususiyatlarini hisobga olib belgilanadi. Barcha xona o’simliklari ularning nomlari, qachon va qaerdan olinganligi to’g’risida ma‘lumotlar yozilgan etiketkalarga ega bo’lishlarizarur.

O’simliklardan avval shundaylarini tanlash kerakki, ular yordamida namlik, issiqlik, yorug’lik, suv itse‘mol qilishdagi farqlarini, jumladan quruq iqlimga (kaktus, aloe), nam iqlimga (asparagus, tradeskantsiya) moslangan o’simliklarni, tropik o’simliklarni (begoniya), mo’‘tadil iqlim o’simliklarini (navro’zgul), yorug’lik sevuvchi (xina) va soyaga chidamli (plyushch, aspiditsra) o’simliklarni namoyish qilish mumkinbo’lsin.

Keyin shunday o’simliklar tanlanadiki, ular, masalan, yorongul, fuksiya, begoniya, kaktus, tradeskantsiya, elodeya, binafsha kabilarning har xil turlari yordamida turlicha tajribalar o’tkaziladi. Tradeskantsiyada qalamchalar bilan ko’paytirishni namoyish qilish yax-shi bo’ladi. Begoniya, fuksiya, yoronguldan ham foydalanish mumkin. Barglardan ko’paytirishni uzumbark, binafsha yoki begoniya reksda ko’rsatish mumkin.

Jonli tabiat burchagida tajribalar o’tkazish uchun har xil madaniy o’simliklarning urug’laridan: loviyaning quruq, ivitilgan yoki undirilgan urug’larida» (1 guruh), rediska, qizil lavlagi, sabzi urug’laridan (2 guruh),pomidor

va g’o’za chigitidan (3 guruh) keng foydalaniladi. Tajribalar tabiatshunoslik va qishloq xo’jaligi mehnati datsuriga muvofiq o’tkaziladi.

Jonli tabiat burchagida hayvonlarning har xil turlari bo’lishi kerak. Barcha akvariumlarda chig’anoqli mollyuskalar bo’lishi kerak, chunki ular akvarium devorlarini suv o’tlaridan tozalaydi va atmosfera havosidan nafas olgani uchun akvariumdagi boshqa hayvonlar uchun zarur bo’lgan suvdagi havoni yutmaydi. Baliqlardan yashash sharoitlariga uncha talabchan bo’lmaganlarini, masalan, guppi, qilich baliq, tilla baliq, to’rsimon dumli baliq, teleskop, kometa kabilarni saqlash yaxshi. Aylanchiq baliq, suv qandalasi kabi suv havzalarining vakillarini alohida shisha bankalarda saqlash kerak., chunki ularni baliqlar yeb qo’yadilar. SHuningdeq yirtqich hisoblangan gambuziyani ham alohida saqlash zarur.

Tabiatshunoslikni o’qitish jarayonida akvarium katta rol o’ynaydi, tarbiyachilar suv hayvonlarining harakatlanishini kuzatadilar, ularning tana qismlarini ko’radilar, qanday ov qilishlarini kuzatadilar. Baliqlarni harakatda ko’ra turib, bolalar ularning harakat organlariga e‘tibor beradilar, baliqlar hayotida rang qanday rol o’ynashligini aniqlaydilar. Gambuziya va tangabaliqlarning ko’payishini kuzatishga alohida e‘tibor beriladi. Kuzatishlar kundaliklarida tangabaliq lichinkalari va gambuziya chavoqlarining paydo bo’lishi va rivojlanish muddatlari yozib boriladi. Akvariumda hayvonlardan tashqari o’simliklar (shoxbarg, urut, vodokras, vallesneriya, elodeya, ryaska) ham saqlanadi, ular bilan tarbiyachilar datsurni o’tish davomida tanishib boradilar.

Datsurga muvofiq kichik yoshdagi maktab tarbiyachilari baqa va qurbaqaning rivojlanishini (itbaliq, dumli baqacha va yetuk baqaning vujudga kelishini) ham kuzatadilar. Jonli tabiat burchagida bolalar ularni solishtirishlari, tana qismlarini qarab chiqishlari, ularning tuxumlari qanday farq qilishini, tuxumdan itbaliq rivojlanishini ko’radilar. Terrariumda tarbiyachilar, shuningdek kaltakesak va toshbaqalarning xulq-atvori, harakatlanishi, tashqi xususiyatlarini kuzatishlari mumkin.

Tabiatshunoslik o’qituvchisi tarbiyachilarning jonli tabiat burchagidagi o’simlik va hayvonlarni sitsemali ravishda parvarish qilib borishlariga, gullarni muntazam sug’orishlari, barglarni yuvishlari, hayvonlarni boqishlari hamda toza joyda saqlashlariga erishish kerak. Buning uchun tarbiyachilarning navbatchiligi yo’lga qo’yiladi.

Jonli tabiat burchagidagi tajriba, kuzatish va amaliy ishlar o’qituvchining diqqat markazida bo’lishi va u tomonidan nazorat qilib borilishi kerak. Barcha ishlar reja bo’yicha ko’rilishi zarur, reja tuzishda mavsumiylik printsipiga amal qilish lozim. Burchakdagi ishlar yillik, yarim yillik va choraklik tuziladi. Reja tuzishda tarbiyachilarning qiziqishlari, umumiy taraqqiyoti, shuningdek ishning uddalay olinadigan bo’lishi hisobga olinadi. Rejada maqsad va mavzuni belgilash, ishning

mazmuni va shakllari ochib berilishi, amalga oshirish metodlarini ko'rsatishi, tarbiyachilar egallashi mo'ljallangan amaliy ko'nikmalar belgilangan bo'lishi kerak. Ayrim mavzularni ham rejalashtirish mumkin. (Jonli tabiat burchagidagi ishlar rejasining taxminiy shakliga qarang.)

Jonli tabiat burchagidagi ishlar rejasining taxminiy shakli

Mavzu va ishning mazmuni

Mavzu bo'yicha soatlar

Ishningboshlanishi va oxiri

Amaliy ko'nikmalar

Bajarilishi uchun mas'uliyatli shaxs

Ish rejasining bajarilishini maxsus jurnalda qayd qilib borish zarur. Jurnal sifatida umumiy daftar xizmat qilishi mumkin, unda o'qituvchi tarbiyachilar bajargan ishning hajmi va olingan natijalar ko'rsatiladi. tarbiyachilarning kuzatishlar kundaliklari hisobga olishning shaklidir, unda kuzatishlar qisqacha yozib boriladi, rasmlar chiziladi, quritilgan o'simliklaryopishtiriladi.

O'lkashunoslik burchagi

1 guruhdan boshlab tarbiyachilar o'z o'lkalari, o'z joylarini o'rganadilar, tabiat utsida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Boshlang'ich maktabda o'qish vaqtida ularda boy faktik material to'planadi, bu material o'lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlang'ich maktabni ilgarigi bitiruvchilari yiqqan eng qimmatli materiallar to'planib boradi, undan tabiatshunoslikni o'qitishda sitsemali ravishdafoydalaniladi.

Gulli o'simliklarni ochiq va yopiq yerlarda ko'paytirish.

Manzarali o'simliklar urug'idan va usulda, ya'ni ona o'simlikda uning qismlari – bargi, kurtagi, ko'chati, shoxi, ildizi, tuganagi va hokazolarni ajratish yo'li bilan ko'paytiriladi. Ko'pgina bir yillik o'simliklar urug'idan ko'paytirilganda, shu navga tegishli xususiyatlarni saqlab qoladi. Ko'p yillik manzarali o'simliklardan, shu jumladan, piyozsimon o'simliklardanurug' ko'paytirish, koida bo'yicha, turli tuman avlodlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Bu o'simliklar ko'pincha vegetativ yo'l bilanko'paytiriladi.

Ochiq yerga quyidagi xususiyatli o'simlik urug'lari ekiladi:

a) talabchan emas va chidamli (kalendula, mattiola,koreopsis);

b) tez o'suvchan (loviya,nastrustiya);

v) kuchli rivojlangan o'q ildizli va ko'chirib o'tqazishga chidamsiz (delfinium, bir yillik lyupin, ko'knori,rezeda);

g) kech gullovchi (levkoya,qo'qongul);

d) urug'lari qiyin iviydigan po'choqli (akonitum, anemos, iris,liliya);

e) ko'chatlari issiqxonalarda chirishga moyil bo'lgan (gesperis, iberis, lyupin vaboshqalar);

yo) ekilgandan 1 yil o’tgach, unib chiqadi (ko’p yilliklar – adonis).

Butashga mo’ljallangan bir yillik o’simliklarni yetishtirishda, shuningdek, ularning davomli gullashini ta’minlash uchun, urug’lar bir necha muddatlarda ekiladi (5-7 kunoralig’ida).

Bir yillik o’simliklarni ko’chatsiz yetishtirish usuli mehnat sarfini va o’simlik tannarxini ma’lum darajada kamaytiradi, bunda o’simlik kuchli rivojlanishi bilan ajralib turadi, kamroq kasallanadi. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, o’simliklar ko’chat Bilan yetishtirilgandagiga qaraganda bir muncha kech gullaydi va urug’ 2,5-3 baravar ko’p sarf bo’ladi.

Gul urug’lari ekish uchun tuproq qunt Bilan tayyorlanadi. Kuzgi haydalgan yoki shudgorlanib yoz bo’yi ekilmagan yerlarga rejaga muvofiq joylashtiriladi, kultivastiya va borona solinadi. Bir yillik o’simliklarni ko’chatsiz usulda yetishtirishda urug’lar bahorgi don ekinlarisingari mart oxiri – aprel boshlarida (qachonki yer yetilganda) ekiladi.

Er haydalayotganda yoki kultivastiya paytida o’g’it to’liq solinmagan bo’lsa, u holda jo’yak tortish davomida $1m^2$ yerga 30-50 g. superfosfat, 20-30 g. kaliy tuzi beriladi. Yuqori kislotali tuproqlarni ohak bilan o’g’itlash tavsiya qilinadi. Urug’ yaxshi shamollatilgan torf, qum yoki chirindilar bilan ko’mib berkitiladi. Urug’ni g’altakmola bilan tekislab, ehtiyotkorlik bilansugoriladi.

Lekin boshqa maqsad ham bo’lishi mumkin. Masalan, tomoshabinda (dam oluvchi) gullarning go’zalligi, ularning rangi, shakli, hidi, yangiligi va takrorlanmasligi bilan yaxshi kayfiyat hosil bo’lishi ehtimoldan holi emas. Bu holda umumiy arxitektura maqsadiga bezatish bo’ysunmaydi, ya’ni teskarisi, arxitektura ansambllari va ularning detallari o’simliklar shaklining o’ziga xosligini ajratib ko’rsatadi., ularga qo’shilib ketadi va o’ziga xos garmoniya kasb etadi.

Parterli va turli kompozistiyali rang-barang, chiroyli gulzorlar alohida xususiyatga ega inshootlarni bezatishda ishlatiladi. Jumladan, bu ishlar ko’rgazmalar, malaniyat saroylari, haykallar, memoriallar, muzeylar, teatrlar ro’parasida amalga oshiriladi. Gullar va boshqa o’simliklarning barcha sifatini ko’rsatish uchun, bog’lar, hiyobonlar va alohida gulzorlarni ko’kalamzorlashtirishda turli klassik usullardan - regulyar (geometrik, franstuz) va landshaft (ingliz) usullaridan foydalanish mumkin. Bu usullar tinch, shoirona muhit va tabiatga bevosita yaqinlik tasavvurini aks ettiradi. SHaharlar va boshqa yirik aholi punktlarida madaniyat va dam olish bog’lari shunday tashkil etiladiki, ularla gulzorlar, gazon (maysazor) lar daraxt butalar bir nechta mintaqalarda turlicha maqsad va har xil ko’rininshda joylashishi mumkin. Ko’kalamzorlashtirishda hiyobonlar, dahalar, maxsus bog’lar - rozariyalar, sirEngariyalar, georgonariyalar va hokazolar ham katta ahamiyat kasbetadi.

3. Gulzorlarni tashkil qilish - bu loyihalash va ularni amaliyotda bajarishdan iboratdir. Gulzorlar loyihasini hiyobonlar, istirohat bog'lari va boshqa qurilishlari mo'ljallangan joydan ajratilgan holda amalga oshirish mumkinemas.

Gulzor deganda turli ob'ektlarni bezatish uchun mo'ljallangan va o'zida maysazorlar, yo'lakchalar bir yillik va ko'p yillik gullovchi hamda manzara beruvchi bargli o'simliklar va kichik arxitektura shakllarini mujassam etgan maydon tushuniladi. Gulzorlar qisqa vaqtli dam olish va bezatish uchun ishlatiladi, shuningdek joyning konfigurastiyasiga ko'ra turli shaklda - to'rt burchak, cho'zinchoq yumaloq, to'g'ri burchak bo'lishi mumkin. Gulzorlar turli o'lcham va shakldagi klumbalar, maysazorning yashil fonidagi rabatkalar va hoshiyalardan tashkil topadi. Gulzorlar maydoni kichikroq maydonchadan (4-5 dan 20 m gacha) 1 gektargacha va undan ko'proq bo'lishimumkin.

Gulzor aniq tarkibiy qismga ega: 1) turli shakldagi gul ekinlari: 2) yo'lakchalar; 3) maysazor. Ularning klassik mos tushishi, gul ekinlari maydoni, fo'lakchalar va maysazorlarning 3:5:8 munosabati hisoblanadi. So'ngi yillarda maysazorlar ko'proq gullar uchun esa kamroq joy ajratiladi. Ob'ektlarni ko'kalamzorlashtirish turli elementlarning foizli munosabati ham mavjud. Daraxtlarga 40-50 foiz va (janubda birmuncha ko'proq), butalarga 10-20 foiz (shimolda ko'proq), maysazorlar uchun 8-18 foiz, gul ekinlariga 4-8 foiz va yo'lakchalarga 15-20 foiz joy ajratish tavsiya etiladi.

Gulzor qismlari juda chiroyli, ko'zga tashlanib turishi, yorqinbo'lishi kerak, shu masalani yechishda «oltin proporstiya» qoidasidan foydalanish yordam beradi, bunda birinchi ikki sonning yig'indisi uchinchi sonni beradi hamda birinchi son ikkinchi sonning yarmisidan katta.

Gulzorlar tashkil qilishda quyidagi qoidalardan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Gulzor - klumbaning o'rta, markaziy qismi eng yorqin, diqqatni jalb qiluvchi bo'lishi kerak. U havo'z haykal yonida yoki o'zicha mustaqil ob'ekt bo'lishi mumkin.
2. Gulzordagi gul shakllari mayda bo'lmasligi kerak, aks holda u xunuk ko'rinishi mumkin. Oddiy chiziqli yirik shakl hosil qilinishima'qulroqdir.
3. Gulli shakllar kamroq va ma'lum masofalarda gazon (maysazorlar) bilan ajratilgan bo'lishikerak.

Nusxa loyihasini tuzish va tasdiqlanish dekabr oyining oxiri yanvar oyining boshidan kechiktirmaslik kerak, chunki ko'kalamzorlashtirish uchun kerakli o'simlikko'chatlariniyetishtirishbo'yichaishlabchiqarishtopshirig'inioldindan berish lozim. SHundan so'ng ekishning ishchi chizmasi masshtabda, bo'yoqsiz bajariladi,bundayo'llarningeni,klumbalarningdiametri,rabatkalareniva

uzunligi, ekishuchuno'simliklar va jo'yaklar orasidagi masofa ko'rsatiladi. Ekish chizmasi loyihani amalda bajarish rasmlar, rabatkalarning rejasituziladi.

Ko'kalamzorlashtirish ob'ektida birinchi navbatda turli kommunikastion yo'llar (vodoprovod, elektroprovodka va hyuk) o'kaziladi. SHundan so'ng daraxt butalar ekiladi, yo'l tarmog'i, turli maydonchalar quriladi, maysazorlar aralashmasi ekiladi va oxirgi navbatda gulli o'simliklar ekiladi hamda urug'lari sepiladi.

25- mavzu: Inovatsion texnologiyalar asosidatabiatbilan tanishtirish mashg'ulotlarni ijodiy tashkiletish.

Tarbiyachi: - "Bolajonlar" sizlar bilan "**Mening bolam qani**" o'yinini o'ynaymiz. Buning uchun katta doiraga hayvonlarning rasmini joylashtirasiz, kichik doiraga ularning bolalarini topib namunaga qarab joylashtirasiz.

"**Mo'jizalar maydoni**" deb nomlangan bu o'yinni guruhlar tashkil qilib doirachalarni ko'paytirish mumkin. Doiramizning biri katta ikkinchisi kichik bo'lishi kerak. Shundan so'ng katta doiraning ustiga kichik doirani qo'yib o'rtasidan mahkamlab qo'yamiz. Mavzuga mos tarzda doiralar ichiga suratlar joylashtiramiz. Bu texnologiyani "Qaysi hayvon qayerda yashaydi?", "Qaysi hayvon nima yeydi?", "Qaysi daraxtning bargi?" kabi mavzularda qo'llash mumkin



. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda o’yinlardan foydalanish ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samaraladorliginioshiradi.

Vaqt haqidatasavvur.

Mavzu: **Ertalab , kunduzi , kechqurun , tun kabitushunchalarni mustahkamlash vachuqurlashtirish.**

Maqsad:

- Bolalarning vaqt haqidagi tushunchalarinimustahkamlash.

Kutilayotgannatijalar:

- Bolalarning sutka qismlari haqidagi tushunchalarikengayadi.
- Bolalar nutqda sutka qismlari : ertalab , kunduzi , kechqurun , tunso’zlarini ma’nosini tushungan holda to’g’riqo’llaydilar.

Keraklijihozlar:

- Sutka qismlarini tasvirlovchi rangli qog’ozlar (O’lchami : bo’yi 10sm , eni 10 sm)
- Sutka qismlarini tasvirlash uchun doira (diametric 12sm)
- Sutka qismlari tasvirlangan suratlar (bo’yi 8 sm, eni 8 sm)

Mashg’ulotningborishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, bizlar ertalab , kunduzi , kechqurun haqida sizlar bilan oldin hamgaplashganmiz.

Shuning uchun hozirgi savollarimga qiynalmay javob berasizlar . Mana .mening qo’limda 3 - xi loch pushti rang , sariq va to’q ko’k rangdagi qog’ozlar.

1. Och pushti rang kunning qaysi vaqtiga o’xshaydi? (Ertalabga)
2. Ko’k rang kunning qaysi vaqtiga o’xshaydi? (Kechqurunga)
3. Sariq rang kunning qaysi vaqtigao’xshaydi?

(Kunduzga)

4. Bolajonlar , mana bu qora rangni qaysi vaqtga o’xshatish mumkin? (Bolalarning javobi)



Tarbiyachi: To’g’ri tunga o’xshaydi . Bolajonlar , biz hozir ertalab , kunduzi , kechqurun va tun haqida gaplashdik.Ertalab , kunduzi , kechqurun va tun - hammasi birgalikda 1 sutkani hosil qiladi .Hozirgi gapimda sizlarga notanish bo’lgan qanday so’zni ishlatdim? To’g’ri , sutka so’zini ishlatdim . Ertalab , kunduzi , kechqurun va tun – bular sutkaning qismlari ekan. Sutka har doim shu qismlardan iborat . Ertalabdan keyin Kunduz keladi , kunduzdan keyin kechqurun , kechqurundan keyin tun , tundan keyin ertalabkeladi.

Bolalar uchun amaliyish.

Tarbiyachi: Bolajonlar , “ Sutka qismlari “ deb nomlangan doirani 4 ta qismini sutka qismlariga mos ranglargabo’yang.



Ishni tugatganlaridan so’ng , tarbiyachi ulardan o’z rasmlarini ko’rsatib sutka qismlaridan qaysini qanday rangga bo’yalganligini aytib berishni so’raydi.

Tetiklashtiruvchimashq.

Tarbiyachi: Bolajonlar ,hozirsizlar bilan “ sutka” o’yinini o’ynaymiz. Men “ Kun” desam turasiz , “ Tun” desam o’tirib ko’zlaringizni yumasiz , “Ertalab”

desam turib , yuvinish harakatini bajarasiz , “ Kechqurun” desam raqsga tushasiz.

Bilimlarni mustahkamlash uchun o’yin : “ Tog’ri joylashtir” .

Bolalar yoniga Bilmasvoy keladi. Bolalar bilansalomlashadi. Tarbiyachi nega u g’amgin ekanligini soraydi. Bilmasvoy rasmlarolib kelganini , bolalarga tartibi bilan : sutka qismlarini ko’rsatmoqchi ekanini , ammo hammasini aralashtirib yuborganini, ularni to’ri joylashtira olmayotganini aytadi. Tarbiyachi rasmlarni tartibga solishda Bilmasvoyga yordam berishni taklif qiladi. Bolalardan rasmlarni qanday joylashtirish kerakliginiso’raydi.

Sutka qismlari tasvirlangan rasmlar to’plami ichidan bolalar bir sutkaga tegishli qismlarni tartib bilanyig’adilar.

Tarbiyachi bolalarning juda aqlli ekanligini ta’kidlab , sutka qismlari ketma – ketligini ularning istalganidan boshlab tartib bilan qo’yib tushuntirib bera olishini aytadi . Bolalar Bilmasvoyga o’rgatish maqsadida sutka qismlarini istalgan vaqtidan boshlab yig’ib tushuntiribberadilar.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :

1. Ertalab , kunduzi , kechqurun va tunni birgalikda qanday atashimiz mumkin?
2. Bir sutkada qanday qismlardan tashkiltopadi?
3. Bir sutka davomida qanday ishlarni qilishmumkin?
4. Kunduzdan keyin sutkaning qaysi vaqtikeladi?
5. Tundan keyin sutkaning qaysi vaqti keladi?

27-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish bo‘yicha davlattalablari.

Darsning maqsadi: Talabalarda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga kuyiladigan davlat talablarining mazmuni, vazifalari xakida nazariy bilimlarni berish bo’yicha ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. SHuningdek bu talablarni amalga oshirish usullarinio’rganish.

Darsning jihozi: Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim - tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari, talablarni amalga oshirishga oid davlat hujjatlari, jarayonlar tasvirlangan qisqa metrajli filmlar.

Mashg’ulot rejasi:

1. Maktabgacha ta’limning asosiyvazifalari.
2. Maktagacha yoshdagi bolalarning ta’lim tarbiyasiga qo’yiladigantalablar.

Inson, uning xar tomonlama uygun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ruyobga chikarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulk-atvorning andozalarini uzgartirish respublikada amalga oshirilayotgan isloxotlarning asosiy maksadi va xarakatlantiruvchikuchidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta’lim tugrisida»gi Uzbekiston Respublikasi Konunining koidalariga muvofik xolda tayyorlangan Dastur kadrlar tayyorlash

milliy modelini ruyobga chikarishni, xar tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-xunar dasturini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta uzlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, xukukiy, psixologik-pedagogik va boshka tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida uz javobgarligini xis etadigan fukarolar tarbiyalashni nazarda tutadi.
Maktabgacha ta’lim bola soglom, xar tomonlama kamol topib shakllanishni ta’minlaydi, unda ukishga intilish xissini uygotadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorladi.

Maktabgacha ta’lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida xamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim maksadi va vazifalarini ruyobga chikarishda maxallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalkaro fondlar faol ishtirok etadi.

Xalkning boy intelektual merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iktisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuklari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Uzbekiston tarakkiyotining muxim shartidir.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim buladi:

- Malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishdatayyorlash;
- Maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriyetish;
- Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jixatdanta’minlash;
- Zamonaviy ukuv-uslubiy kullanmalar, texnik vositalar, uyinchoklar va uyinlar yaratish xamda ularni ishlab chikarish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalkning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida ma’naviy-axlokiy jixatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlaryaratish;
- MTMlarning xar-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari buyicha malakali konsultatsiya xizmati kursatish imkoniyatiniyaratish;
- Maktabgacha tarbiya va soglomlashtirish muassasalari tarmogini kullab-kuvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chikish kabi vazifalarni maksad kilibkuyadi.

Uzbekiston Respublikasida Maktabgacha ta’lim Tugrisidagi Nizomda maktabgacha ta’limga aloxida urgu berilib, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlangich turi xisoblanadi, xamda Uzbekiston Respublikasining «Ta’lim tugrisida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, xamda davlat va nodavlat davlatga karashli bulmagan maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’limning asosiy vazifalari

- Bolalarni xalkning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida akliy va ma’naviy-axlokiy jixatdantarbiyalash;
- Bolalarda milliy gurur, vatanparvarlik xislarinishakllantirish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish extiyojini, ukishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazzam rivojlantirish, uzining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarinishakllantirish.
- Axloqiy fazilatlar to’g’risida ilk tasavvur va tushunchalarga egabo’lish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining yasli va maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar guruxlariga bir xil yoshdagi, shuningdek turli yoshdagi bolalar kabul kilinishi mumkin.

Guruxlardagi bolalar soni kuyidagicha belgilanadi:

- 1 yoshdan 2 yoshgacha – 10ta.
- 2 yoshdan 3 yoshgacha – 15ta.
- 3 yoshdan 6-7 yoshgacha – 20 ta.
- Turli yoshdagi guruxlarda 15ta.

MTMlari xududlarining demografik, ijtimoiy-iktisodiy va boshka xususiyatlarini xisobga olgan xolda tashkil etiladi, MTMlarini tashkil etish va tugatish Konunga muvofik ravishda amalga oshiriladi.

MTM turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. MTMsiga bolalarni kabul kilish tartibi, ularni bir muassasadan ikkinchisiga kuchirish, muassasadan chikarish davlat muassasalarida Xalk ta’limi Vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga karashli bulmagan MTMlarida esa, muassasaning Ustavi bilanbelgilanadi.

Akliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari mavjud bulgan bolalar uchun maxsus MTMlari yoki guruxlar tashkil etish xam MTM tugrisidagi Nizomda kursatib utilgan.

Xar bir soxada bulganidek, MT tizimida xam MTMlariga tegishli ma’lumotga, kasb tayyorgarligiga xamda yuksak axlokiy fazilatlarga ega bulgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shugullanish xukukigaegadirlar.

Uzbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya kontseptsiyasida xam belgilangan bosh maksad va vazifalar maktabgacha ta’lim muassasalari uchun yozilgan yangi dasturlar mazmunini amalga oshirishga kadar aniklana boradi. Maktabgacha ta’lim muasasasidagi bolaning usishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asosilanib, ta’lim-tarbiya tizimida odob estetik, musikiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi uringa chikarish, gramatikani bu kadar majburiy urgatmaslik lozim buladi. SHunday yul bilan maksad asosida vazifa va usullar belgilanadi varivojlantiriladi.

Glossariy

Mazmuni

Tabiat Tabiat - bu organik (tirik) va noorganik (notirik) dunyoni o‘zida qamrab olgan bir butun olam.

Tabiat - goyat xilma-xil shakllari, tarkibiy kismlari bilan insoni-yatni kurshab turgan organik va anorganik olamlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi. Insoniyat esa undan paydo bo‘lib, ajralib chiqqan mavjudotdir. SHu bois uning bir mohiyati tabiiy (biologik), ikkinchi mohiyati ijtimoiydir. Tabiat tushunchasi ko‘proq keng va qisman tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda tabiat butun ob’ektiv borliq, real voqelik, turli-tuman ko‘rinish-lardagi olam. Tor ma’noda tabiat fan, asosan tabiiy fanlar tabiatshunos-lik o‘rganadigan ob’ektdir . Tabiatning adabiyotlarda ikki darajasi ajra-tib ko‘rsatiladi: birlamchi va ikkilamchi. Bularning birinchisi insoniyat-dan xoli, mustasno tarzda, sof tabiiiy holda mavjud bo‘lgan tabiatdir; ikkinchisi insoniyat ishtirokida hosil etilgan tabiiy ne’matlar - tuproq, suv havzalari va kanallar, daraxtzorlar, ekinzoru mevazorlar, aholi maskan-lari - shahar, qishloq va boshqalar.

Ekologiya Grekcha "oikos" - yashash, uy, makon, "logos" - ta’limot) - umumiy tarzda u organizmlarning yashash joyi, makoni degan ma’noni anglatadi. Populyasiyalar, turlar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosfera kabi tushunchalar ekologiya fanining manbai hisoblanadi. SHuning uchun umumiy ekologiya to‘rt bo‘limga bo‘lib o‘rganiladi: autekologiya, populyasiyalar ekologiyasi, sinekologiya va biosfera.

Tabiat bilan tanishtirish

prinsiplari
Dasturning tabiat bilan tanishtirish bo‘limiga materiallar quyidagi prinsiplar asosida tanlanadi: Bolalarni tabiat bilan tanishtirsh prinsiplari.Bolalar yoshiga moslik prinsipi Ko‘rgazmalilik prinsipi. Ensiklopedik prinsip.Ilmiylik prinsip.O‘lkashunoslik prinsipi.Faslchilik prinsipi.Bolalar yoshiga mos
117
jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo‘lishi bilan birga ilmiy aniq bo‘lishi kerak. Masalan: o‘simlikni yoruglikka, suvga, issiklikka bo‘lgan extiyoji.
Metod Tabiat bilan tanishtirishda metod - pedagog va bolalarning birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. Bunda pedagog bolalarga bilim beradi bolalar esa bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Tabiat bilan tanishtirishda quyidagi metoddardan foydalaniladi: Kuzatish metodi. Amaliy metod.Og‘zaki metod.Bolalarga bilim berishda bilimlar mazmunga ko‘ra metod va usullar tanlanadi.
Kuzatish atrof - olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq, rejali idrok etishdir.
Kuzatish murakkab bilish faoliyati. unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Kuzatilayotgan hodisani tunguntirishda bolaning tajribasi, bilimi, malakalari muximdir.
Bolajon dasturi Dasturniig tabiat bilan tanishtirish bo‘limi. Hamma bo‘limlar bilan uzviy bo‘lingan. Tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni xosil qilish so‘z yordamisiz bo‘lishi mumkin emas.Ona tilini chuqur o‘rganish undan foydalana olish tabiatni kuzatish va o‘rganish bilan chambarchas bogliq. Bola tabiatini kuzatish davomida olgan bilimlarini o‘zlari tasviriy faoliyatlarida aks ettiradilar. Tabiatni kuzatish orqali sanashni, mikdor,

o‘zgarishlarini o‘rganib boradilar (daraxt baland, buta past, daraxt tanasi 1 ta, buta tanasi ko‘p). Jismoniy mehnat bolalarni jismonan baquvvat, soglom o‘sishlari uchun yordam beradi. Bundan tashqari tabiatga oid bo‘lgan harakatli o‘yinlar ham bolani jismonan barkamol bo‘lishiga yordam beradi. Bu misollarning barchasi dasturda o‘z aksini topgan.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Bakalavr mustaqil ta’limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar boyicha fan boblari va mavzularinio`rganish;
- tarqatma materiallar bo`yicha ma’ruzalar qisminio`zlashtirish;
- nazariy material boyicamisolva masalayechish,
- avtomatafshtirilgan o`rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilanishlash;
- maxsus adabiyotlar bo`yicha fan bo`limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

masofaviyta’lim.

Bakalavrga mustaqil ta’limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo`yicha egallanishi kerak bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko`rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko`riladi, test yoki savol-javob o`tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko`rsatiladi va o`xshash misollar yordamidatekshiriladi.

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Hajmi
1	Konstitusiyaning qaysi moddalaridatabiatni asrashga doir qonunlarni o‘rganish tahlilqilish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6
2	Prezident qarorlarini o‘rganish	Adabiyotlardan konspekt qilish.	6
